33	32 eritmaga $Na_2S_2O_3$ ta'sir ettirib, VI analitik guruhning boshqa kationlaridan Cu^{2+} va Hg^{2+} ionlarini ajratish: $Cu^{2+} \xrightarrow{Na_2S_2O_3,\Delta} Cu_2S\downarrow$ $Hg^{2+} \xrightarrow{Na_2S_2O_3,\Delta} HgS\downarrow$
34	Qizdirilganda suyultirilgan HNO_3 ta'sir ettirib, 33 cho'kmadan Cu_2S ni HgS dan ajratish: $Cu_2S\downarrow \xrightarrow{HNO_3;\Delta} Cu^{2+}$ Bu sharoitda $HgS\downarrow$ erimaydi.
35	34 sentrifugatga konsentrlangan $NH_3 \cdot H_2O$ ta'sir ettirib, Cu^{2+} ionlarini topish: $Cu^{2+} \xrightarrow{NH_3 \cdot H_2O} [Cu(NH_3)_4]^{2+}$
36	Qizdirilganda HCl ishtirokida bromli suv yoki zar suvi ta'sir ettirib, 34 cho'mani eritish: $HgS\downarrow \xrightarrow{Br_2;\,HCl} [HgCl_2] + S\downarrow$ $HgS\downarrow \xrightarrow{kons\ HNO_3;\ kons\ HCl} [HgCl_2]$
37	36 sentrifugatga $SnCl_2$ eritmasi ta'sir ettirib, Hg^{2+}ionlarini topish: $[HgCl_2] \xrightarrow{SnCl_2} Hg\downarrow$
38	33 sentrifugatga amil spirt ishtirokida NH_4SCN eritmasi ta'sir ettirib, Co^{2+} ionlarini topish: $Co^{2+} \xrightarrow{NH_4SCN} (NH_4)_2[Co(SCN)_4]$
39	33 sentrifugatga Chugayev reaktivi (dimetilglioksim) ta'sir ettirib, Ni^{2+} ionlarini topish: $Ni \xrightarrow{dimetilglioksim}$ 

11-sxema

I – VI ANALITIK GURUH KATIONLARI ARALASHMASINING SISTEMATIK ANALIZ SXEMASI

1. Alohida namunalardan NH_4^+, Fe^{2+}, Fe^{3+} kationlarini aniqlash
2. Alohida namunadan NH_4^+ ionlarini Na_2CO_3 yoki NaOH ta'-sirida yo‘qotish va eritmadagi K^+ ionlarini aniqlash
3. Alohida namunadan NH_4^+ ionlarini K_2CO_3 yoki KOH ta’si-rida yo‘qotish va eritmadagi Na^+ ionlarini aniqlash
4. 2M HCl eritmasi ta’sirida II analitik guruh kationlarini cho‘ktirish va olingan cho‘kmani tekshirish
5. II analitik guruhni ajratib olgandan so‘ng, sentrifugatdan III analitik guruh kationlarini cho‘ktirish
6. 5 cho‘kmadan $PbSO_4$ ni ajratish va qolgan cho‘kmani III analitik guruh kationlari uchun tekshirish
7. 3%-li H_2O_2 eritmasi ishtirokida, 6M NaOH ta’sirida IV guruh kationlarini V va VI guruh kationlaridan ajratish va hosil bo‘lgan eritmada ularni aniqlash
8. Sb(V) ionlarini V va VI analitik guruhlarning boshqa kationlaridan ajratish
9. Konsentrlangan $NH_3 \cdot H_2O$ eritmasi ta’sirida V va VI guruhlarni ajratish (V guruh cho‘kmada; VI guruh eritmada)
10. 9 cho‘kmani V analitik guruh kationlari uchun tekshirish (Fe^{2+}, Fe^{3+} dan tashqari)
11. 10 eritmani VI analitik guruh kationlari uchun tekshirish

19-jadval

Ba^{2+} VA Ag^{+} TUZLARINING TURLICHA ERUVCHANLIGIGA ASOSLANGAN ANIONLARNING ANALITIK KLASSIFIKATSIYASI

Analitik guruh	Anionlar	Guruh reagenti	Cho'kmalarning xossalari
I	SO_4^{2-}, SO_3^{2-}, $S_2O_3^{2-}$, CO_3^{2-}, AsO_4^{3-}, AsO_3^{3-}, $C_2O_4^{2-}$, CrO_4^{2-}, ($Cr_2O_7^{2-}$), SiO_3^{2-}, BO_2^- ($B_4O_7^{2-}$), F^-, IO_3^-, IO_4^-, PO_4^{3-}, $C_4H_4O_6^{2-}$.	$BaCl_2$ yoki $Ba(NO_3)_2$	Bariy tuzlarining cho'kmalari suvda erimaydi, lekin kislotalarda eriydi ($BaSO_4$ dan boshqa)
II	Cl^-, Br^-, I^-, CN^-, SCN^-, $C_6H_5COO^-$, S^{2-}	$AgNO_3$, HNO_3 da	Kumush tuzlarining cho'kmalari suvda va nitrat kislotada erimaydi.
III	NO_3^-, NO_2^-, CH_3COO^-, ClO_4^-, BrO_3^-	Mavjud emas	Bariy va kumush tuzlarining cho'kmalari suvda eriydi.

20-jadval

KUCHLI KISLOTALAR TA'SIRIDA GAZSIMON MAHSULOTLAR HOSIL QILADIGAN ANIONLAR

Eritmadagi anion	Ajralib chiqadigan gaz (mahsulot)	Analitik belgilari
CO_3^{2-}; HCO_3^-	CO_2	Ohakli suvning loyqalanishi
SO_3^{2-}; $S_2O_3^{2-}$	SO_2	Yongan oltingugurt hidi
NO_2^-	NO_2	Qizg'ish-qo'ng'ir bug'lar
S^{2-}; SO_3^{2-}; $S_2O_3^{2-}$	H_2S	Palag'da tuxum hidi
CH_3COO^-	CH_3COOH	Sirka hidi
Br^-	Br	Qizg'ish-qo'ng'ir bug'lar
Cl^-	HCl	Bo'g'uvchi gaz, $AgNO_3$ erit-masining loyqalanishi.

21-*jadval*

ANIONLARNING OKSIDLANISH-QAYTARILISH XOSSASI BO'YICHA KLASSIFIKATSIYASI

Oksidlovchi-anionlar	**Qaytaruvchi-anionlar**
$Cr_2O_7^{2-}$; AsO_4^{3-}; NO_3^-; IO_4^-; IO_3^-	Br^-; I^-; S^{2-}; $C_2O_4^{2-}$; AsO_3^{3-}; SO_3^{2-}; $S_2O_3^{2-}$; NO_2^-
Eritmada mavjudligini aniqlash	
KI ta'sirida I_2 rangi paydo bo'ladi	I_2 yoki $KMnO_4$ ta'sirida eritma rangsizlanadi
Misollar	
$+2e + AsO_4^{3-} + 2H^+ \rightleftarrows AsO_3 + H_2O \quad \vert\ 1$ $-2e + 3I^- \rightleftarrows [I_3] \quad \vert\ 1$ $AsO_4^{3-} + 2H^+ + 3I^- \rightleftarrows AsO_3^{3-} + H_2O + [I_3]^-$ (kons. HCl muhitida) $+6e + Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ \rightleftarrows 2Cr^{3+} + 7H_2O \quad \vert\ 1$ $-2e + 3I^- \rightleftarrows [I_2]^- \quad \vert\ 3$ $Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ + 9I^- \rightleftarrows 2Cr^{3+} + 7H_2O + 3[I_3]^-$	$-2e + SO_3^{2-} + H_2O \rightleftarrows SO_4^{2-} + 2H^+ \quad \vert\ 1$ $+2e + [I_3]^- \rightleftarrows 3I^- \quad \vert\ 1$ $SO_3^{2-} + H_2O + [I_3]^- \rightleftarrows SO_4^{2-} + 2H^+ + 3I^-$ $-2e + C_2O_4^{2-} \rightleftarrows 2CO_2\uparrow \quad \vert\ 5$ $+5e + MnO_4^- + 8H^+ \rightleftarrows Mn^{2+} + 4H_2O \quad \vert\ 2$ $5C_2O_4^{2-} + 2MnO_4^- + 16H^+ \rightleftarrows 10CO_2\uparrow + 2Mn^{2+} + 8H_2O$ $-2e + AsO_3^{3-} + 2OH^- \rightleftarrows AsO_4^{3-} + H_2O \quad \vert\ 1$ $+2e + [I_3]^- \rightleftarrows 3I^- \quad \vert\ 1$ $AsO_3^{3-} + 2OH^- + [I_3]^- \rightleftarrows AsO_4^{3-} + 3I^- + H_2O$ ($NaHCO_3$ muhitida) Kons. H_2SO_4 ta'sirida I_2 va Br_2 ajraladi. $-2e + 2I^- \rightleftarrows I_2 \quad \vert\ 4$ $+8e + SO_4^{2-} + 10H^+ \rightleftarrows H_2S + 4\,H_2O \quad \vert\ 1$ $8I^- + SO_4^{2-} + 10H^+ \rightleftarrows 4I_2\uparrow + H_2S\uparrow + 4H_2O$ $-2e + 2Br^- \rightleftarrows Br_2 \quad \vert\ 1$ $+2e + SO_4^{2-} + 4H^+ \rightleftarrows SO_2 + H_2O \quad \vert\ 1$ $2Br^- + SO_4^{2-} + 4H^+ \rightleftarrows Br_2 + SO_2 + H_2O$

22-jadval

I ANALITIK GURUH ANIONLARINING XUSUSIY REAKSIYALARI*

Ion	Reagent	Reaksiyalarning molekulyar va ionli tenglamalari	Ilova
SO_4^{2-}	$Pb(NO_3)_2$	$Na_2SO_4 + Pb(NO_3)_2 = PbSO_4\downarrow + 2NaNO_3$ $SO_4^{2-} + Pb^{2+} = PbSO_4\downarrow$	Oq cho'kma, ishqorlarda eriydi
	$SrCl_2$	$Na_2SO_4 + SrCl_2 = SrSO_4\downarrow + 2NaCl$ $SO_4^{2-} + Sr^{2+} = SrSO_4\downarrow$	Oq cho'kma (loyqa), kislotalarda deyarli erimaydi
SO_3^{2-}	HCl	$Na_2SO_3 + 2HCl = 2NaCl + SO_2\uparrow + H_2O$ $SO_3^{2-} + 2H^+ = SO_2\uparrow + H_2O$	$SO_2\uparrow$ ajraladi
	$I_2 + H_2O$	$Na_2SO_3 + I_2 + H_2O = NaSO_4 + 2HI$ $SO_3^{2-} + I_2 + H_2O = SO_4^{2-} + 2H^+ + 2I^-$	Yodli suv eritmasi rangsizlanadi
	$SrCl_2$	$Na_2SO_3 + SrCl_2 = SrSO_3\downarrow + 2NaCl$ $SO_3^{2-} + Sr^{2+} = SrSO_3\downarrow$	Oq cho'kma, kislotalarda eriydi
$S_2O_3^{2-}$	HCl	$Na_2S_2O_3 + 2HCl = H_2S_2O_3 + 2NaCl$ $H_2S_2O_3 = S\downarrow + SO_2\uparrow + H_2O$	Reaksiya natijasida hosil bo'lgan $S\downarrow$ eritmani loyqalantiradi
	I_2	$2Na_2S_2O_3 + I_2 = 2NaI + Na_2S_4O_6$ $2S_2O_3^{2-} + I_2 = 2I^- + S_4O_6^{2-}$	I_2 eritmasi rangsizlanadi

* Guruh reagenti $BaCl_2$ (yoki $Ba(NO_3)_2$) ta'sirida birinchi analitik guruh anionlarining barchasi cho'kmaga tushadi

22-jadvalning davomi

$S_2O_3^{2-}$	$AgNO_3$	$Na_2S_2O_3 + 2AgNO_3 = Ag_2S_2O_3\downarrow + 2NaNO_3$ $S_2O_3^{2-} + 2Ag^+ = Ag_2S_2O_3\downarrow$ $Ag_2S_2O_3 + H_2O = Ag_2S\downarrow + 2H^+ + SO_4^{2-}$	Oq rangli cho' kma, cho'kma tez sargayib, qo'ng'ir tusga kiradi va Ag_2S hosil bo'lishi sababli qorayib ketadi
CO_3^{2-}	HCl	$Na_2CO_3 + 2HCl = 2NaCl + CO_2\uparrow + H_2O$ $CO_3^{2-} + 2H^+ = CO_2\uparrow + H_2O$	Ohakli suvning loyqalanishidan CO_2 ajralishini bilish mumkin
	$AgNO_3$	$Na_2CO_3 + 2AgNO_3 = Ag_2CO_3\downarrow + 2NaNO_3$ $CO_3^{2-} + 2Ag^+ = Ag_2CO_3\downarrow$	Oq cho'kma, kislotalarda eriydi, HCl ta'sirida AgCl ga aylanadi, qaynatilganda Ag_2O va CO_2 ga parchalanadi
PO_4^{3-}	$AgNO_3$	$Na_3PO_4 + 3AgNO_3 = Ag_3PO_4\downarrow + 3NaNO_3$ $PO_4^{3-} + 3Ag^+ = Ag_3PO_4\downarrow$	Sariq cho'kma, nitrat kislota va ammiakda eriydi
	$MgCl_2$ $(NH_4Cl + NH_4OH)$	$Na_2HPO_4 + MgCl_2 + NH_4OH = MgNH_4PO_4\downarrow + 2NaCl + H_2O$ $HPO_4^{2-} + Mg^{2+} + NH_4OH = MgNH_4PO_4\downarrow + H_2O$	Oq kristall cho'kma.
	$(NH_4)_2MoO_4$	$Na_3PO_4 + 3NH_4Cl + 12(NH_4)_2MoO_4 + 24HNO_3 =$ $= \downarrow(NH_4)_3[PMo_{12}O_{40}] + 12H_2O + 24NH_4NO_3 + 3NaCl$ $PO_4^{3-} + 12MoO_4^{2-} + 24H^+ = (NH_4)_3[PMo_{12}O_{40}]\downarrow + 12H_2O$	Sariq kristall cho'kma
$B_4O_7^{2-}$	$AgNO_3$	$Na_2B_4O_7 + 2AgNO_3 + 3H_2O = 2AgBO_2\downarrow + 2NaNO_3 + 2H_3BO_3$ $B_4O_7^{2-} + 2Ag^+ + 3H_2O = 2AgBO_2\downarrow + 2H_3BO_3$	Oq cho'kma, nitrat kislota va ammiakda eriydi
	Alangani bo'yashi		Borning birikmalari rangsiz alangani yashil rangga kiritadi

F^-	$CaCl_2$	$2NaF + CaCl_2 = CaF_2\downarrow + 2NaCl$ $2F^- + Ca^{2+} = CaF_2\downarrow$	Oq cho'kma, kislotalarda qiyin eriydi
	SiO_2	$SiO_2 + 4HF = SiF_4\uparrow + 2H_2O$ $SiF_4 + 4H_2O = H_4SiO_4 + 4HF\uparrow$	Ortosilikat kislotaning hosil bo'lishi sababli suv loyqalanadi
SiO_3^{2-}	$AgNO_3$	$Na_2SiO_3 + 2AgNO_3 = Ag_2SiO_3\downarrow + 2NaNO_3$ $SiO_3^{2-} + 2Ag^+ = Ag_2SiO_3\downarrow$	Sariq cho'kma, nitrat kislotada eriydi
	Suyultirilgan kislotalar	$SiO_3^{2-} + H_2SO_4 + H_2O = mSiO_2 \cdot nH_2O\downarrow + SO_4^{2-}$	Silikat kislotalar oq iviq cho'kma (gel) holida cho'kadi
	Ammoniy tuzlari	$SiO_3^{2-} + 2H_2O + 2NH_4^+ = H_2SiO_3\downarrow + 2NH_4OH$	Qizdirilganda oq iviq cho'kma hosil bo'ladi
$C_2O_4^{2-}$	$CaCl_2$	$Na_2C_2O_4 + CaCl_2 = CaC_2O_4\downarrow + 2NaCl$ $C_2O_4^{2-} + Ca^{2+} = CaC_2O_4\downarrow$	Oq cho'kma, mineral kislotalarda eriydi, lekin sirka kislotada erimaydi.
	$AgNO_3$	$Na_2C_2O_4 + 2AgNO_3 = Ag_2C_2O_4\downarrow + 2NaNO_3$ $C_2O_4^{2-} + 2Ag = Ag_2C_2O_4\downarrow$	Oq iviq cho'kma HNO_3 va NH_4OH da eriydi
	$KMnO_4$	$5Na_2C_2O_4 + 2KMnO_4 + 8H_2SO_4 = 2MnSO_4 + 5Na_2SO_4 +$ $K_2SO_4 + 10CO_2 + 8H_2O$ $5C_2O_4^{2-} + 2MnO_4^- + 16H^+ = 2Mn^{2+} + 10CO_2 + 8H_2O$	Eritma rangsizlanadi
	H_2SO_4	$H_2C_2O_4 \xrightarrow{\text{kons. } H_2SO_4} H_2O + CO_2\uparrow + CO\uparrow$	CO yoqilganda ko'k alanga hosil qilib yonadi

22-jadvalning davomi

CrO_4^{2-}, $Cr_2O_7^{2-}$	$Pb(NO_3)_2$	$K_2CrO_4 + Pb(NO_3)_2 = PbCrO_4\downarrow + 2KNO_3$ $CrO_4^{2-} + Pb^{2+} = PbCrO_4\downarrow$	Sariq rangli cho'kma
	$AgNO_3$	$K_2CrO_4 + 2AgNO_3 = Ag_2CrO_4\downarrow + 2KNO_3$ $CrO_4^{2-} + 2Ag^+ = Ag_2CrO_4\downarrow$	Qizil-g'isht rangli cho'kma
	H_2O_2	$K_2Cr_2O_7 + 4H_2O_2 + H_2SO_4 = 2H_2CrO_6 + 3H_2O + K_2SO_4$ $Cr_2O_7^{2-} + 4H_2O_2 + 2H^+ = 2H_2CrO_6 + 3H_2O$	Ko'k rangli eritma, perxromat kislotaning parchalanishi sababli eritma tezda yashil rangga o'tadi
	Qaytaruvchilar Na_2SO_3, H_2S	$K_2Cr_2O_7 + 3Na_2SO_3 + 4H_2SO_4 = Cr_2(SO_4)_3 + 3Na_2SO_4 +$ $+ K_2SO_4 + 4H_2O$ $Cr_2O_7^{2-} + 3SO_3^{2-} + 8H^+ = 2Cr^{3+} + 3SO_4^{2-} + 4H_2O$	Eritma rangsizlanadi

23-jadval

II ANALITIK GURUH ANIONLARINING XUSUSIY REAKSIYALARI*

Ion	Reagent	Reaksiyalarning molekulyar va ionli tenglamalari	Ilova
Cl^-	H_2SO_4 (kons.)	$NaCl + H_2SO_4 = NaHSO_4 + HCl\uparrow$	Quruq holdagi xloridlardan gaz holatdagi HCl ajraladi, ho'llangan ko'k lakmus qizaradi
	$KMnO_4$ (kris.)	$16HCl + 2KMnO_4 = 2MnCl_2 + 2KCl + 5Cl_2\uparrow + 8H_2O$ $16HCl + 2MnO_4^- = 2Mn^{2+} + 6Cl^- + 5Cl_2\uparrow + 4H_2O$	Erkin xlor ajraladi, yodokraxmal qog'ozi ko'karadi
Br^-	H_2SO_4 (kons.)	$KBr + H_2SO_4 = KHSO_4 + HBr\uparrow$	Quruq bromidlardan HBr gaz holatda ajralib chiqadi
	Oksidlovchilar ($KMnO_4$, PbO_2, $KClO_3$)	$2KMnO_4 + 8H_2SO_4 + 10KBr = 6K_2SO_4 + 2MnSO_4 + 5Br_2 + 8H_2O$ $2MnO_4^- + 8H^+ + 10Br^- = 2Mn^{2+} + 5Br_2 + 8H_2O$	Erkin Br_2 ajralib chiqishi sababli eritma qo'ng'ir tusga kiradi
I^-	$Pb(NO_3)_2$	$2KI + Pb(NO_3)_2 = PbI_2\downarrow + 2KNO_3$ $2I^- + Pb^{2+} = PbI_2\downarrow$	Tillarang kristall cho'kma
	H_2SO_4 (kons.)	$8HI + H_2SO_4 = H_2S\uparrow + 4I_2\downarrow + 4H_2O$ $8I^- + SO_4^{2-} + 10H^+ = H_2S\uparrow + 4I_2\downarrow + 4H_2O$	Hosil bo'lgan I_2 eritmani qo'ng'ir rangga bo'yaydi
S^{2-}	Kislotalar (H_2SO_4, HCl)	$Na_2S + H_2SO_4 = Na_2SO_4 + H_2S\uparrow$ $FeS + 2HCl = FeCl_2 + H_2S\uparrow$	Ajralib chiqayotgan H_2S ni badbo'y hididan bilish mumkin

* Guruh reagenti $AgNO_3$ ta'sirida ikkinchi analitik guruh anionlarining barchasi cho'kmaga tushadi

23-jadvalning davomi

	$CdCl_2$	$CdCl_2 + H_2S = CdS\downarrow + 2HCl$ $Cd^{2+} + S^{2-} = CdS\downarrow$	pH ≥ 0,5; sariq cho'kma, kislotalarda eriydi
	Oksidlovchilar	$3Na_2S + K_2Cr_2O_7 + 7H_2SO_4 = 3S\downarrow + Cr_2(SO_4)_3 + K_2SO_4 +$ $+ 3Na_2SO_4 + 7H_2O$ $3S^{2-} + Cr_2O_7^{2-} + 7H^+ = 3S\downarrow + 2Cr^{3+} + 7H_2O$	Oltingugurtning ajralishidan eritma loyqalanadi
SCN^-	$Hg(NO_3)_2$	$2NH_4SCN + Hg(NO_3)_2 = Hg(SCN)_2 + 2NH_4NO_3$ $2SCN^- + Hg^{2+} = Hg(SCN)_2\downarrow$ $Hg(SCN)_2\downarrow + 2SCN^- = [Hg(SCN)_4]^{2-}$	Ortiqcha reagentda kompleks birikma hosil qilib eriydigan oq cho'kma
	$FeCl_3$	$3NH_4SCN + FeCl_3 = [Fe(SCN)_3] + 3NHCl$ $3SCN^- + Fe^{3+} = [Fe(SCN)_3]$	Reagentning konsentratsiyasiga qarab sarg'ishdan qizil-qo'ng'irgacha eritma hosil bo'ladi
	Oksidlovchilar ($KMnO_4$, HNO_3)	$6KMnO_4 + 5HSCN + 4H_2SO_4 = 6MnSO_4 + 5HCN\uparrow +$ $+ 3K_2SO_4 + 4H_2O$ $6MnO_4^- + 5SCN^- + 13H^+ = 6Mn^{2+} + 5HCN\uparrow + 5SO_4^{2-} + 4H_2O$	Permanganat eritmasi rangsizlanadi. *Tajribani juda oz miqdordagi (1-2 tomchi) rodanid eritmasi bilan mo'rili shkafda olib borish kerak, chunki HCN bug'lari nihoyatda zaharli!*
CN^-	$ZnCl_2$, $Pb(NO_3)_2$	$ZnCl_2 + 2KCN = Zn(CN)_2\downarrow + 2KCl$ $Zn(CN)_2\downarrow + 2KCN = K_2[Zn(CN)_4]$	Oq cho'kma, ortiqcha KCN da kompleks birikma hosil qilib eriydi
	Suyultirilgan mineral kislotalar	$KCN + H_2SO_4 = K_2SO_4 + HCN\uparrow$	*Mo'rili shkafda bajariladi!*

24-jadval

III ANALITIK GURUH ANIONLARINING XUSUSIY REAKSIYALARI

Ion	Reagent	Reaksiyalarning molekulyar va ionli tenglamalari	Ilova
CH_3COO^-	H_2SO_4	$2CH_3COONa + H_2SO_4 \rightarrow Na_2SO_4 + 2CH_3COOH\uparrow$ $2CH_3COO^- + 2H^+ \rightarrow 2CH_3COOH\uparrow$	Eritma qizdirilganda CH_3COOH ajralib chiqadi, uni hididan bilish mumkin
	$FeCl_3$	$3CH_3COONa + FeCl_3 \rightarrow [(CH_3COO)_3Fe]\downarrow + 3NaCl$ $[(CH_3COO)_3Fe]\downarrow \xrightarrow{H_2O,\,t} [Fe_3(CH_3COO)_6(OH)_2]OH$	Qizil-qo'ng'ir cho'kma, suv bilan qizdirilganda asosli tuz cho'kmaga tushadi
	$H_2SO_4 + C_2H_5OH$	$2CH_3COONa + H_2SO_4 = Na_2SO_4 + 2CH_3COOH$ $CH_3COOH + C_2H_5OH = CH_3COOC_2H_5 + H_2O$	Xarakterli xushbo'y hidga ega bo'lgan etilatsetat hosil bo'ladi
NO_3^-	Difenilamin		NO_3^- ta'sirida difenilamin ko'k rangga kiradi
	Cu	$4HNO_3 + Cu = Cu(NO_3)_2 + 2NO_2\uparrow + 2H_2O$ $4H^+ + 2NO_3^- + Cu = Cu^{2+} + 2NO_2\uparrow + 2H_2O$	Qo'ng'ir gaz ajralib chiqadi, probirka oq qog'oz ustiga qo'yib qaralsa, gaz ajralgani oson seziladi
	$Cu + H_2SO_4$	$8NaNO_3 + 3Cu + 4H_2SO_4 = 2NO\uparrow + 3Cu(NO_3)_2 + 4Na_2SO_4 + 4H_2O$ $2NO_3^- + 3Cu + 8H^+ = 2NO\uparrow + 3Cu^{2+} + 4H_2O$ $2NO\uparrow + O_2 = 2NO_2\uparrow$	
	Al (Zn) + NaOH	$3NaNO_3 + 8Al + 5NaOH + 2H_2O = 8NaAlO_2 + 3NH_3\uparrow$ $3NO_3^- + 8Al + 5OH^- + 2H_2O = 8AlO_2^- + NH_3\uparrow$	Ajralib chiqayotgan NH_3 indikator qog'ozini ko'kartiradi

24-jadvalning davomi

NO_3^-	$FeSO_4$ (kris.)	$6FeSO_4 + 2NaNO_2 + 4H_2SO_4 = 3Fe_2(SO_4)_3 + 2NO +$ $+ 2Na_2SO_4 + 4H_2O$ $6Fe^{2+} + 2NO_3^- + 8H^+ = 6Fe^{3+} + 2NO + 4H_2O$ $NO + Fe^{2+} + SO_4^{2-} = [Fe(NO)SO_4]$	Temir (II)-sulfat kristali atrofida qo'ng'ir xalqa vujudga keladi
NO_2^-	Kislotalar	$2NaNO_2 + 2H_2SO_4 = 2HNO_2 + Na_2SO_4$ $2HNO_2 \rightarrow NO_2\uparrow + NO\uparrow + H_2O$	Qo'ng'ir rangli gazlar aralashmasi hosil bo'ladi
	$KMnO_4$	$5NaNO_2 + 2KMnO_4 + 3H_2SO_4 = NaNO_3 + 2MnSO_4 +$ $+ K_2SO_4 + 3H_2O$ $5NO_2^- + 2MnO_4^- + 6H^+ = 5NO_3^- + 2Mn^+ + 3H_2O$	$KMnO_4$ eritmasi rangsizlanadi
	NH_4Cl (kris.), $t°$	$NH_4Cl + NaNO_2 = N_2\uparrow + NaCl + 2H_2O$	Erkin azot ajralib chiqadi
	Antipirin		Yashil rangli azobo'yoq hosil bo'ladi

25-jadval

I – III GURUH ANIONLARINI BO'LIB-BO'LIB ANALIZ QILISH UCHUN FOYDALANILADIGAN REAGENTLAR VA TEGISHLI REAKSIYA MAHSULOTLARI

Anionlar	Reagentlar (reaksiya sharoiti)	Reaksiya mahsuloti, analitik effekt
SO_4^{2-}	Ba^{2+} (mineral kislotalar muhitida)	$BaSO_4\downarrow$ (oq cho'kma, kislotalar va ishqor-larda erimaydi)
	Sr^{2+} (mineral kislotalar muhitida)	$SrSO_4\downarrow$ (oq cho'kma, kislotalarda erimaydi)
SO_3^{2-}	H^+	$SO_2\uparrow$ (hid)
	$[I_3]^-$	I^- (yod eritmasi rangsizlanadi)
$S_2O_3^{2-}$	H^+	$SO_2\uparrow$ (hid) + $S\downarrow$ (oq cho'kma)
	$[I_3]^-$	I^- (yod eritmasi rangsizlanadi)
	Ag^+ mo'l	$A_2S_2O_3\downarrow$ (oq cho'kma, parchalanganda qo-rayadi $Ag_2S\downarrow$)
CO_3^{2-}	H^+	$CO_2\uparrow$
	Mg^{2+}	$MgCO_3\downarrow$ (oq cho'kma)
	Fenolftalein	Qizil
HCO_3^-	Mg^{2+} (qaynatilganda)	$MgCO_3\downarrow$ (oq cho'kma) + $CO_2\uparrow$
	Fenolftalein	Ranglanmaydi
PO_4^{3-}	$MgCl_2 + NH_4OH + NH_4Cl$ (magnezial alaralashma)	$MgNH_4PO_4\downarrow$ (oq cho'kma)
	Ag^+	$Ag_3PO_4\downarrow$ (sariq cho'kma, HNO_3; NH_4OH da eriydi)

$C_2O_4^{2-}$	Ca^{2+}	$CaC_2O_4\downarrow$ (oq cho'kma, sirka kislotada eri-maydi)
	MnO_4^- (H_2SO_4 muhitida)	$CO_2\uparrow$ ($KMnO_4$ eritmasi rangsizlanadi)
AsO_4^{2-}	$MgCl_2 + NH_4OH + NH_4Cl$ (magnezial aralashma)	$MgNH_4AsO_4\downarrow$ (oq cho'kma)
	Ag^+	$Ag_3AsO_4\downarrow$ (jigarrang, HNO_3 va NH_4OH da eriydi)
	I^- ($CHCl_3$ ishtirokida HCl muhitida)	$[I_3]^-$ – xloroformli qatlamning qizg'ish-bi-nafsha rangi
AsO_3^{2-}	S^{2-}	$As_2S_3\downarrow$ (sariq cho'kma, kons HCl da eri-maydi, NH_4OH da eriydi)
	Ag^+	$Ag_3AsO_4\downarrow$ (sariq, NH_4OH va kons. HNO_3 da eriydi)
	$[I_3]^-$ ($NaHCO_3$ muhitida)	I^- (yod eritmasi rangsizlanadi)
CrO_4^{2-} ($Cr_2O_7^{2-}$)	Ba^{2+}	$BaCrO_4\downarrow$ (sariq cho'kma)
	I^- ($CHCl_3$ ishtirokida HCl muhitida)	$[I_3]^-$ – xloroformli qatlamning qizg'ish-bi-nafsha rangi
SiO_3^{2-}	Ba^{2+}	$BaSiO_3\downarrow$ (oq cho'kma, kislotalar ta'sirida $H_2SiO_3\downarrow$ hosil qilib parchalanadi.)
$B_4O_7^{2-}$	H_2SO_4, (C_2H_5OH)	$(C_2H_5O)_3B$ – alangani yashil rangga bo'yay-di.
F^-	Ba^{2+}	$BaF_2\downarrow$ (oq cho'kma, NH_4OH va mineral kis-lotalarda eriydi)
	H_2SO_4, ($SiO_2 \cdot H_2O$)	$H_2SiO_3\downarrow$ (gel)
Cl^-	Ag^+	$AgCl\downarrow$ (oq cho'kma, $(NH_4)_2CO_3$ va NH_4OH da eriydi)
Br^-	Ag^+	$AgBr\downarrow$ (sariq cho'kma, NH_4OH da qisman eriydi)
	Cl_2 ($CHCl_3$ ishtirokida kislotali muhitda)	Br_2 (xloroformli qatlam qo'ng'ir rangga bo'yaladi)

I^-	Ag^+	$AgI\downarrow$ (sariq cho'kma, NH_4OH da eriydi)
	Cl_2 ($CHCl_3$ ishtirokida kislotali muhitda) mo'l Cl_2	$[I_3]^-$ – xloroformli qatlam qizg'ish-binafsha rangga bo'yaladi. IO_3^- – xloroformli qatlam rangsizlanadi.
S^{2-}	Ag^+	$Ag_2S\downarrow$ (qora cho'kma)
	H^+	$H_2S\uparrow$ (hid)
	Cd^{2+}	$CdS\downarrow$ (sariq cho'kma)
NO_3^-	Fe(II) (kons. H_2SO_4 mu-hitida)	$[Fe(NO)]SO_4$ (qo'ng'ir xalqa)
	Difenilamin	 · H_2SO_4 (ko'k rangli)
NO_2^-	H^+	$NO_2\uparrow + NO\uparrow$ (qo'ng'ir gaz)
	Antipirin	Nitrozoantipirin (yashil rang)
	MnO_4^- (kislotali muhitda)	$KMnO_4$ eritmasi rangsizlanadi.
	NH_4Cl, $t°$	$N_2\uparrow$
CH_3COO^-	H^+	CH_3COOH (sirka hidi)
	C_2H_5OH; H_2SO_4	$CH_3COOC_2H_5$ (olma hidi)
	Fe(III)	$[(CH_3COO)_6Fe(OH)_2]^+$ (qizg'ish-qo'ng'ir rang)

26-jadval

II – VI ANALITIK GURUH KATIONLARINING SODA ERITMASI BILAN REAKSIYALARI

Analitik guruh	Reaksiyalarning tenglamalari
II	$2Ag^+ + CO_3^{2-} \leftrightarrow Ag_2CO_3\downarrow \xrightarrow{\Delta} Ag_2O\downarrow + CO_2\uparrow$ $2Pb^{2+} + 2CO_3^{2-} + H_2O \rightarrow (PbOH)_2CO_3\downarrow + CO_2\uparrow$ $Hg_2^{2+} + CO_3^{2-} \leftrightarrow Hg_2CO_3\downarrow \leftrightarrow HgO\downarrow + Hg\downarrow + CO_2\uparrow$
III	$Ba^{2+} + CO_3^{2-} \leftrightarrow BaCO_3\downarrow$ $Sr^{2+} + CO_3^{2-} \leftrightarrow SrCO_3\downarrow$ $Ca^{2+} + CO_3^{2-} \leftrightarrow CaCO_3\downarrow$
IV	$2Al^{3+} + 3CO_3^{2-} + 3H_2O \rightarrow 2Al(OH)_3\downarrow + 3CO_2\uparrow$ $Al(OH)_3\downarrow + 3OH^- \rightarrow [Al(OH)_6]^{3-}$ $2Cr^{3+} + 3CO_3^{2-} + 3H_2O \leftrightarrow 2Cr(OH)_3\downarrow + 3CO_2\uparrow$ $Cr(OH)_3\downarrow + 3OH^- \rightarrow [Cr(OH)_6]^{3-}$ $Sn^{2+} + CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow Sn(OH)_2\downarrow + CO_2\uparrow$ $Sn(OH)_2\downarrow + 4OH^- \rightarrow [Sn(OH)_6]^{4-}$ $[SnCl_6]^{2-} + CO_3^{2-} + 2H_2O \rightarrow Sn(OH)_4\downarrow + 2CO_2\uparrow + 6Cl^-$ $Sn(OH)_4\downarrow + 2OH^- \rightarrow [Sn(OH)_6]^{2-}$ $Zn^{2+} + CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow Zn(OH)_2\downarrow + CO_2\uparrow$ $Zn(OH)_2\downarrow + 2OH^- \rightarrow [Zn(OH)_4]^{2-}$
V	$Fe^{2+} + CO_3^{2-} \leftrightarrow FeCO_3\downarrow$ havoda tez qo'ng'irlashadi va quyi-dagi tenglama bo'yicha $Fe(OH)_3$ hosil bo'ladi: $4FeCO_3\downarrow + 6H_2O + O_2 \rightarrow 4Fe(OH)_3\downarrow + 4CO_2\uparrow$ $2Fe^{3+} + 3CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow 2Fe(OH)_3\downarrow + 3CO_2\uparrow$ $Mn^{2+} + CO_3^{2-} \leftrightarrow MnCO_3\downarrow$ $2Mg^{2+} + 2CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow (MgOH)_2CO_3\downarrow + CO_2\uparrow$ $2Bi^{3+} + 3CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow 2BiOHCO_3\downarrow + CO_2\uparrow$ $2[SbCl_6]^{3-} + 3CO_3^{2-} + 3H_2O \leftrightarrow 2Sb(OH)_3\downarrow + CO_2\uparrow + 12Cl^-$ $[SbCl_6]^- + 3CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow HSbO_3\downarrow + 2CO_2\uparrow + 6Cl^- + HCO_3^-$
VI	$2Co^{2+} + 2CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow (CoOH)_2CO_3\downarrow + CO_2\uparrow$ $Ni^{2+} + CO_3^{2-} \rightarrow NiCO_3\downarrow$ $2Cu^{2+} + 2CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow (CuOH)_2CO_3\downarrow + CO_2\uparrow$ $2Hg^{2+} + 2CO_3^{2-} + H_2O \leftrightarrow (HgOH)_2CO_3\downarrow + CO_2\uparrow$ $(HgOH)_2CO_3\downarrow \leftrightarrow 2HgO\downarrow + CO_2\uparrow + H_2O$

27-jadval

OLTINGUGURT SAQLAGAN ANIONLAR ARALASHMASINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI

S^{2-}, $S_2O_3^{2-}$, SO_4^{2-}, SO_3^{2-}

Bosqichning t/r	Analiz bosqichlari
1	Boshlang'ich eritmaning alohida ulushiga kuchsiz ishqoriy muhitda $Na_2[Fe(CN)_5NO]$ ta'sir ettirib, S^{2-} ionlarini topish: $S^{2-} \xrightarrow{Na_2[Fe(CN)_5NO]} Na_2[Fe(CN)_5NOS]^{4-}$ Qizg'ish-binafsha rang S^{2-} ionlarining mavjudligidan dalolat beradi.
2	Boshlang'ich eritmaning alohida ulushidan $CdCO_3$ eritmasi ta'sir ettirib, S^{2-} ionlarini ajratish: $S^{2-} \xrightarrow{CdCO_3} CdS\downarrow$ $CdS\downarrow$ cho'kmasi sentrifugalab ajratiladi
3	2 sentrifugatga stronsiy tuzlarining eritmasini ta'sir ettirib $S_2O_3^{2-}$ va SO_3^{2-}, SO_4^{2-} ionlarini ajratish: $SO_3^{2-} \xrightarrow{SrNO_3} SrSO_3\downarrow$ $SO_4^{2-} \xrightarrow{SrNO_3} SrSO_4\downarrow$ $SrSO_3$, $SrSO_4$ cho'kmalari sentrifugalab ajratiladi.
4	3 cho'kmaga 2 M HCl eritmasi ta'sir ettirib, SO_3^{2-} va SO_4^{2-} ionlarini topish: $SrSO_3\downarrow \xrightarrow{HCl} SO_2\uparrow$ Yod eritmasi ta'sir ettirib, SO_3^{2-} ionlarini aniqlash: $SO_2\uparrow \xrightarrow{I_2;\,HCl} SO_4^{2-}$ Yod eritmasi rangsizlanadi. 3 cho'kmani to'liq erimasligi SO_4^{2-} ionlarining mavjudligidan dalolat beradi.
5	3 sentrifugatga HCl eritmasi va yod eritmasi ta'sir ettirib, $S_2O_3^{2-}$ ionlarini topish: $S_2O_3^{2-} \xrightarrow{HCl} S\downarrow$ $S_2O_3^{2-} \xrightarrow{I_2;\,HCl}$ yod eritmasi rangsizlanadi

12-*sxema*

SO_4^{2-}, SO_3^{2-}, $S_2O_3^{2-}$, S^{2-} ARALASHMASINING ANALIZ SXEMASI



28-jadval

GALOGENID-IONLAR ARALASHMASINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI

Cl^-, Br^-, I^-

Bosqichning t/r	Analiz bosqichlari
1	Boshlang'ich eritmaning alohida-alohida ulushiga HNO_3 bilan nordonlashtirilgan $AgNO_3$ ta'sir ettirib, Cl^-, Br^-, I^-, ionlarini cho'ktirish: $Cl^- \xrightarrow{AgNO_3;\,HNO_3} AgCl\downarrow$ $Br^- \xrightarrow{AgNO_3;\,HNO_3} AgBr\downarrow$ $I^- \xrightarrow{AgNO_3;\,HNO_3} AgI\downarrow$ Sentrifugalab cho'kma ajratiladi. Sentrifugat analiz qilinmaydi.
2	1 cho'kmaga 12% li $(NH_4)_2CO_3$ eritmasi ta'sir ettirib, Cl^- ionlarini ajratish: $AgCl\downarrow \xrightarrow{(NH_4)_2CO_3,\,12\%} [Ag(NH_3)_2]^+, Cl^-$ Sentrifugalab AgBr, AgI cho'kma ajratiladi va analiz qilinmaydi.
3	2 sentrifugatga HNO_3 eritmasi ta'sir ettirib, Cl^- ionlarini topish: $[Ag(NH_3)_2]^+, Cl^- \xrightarrow{HNO_3} AgCl\downarrow$
4	Boshlang'ich eritmaning alohida ulushiga xloroform ishtirokida xlorli suv ta'sir ettirib, I^- va Br^- ionlarini topish: $I^- \xrightarrow{Cl_2} I_2$ (xloroformli qatlam qizg'ish-binafsha rangga bo'yaladi) $Br^- \xrightarrow{Cl_2} Br_2$ (xloroformli qatlamning qizg'ish - binafsha rangi yo'qoladi va zarg'aldoq rang paydo bo'ladi)

13-*sxema*

GALOGENID-IONLAR (Cl^-, Br^-, I^-) ARALASHMASINING ANALIZ SXEMASI



29-jadval

AZOT SAQLAGAN ANIONLAR ARALASHMASINING SISTEMATIK ANALIZ BOSQICHLARI

NO_2^-, NO_3^-

Bosqichning t/r	Analiz bosqichlari
1	Nordonlashtirilgan boshlang'ich eritmaning alohida ulushidan kristall holdagi antipirin ta'sir ettirib, NO_2^- ionlarini topish: $NO_2^- \xrightarrow[H^+]{\text{antipirin}}$  (yashil rang)
2	Boshlang'ich eritmaning alohida ulushidan kristall NH_4Cl ta'sirida qizdirib, NO_2^- ionlarini yo'qotish: $NO_2^- \xrightarrow{NH_4Cl,\ \Delta} N_2\uparrow$
3	2 eritmadan konsentrlangan H_2SO_4 ishtirokida $FeSO_4$ ta'sir ettirib, NO_3^- ionlarini topish: $NO_3^- \xrightarrow{FeSO_4,\ H_2SO_4} [Fe(NO)SO_4]$ (qo'ng'ir xalqa) Agar eritmada Br^- yoki I^- ionlari bo'lsa, ular HCl eritmasi ishtirokida xlorli suv ta'sirida qizdirib yo'qotiladi: $Br^- \xrightarrow{Cl_2,\ HCl,\ \Delta} Br_2\uparrow$; $I^- \xrightarrow{Cl_2,\ HCl,\ \Delta} I_2\uparrow$

14-sxema

NO_2^-, NO_3^- ANIONLARI ARALASHMASINING ANALIZ SXEMASI



15-*sxema*

ERUVCHANLIKKA ASOSLANGAN ORGANIK BIRIKMALAR ARALASHMASINING AJRATILISHI



$^*S_2$ – organik kislotalarning tuzlari ($RCOONa$, RSO_3Na), aminlar gidroxloridlari ($RNH{\cdot}HCl$), aminokislotalar ($R-CHCNH_3^+COO^-$), uglevodlar, polioksibirikmalar, ko'p asosli kislotalar; S_A – besh yoki undan kam C atomlarini saqlagan bir asosli karbon kislotalar, aromatik sul-fokislotalar; S_B – olti yoki undan kam

C atomlarini saqlagan aminlar; **S_1** – besh yoki undan kam C atomlarini saqlagan spirtlar, aldegidlar, ketonlar, murakkab efirlar, nitrillar va amidlar; **A_1** – kuchli karbon kislotalar, *o-* va *p-* holatda o'rinbosarlarni saqlagan fenollar, β-diketonlar; **A_2** – kuchsiz organik kislotalar, fenollar, yenollar, oksimlar, imidlar, sulfonamidlar, nitrobirikmalar; **B** – 8 tadan ko'p C atomlarini saqlagan alifatik aminlar, anilinlar, oksiefirlar; **MN** – azot yoki oltingugurt saqlagan turli neytral birikmalar (C atomlari 5 tadan ko'p); **N_1** – spirtlar, aldegidlar, metilketonlar, siklik ketonlar, murakkab efirlar (5 – 9 C), oddiy efirlar (C atomlari 8 tadan kam), epoksidlar; **N_2** – alkenlar, alkinlar, oddiy efirlar, ba'zi aromatik birikmalar, ketonlar (N_1 ga kiritilganlardan tashqari); **I** – to'yingan uglevodorodlar, alkilgalogenidlar, arilgalogenidlar, ba'zi aromatik birikmalar.

16-*sxema*

LAK-BO'YOQ MATERIALLAR ANALIZI

Pigment qoldiqning analizi



1. Namuna.
2. Erituvchini haydash→2a. Erituvchi analizi.
3. Plastifikatorni ajratish→3a. Plastifikator analizi.
4. Plyonka hosil qiluvchini ajratish→4a. Plyonka hosil qiluvchining analizi.
5. Pigment qoldiq→5a. Pigment qoldiqning analizi.

17-sxema

SILOKSAN KAUCHUKLAR ANALIZI



8-sxema

SILOKSAN REZINASI ATSETONLI EKSTRAKTINING ANALIZI (KATALIZATORLAR VA SiO_2 NI ANIQLASH)



ELEKTROLITLAR ERITMALARIDA MUVOZANAT

Massalar ta'siri qonuni – sifat analizining nazariy asosidir. U turli kimyoviy jarayonlarning muvozanatlarini – cho'kma hosil bo'lishi va erishi, bir qiyin eriydigan birikmani boshqasiga aylanishi, gidroliz jarayoni, amfoterlik va hokazolarni ilmiy asoslab beradi.

Kimyoviy reaksiyalarning tezligi reaksiyaga kirishuvchi moddalarning tabiatiga, haroratga, bosimga hamda katalizatorga bog'liq. *Kimyoviy reaksiyalarning tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalar konsentratsiyasining vaqt birligi ichida o'zgarishi bilan o'lchanadi*, ya'ni

$$v = \pm \frac{\Delta C}{\Delta t}$$

bunda v – kimyoviy reaksiya tezligi; Δt – cheksiz kichik vaqt oralig'i; ΔC – reaksiyaga kirishuvchi moddalar konsentratsiyasining o'zgarishi; $\Delta C/\Delta t$ – konsentratsiyaning vaqt bo'yicha olingan hosilasi.

1867-yilda norvegiyalik olimlar Guldberg bilan Vaage tomonidan massalar ta'siri qonuni kashf etildi va u quyidagicha ta'riflandi: *kimyoviy reaksiya tezligi reaksiyaga kirishayotgan moddalarning konsentratsiyalari ko'paytmasiga to'g'ri proporsionaldir.* Masalan,

$$mA + nB \leftrightarrow pC + qD$$

qaytar reaksiya uchun massalar ta'siri qonuniga muvofiq to'g'ri va teskari reaksiyalarning tezligi mos ravishda quyidagicha bo'ladi:

$$v_1 = k_1[A]^m \cdot [B]^n$$
$$v_2 = k_2[C]^p \cdot [D]^q$$

bunda v_1 va v_2 – to'g'ri va teskari reatsiyalarning tezligi.

Vaqt o'tishi bilan $v_1 = v_2$ bo'ladi. *To'g'ri va teskari reaksiya tezliklarining o'zaro tenglashgan holati kimyoviy muvozanat deyiladi.* Kimyoviy muvozanat vaqtida $v_1 = v_2$ bo'lgani uchun:

$$k_1[A]^m \cdot [B]^n = k_2[C]^p \cdot [D]^q$$

$$\frac{k_1}{k_2} = \frac{[C]^p \cdot [D]^q}{[A]^m \cdot [B]^n} = K$$

bu oxirgi tenglama kimyoning eng asosiy qonunlaridan biri bo'lgan *massalar ta'siri qonun*ining matematik ifodasi bo'lib, u quyidagicha ta'riflanadi: *muvozanat vujudga kelganda reaksiya natijasida hosil* *bo'lgan moddalar konsentratsiyalari ko'payt-masining reaksiya uchun olingan moddalar kotsentratsiyalari ko'paytmasiga bo'lgan nisbati ayni haroratda shu reaksiya uchun doimiy son bo'lib, kimyoviy muvozanat konstantasi deyiladi* va *K* harfi bilan belgilanadi.

Yuqori aniqlik bilan hisoblashlarda elektrolitlarning konsentratsiyalari ionlarning aktivliklariga almashtiriladi. Ion konsentratsiyasi va uning aktivligi orasida quyidagicha bog'liqlik mavjud:

$$a = f \cdot C$$

bunda f – aktivlik koeffitsiyenti.

Aktivlikni ionning haqiqiy konsentratsiyasiga nisbati *aktivlik koeffitsiyenti* (f) deyiladi:

$$f = \frac{a}{C}$$

Demak, aktivlik son jihatdan konsentratsiya (C) bilan aktivlik koeffitsiyenti (f) ko'paytmasiga teng.

Ionlarning aktivlik koeffitsiyenti faqat eritmadagi elektrolitning konsentratsiyasiga bog'liq bo'lib qolmay, balki shu eritmadagi tashqi ionlar konsentratsiyasiga ham bog'liqdir. Shu ionlarning o'zaro ta'sir kuchini ifodalovchi kattalik *ion kuchi* deb ataladi. Eritmaning ion kuchi (μ) eritmadagi barcha ionlar konsentratsiyalari bilan zaryadlari kvadrati ko'paytmasi yig'indisining yarmiga teng, ya'ni:

$$\mu = 1/2\,(C_1Z_1^2 + C_2Z_2^2 + \ldots.C_nZ_n^2),$$

$$\mu = 1/2\sum C_iZ_i^2$$

bunda C_1, $C_2 \ldots C_n$ – eritmadagi ionlarning molyar konsentratsiyalari; Z_1, $Z_2 \ldots Z_n$ – ionlarning zaryadlari.

Suyultirilgan eritmalar $\mu \leq 0{,}01$ uchun aktivlik koeffitsiyenti quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\lg f = -0{,}5Z^2\sqrt{\mu}\,;$$

Yuqori konsentratsiyali eritmalar $0{,}5 \geq \mu \geq 0{,}01$ uchun aktivlik koeffitsiyenti quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\lg f = -0{,}5 \cdot Z^2\,\frac{\sqrt{\mu}}{1+\sqrt{\mu}}$$

Kuchli konsentrlangan eritmalar uchun formula bir oz murakkablashadi:

$$\lg f = -\frac{0{,}5 \cdot Z^2 \sqrt{\mu}}{1 + a \cdot 0{,}33 \cdot 10^8 \sqrt{\mu}} + A$$

bunda a – ion radiusi, sm; A – empirik koeffitsiyent.

Kuchli elektrolitlar uchun juda suyultirilgan eritmalarda (~ 0,0001 M) $f = 1$ va $a = C$ bo‘ladi.

Elektrolitlar eritmalarida kimyoviy muvozanat holati muvozanat konstantasi K bilan xarakterlanadi:

$$B_mA_n \text{ F } mB^{n+} + nA^{m-}$$

$$K = \frac{[B^{n+}]^m[A^{m-}]^n}{[B_mA_n]}$$

Suv bir vaqtning o‘zida ham kislota va ham asos hisoblanib, quyidagicha muvozanat yuzaga keladi:

$$H_2O + H_2O \leftrightarrow H_3O^+ + OH^-$$

qisqartirilgan ko‘rinishda:

$$H_2O \leftrightarrow H^+ + OH^-$$

Bu reaksiyaning muvozanat konstantasi 25 ^{0}C haroratda

$$K = \frac{[H^+][OH^-]}{[H_2O]} = 1{,}8 \cdot 10^{-16} \text{ ga teng.}$$

Suvdagi eritmalarda suvning massasi ko‘pchilik hollarda eritilgan moddaning massasi bilan taqqoslaganda juda yuqori, uning 1 l eritmadagi miqdorini doimiy deb hisoblash mumkin. Unda muvozanat konstantasi uchun ifoda quyidagicha yoziladi:

$$K[H_2O] = [H^+][OH^-].$$

Suv juda kuchsiz elektrolit bo‘lgani uchun, K [H_2O] ko‘paytma ham doimiy kattalik hisoblanadi. Bu konstantaga suvning *ion ko‘paytmasi* K_w deyiladi va 25 ^{0}C haroratda

$$K_w = K_{H_2O} = [H^+][OH^-] = 1 \cdot 10^{-14} \text{ ga teng.}$$

Toza suvda $[H^+] = [OH^-] = 1 \cdot 10^{-7}$ M.

Agar $[OH^-]$ ortiq bo‘lsa,

$$[H^+] = \frac{K_{H_2O}}{[OH^-]}$$

$[H^+]$ ortiq bo‘lsa, $$[OH^-] = \frac{K_{H_2O}}{[H^+]}$$

Vodorod ionlarining konsentratsiyasidan, odatda, muhitning tavsifi uchun foydalaniladi. Kislota asosli muvozanatga tegishli ko‘pgina hisoblashlarda konsentratsiyalar va boshqa kattaliklarni ifodalashda bu kattaliklarning manfiy logarifmidan foydalaniladi va «p» belgisi bilan ifodalaniladi:

$$-\lg[H^+] = pH;$$
$$-\lg[OH^-] = pOH.$$

Suvning ion ko‘paytmasini ham logarifmik ko‘rinishda ifodalash mumkin:

$$pH + pOH = pK_{H_2O} = 14.$$

Suvsiz eritmalar analitik kimyosida qo‘llaniladigan ko‘pgina erituvchilar suvga
o‘xshash avtoprotolizga uchraydi, masalan:

$$H_2O + H_2O \leftrightarrow H_3O^+ + OH^-,$$
$$C_2H_5OH + C_2H_5OH \leftrightarrow C_2H_5OH_2^+ + C_2H_5O^-,$$
$$2H_2NCH_2CH_2NH_2 \leftrightarrow H_2NCH_2CH_2NH_3^+ + H_2NCH_2CH_2NH^-,$$
$$2(CH_3)_2SO \leftrightarrow (CH_3)_2SOH^+ + CH_3 - SO - CH_2.$$

Umumiy holda bu jarayonlarni quyidagi tenglama bilan ifodalash mumkin:

$$2HM \leftrightarrow H_2M^+ + M^-$$

Erituvchilarning avtoprotolizidan hosil bo‘lgan kationlar kuchli asoslarga nisbatan kislotalar singari, anionlar esa kuchli kislotalarga asoslar singari ta’sir etadi. Erituvchining avtoprotoliz jarayonida yuzaga keladigan muvozanat avtoprotoliz konstantasi K_s bilan ifodalandi:

$$K_s = a_{H_2M^+} \cdot a_{M^-} \text{ (termodinamik avtoprotoliz konstantasi)}$$

yoki

$$K_s = [H_2M^+][M^-] \text{ (konsentratsion avtoprotoliz konstantasi).}$$

Avtoprotolizning kislota asosli muvozanati erituvchi tabiati va uning vodorod bog‘lanishlarni hosil qilish moyilligi, donor-aktseptorlik xossalari, solvatlanish xususiyati va boshqalarga bog‘liq bo‘ladi.

Avtoprotoliz konstantasi ko‘rsatkichi ($pK_s = -\lg K_s$) berilgan eituvchining kislotalik darajasini ifodalaydi (suv uchun – 14; etanol uchun – 18,75; dimetilformamid uchun – 27,0; atsetonitril uchun 33,3 va hokazo).

ANALITIK KIMYODA QO'LLANILADIGAN MUHIM SUVSIZ ERITUVCHILARNING DIELEKTRIK O'TKAZUVCHANLIKLARI (ε^*) VA AVTOPROTOLIZ KONSTANTALARI (pK_s)

Erituvchi	**ε^* (25 °C)**	**pK_s**
	Spirtlar	
Metanol	32,6	17,31
Etanol	24,3	18,54
n-Propanol	20,1	19,46
izo-Propanol	18,3	20,30
	Efirlar	
Metilatsetat	6,7	22,50
Etilatsetat	6,0	22,83
	Ketonlar	
Atseton (dimetilketon)	20,9	21,40
Metiletilketon	18,4	21,53
	Kislotalar	
Suyuq HF	84 (0 °C)	11,7
Sulfat kislota	100,5	3,62
Sirka kislota	662	12,22 14,45
Chumoli kislota	57,0 (20 °C)	6,66
	Azot saqlovchi birikmalar	
Formamid	109,5	17,0
N,N-Dimetilformamid	36,71	23,10
Ammiak	22,7 (– 50 °C)	32,72
	Oltingugurt saqlovchi birikmalar	
Dimetilsulfoksid	45,0	33,3
Sulfolan	42,0	25,45

Bir turdagi erituvchilarning kislotaligi ortishi bilan ularning pK_s qonuniyat bilan kamayib boradi. Masalan, quyida keltirilgan erituvchilar uchun pK_s ham shu tartibda o'zgarib boradi: $CH_3COOC_6H_{13} > CH_3COOC_5H_{11} > CH_3COOC_4H_9 > CH_3COOC_3H_7 > CH_3COOC_2H_5 > CH_3COOCH_3 > CH_3COOH > HCOOH$. Shu bilan birga ularning dielektrik o'tkazuvchanliklari (ε^*) ham shu tartibda ortib boradi (jad-valga qarang).

Kuchsiz kislota eritmalarining muvozanat konstantasi K_a bilan ifodalanadi:

$$HA \leftrightarrow H^+ + A^-,$$

$$K_a = \frac{[H^+][A^-]}{[HA]}.$$

Kuchsiz asos eritmalarining muvozanat konstantasi K_b bilan ifodalanadi:

$$K_b = \frac{[B^+][OH^-]}{[BOH]}.$$

Ba'zi asoslarning ionlanish muvozanatini kislotalik konstanta bilan ham ifodalash mumkin. Masalan, ammiak – protonni biriktirib, ammoniy ionini hosil qiladigan asos hisoblanadi. Biroq, ammoniy ionini (NH_4^+) kuchsiz kislota sifatida ham qabul qilish mumkin, chunki u suvli eritmada qisman ionlanib, vodorod va ammiak molekulalariga parchalanadi:

$$NH_4^+ \leftrightarrow NH_3 + H^+$$

Shuning uchun:

$$K_a = \frac{[H^+][NH_3]}{[NH_4^+]}.$$

Bu konstanta 25 °C da $5{,}5\cdot10^{-10}$ ga teng ekanligi tajribada aniqlangan. Yuqorida keltirilgan tenglama umumiy holda ham tasvirlanishi mumkin:

$$K_a = \frac{[H^+][B]}{[BH^+]}.$$

Kuchsiz elektrolit eritmalarini miqdoriy xarakterlaydigan kattaliklardan biri ionlanish darajasi (α) hisoblanadi va u quyidagi nisbat bilan ifodalanadi:

$$\alpha = \frac{\text{ionlangan molekulalarning soni}}{\text{eritilgan molekulalarning umumiy soni}}.$$

Elektrolitning ionlanish konstantasi K va α orasida quyidagi bog'liqlik mavjud bo'lib, u Ostvaldning suyultirish qonunining matematik ifodasidir:

$$K = C\frac{\alpha^2}{1-\alpha}.$$

bunda C – kuchsiz elektrolitning molyar konsentratsiyasi.

Juda kuchsiz elektrolitlarda (α < 5%) α ning qiymati juda kichik bo'ladi va 1 – α ayirma birga teng deb olinadi. Shu sababli, tenglamani qisqartirilgan ko'rinish-da $K = C \cdot \alpha^2$ yozish mumkin.

Kislota va asoslarning eritmalarida muvozanat

Suvli eritmalarning kislotaligini vodorod ionlarining konsentratsiyasi belgilaydi va pH kattaligi bilan xarakterlanadi:

$$pH = -\lg[H^+],$$

$$pOH = -\lg[OH^-].$$

Bu ikki kattalik bir-biri bilan quyidagi nisbatda bog'lanadi:

$$pH + pOH = 14 \ (25\ °C \text{ da}).$$

Kuchli kislota va asoslar suvli eritmalarda to'liq ionlanadi. Masalan:

$$HCl \rightarrow H^+ + Cl^-,$$

$$NaOH \rightarrow Na^+ + OH^-.$$

Binobarin, bunday eritmalarda $[H^+] = C_a = [An^-]$ va $[OH^-] = C_b = [Kat^+]$.

0,001M HCl eritmasida $[H^+]$ ionlarining konsentratsiyasini hisoblash:

$$H_2O \text{ F } H^+ + OH^-;\ K_w = [H^+][OH^-] = 10^{-14}$$

$$HCl \rightarrow H^+ + Cl^-.$$

0,001M HCl eritmasida $[H^+]$ ionlarining konsentratsiyasi 10^{-3} mol/l ga teng, le-kin $[H^+][OH^-] = 10^{-14}$ ko'paytma doimiy kattalik bo'lgani uchun $[OH^-]$ ionlarining konsentratsiyasi kamayadi va $[OH^-] = \frac{10^{-14}}{10^{-3}} = 10^{-11}$ mol/l ga teng bo'ladi.

Binobarin, $[H^+] > [OH^-]$ bo'lgan har qanday eritmada muhit kislotali bo'ladi.

0,001M NaOH eritmasida [H⁺] ionlarining konsentratsiyasini hisoblash:

$$H_2O \rightleftarrows H^+ + OH^-;\ K_w = [H^+][OH^-] = 10^{-14}$$

$$NaOH \rightarrow Na^+ + OH^-.$$

0,001M NaOH eritmasida $[OH^-]$ ionlarining konsentratsiyasi 10^{-3} mol/l ga teng bo'ladi, lekin $[H^+][OH^-] = 10^{-14}$ ko'paytmaning qiymati baribir doimiy qolaveradi, unda $[H^+]$ konsentratsiyalari kamayadi va $[H^+] = \frac{10^{-14}}{10^{-3}} = 10^{-11}$ mol/l ga teng bo'ladi.

Binobarin, $[H^+] < [OH^-]$ bo'lgan har qanday eritmada muhit ishqoriy bo'ladi.

Suvli eritmalar muhitini xarakterlashda $[H^+]$ o'rniga pH ni qo'llash qulaydir. Yuqoridagi eritmalarning pH qiymatlarini hisoblaymiz:

suv: $[H^+] = [OH^-] = 10^{-7}$ mol/l, unda pH = 7;

0,001M HCl eritmasida: $[H^+] = 10^{-3}$ mol/l, $pH = -\lg 10^{-3} = 3$; $pH < 7$;

0,001M NaOH eritmasida: $[H^+] = 10^{-11}$ mol/l, $pH = -\lg 10^{-11} = 11$; $pH > 7$.

Binobarin, agar: pH = 7 bo'lsa, muhit neytral;
pH < 7 bo'lsa, muhit kislotali;
pH > 7 bo'lsa, muhit ishqoriy.

Kuchsiz kislota va asoslar suvli eritmalarda qisman ionlanadi. Masalan:

$$CH_3COOH \leftrightarrow H^+ + CH_3COO^-$$

$$NH_3 \cdot H_2O \leftrightarrow NH_4^+ + OH^-$$

Bunday kislota asoslarning eritmalardagi muvozanat tegishli muvozanat konstantalari bilan xarakterlanadi:

$$K_{CH_3COOH} = \frac{[H^+][CH_3COO^-]}{[CH_3COOH]};$$

$$K_{NH_3 \cdot OH} = \frac{[NH_4^+][OH^-]}{NH_3 \cdot H_2O}.$$

Kuchsiz kislota yoki kuchsiz asoslarning muvozanat konstantalaridan $[H^+]$ va $[OH^-]$ larning konsentratsiyalarini topish formulalarini keltirib chiqarish mumkin:

$$[H^+] = \sqrt{K_a \cdot C_a};$$
$$[OH^-] = \sqrt{K_b \cdot C_b}.$$

Ko‘pchilik kislota va asoslarning K_a va K_b qiymatlari ushbu qo‘llanmaning ilovasida berilgan.

Kislota yoki asosning boshlang‘ich konsentratsiyalari (C_a yoki C_b) va ularning ionlanish darajalari (α) asosida $[H^+]$ yoki $[OH^-]$ ning qiymatlari quyidagi formulalar yordamida hisoblanadi:

$$[H^+] = \alpha \cdot C_a;$$
$$[OH^-] = \alpha \cdot C_b.$$

Bufer eritmalarda, ya’ni kuchsiz kislota va uning tuzi yoki kuchsiz asos va uning tuzidan tarkib topgan aralashmalarda $[H^+]$ yoki $[OH^-]$ qiymatlari kislota va uning tuzi yoki asos va uning tuzi konsentratsiyalariga bog‘liq bo‘ladi:

$$[H^+] = K_a \cdot \frac{C_a}{C_{tuz}};$$
$$[OH^-] = K_b \cdot \frac{C_b}{C_{tuz}}.$$

Shuni qayd etish joizki, yuqorida ko‘rsatilgan formulalar bo‘yicha masalalarni yechishda kislota, asos va ionlarning konsentratsiyalari mol/l da ifodalanishi kerak.

1-masala. Sianid kislotaning ionlanish konstantasi $7{,}9 \cdot 10^{-10}$ ga teng. 0,001M kislotaning ionlanish darajasi, pH va ionlanmagan qismining ulushini hisoblang.

Yechish. HCN ning ionlanish konstantasi juda kichik qiymatga ega bo‘lgani uchun ionlanish darajasini hisoblashda Ostvaldning suyultirish qonunining qisqartirilgan formulasidan foydalanamiz:

$$\alpha = \sqrt{\frac{K_a}{C_a}} = \sqrt{\frac{7{,}9 \cdot 10^{-10}}{1 \cdot 10^{-3}}} = 8{,}9 \cdot 10^{-4}, \text{ yoki } 8{,}9 \cdot 10^{-2}\,\%.$$

Ionlanmagan qismining ulushi 100% – α = 100 – 0,089 = 99,91% ga teng.

$[H^+]$ qiymatini $[H^+] = \alpha \cdot C_a$ formula bo‘yicha hisoblaymiz:

$$[H^+] = 8{,}9 \cdot 10^{-4} \cdot 1 \cdot 10^{-3} = 8{,}9 \cdot 10^{-7} \text{ mol/l}.$$

Bundan, $pH = -\lg 8{,}9 \cdot 10^{-7} = 6{,}05$.

2-masala. 0,4%-li natriy gidroksid eritmasining pH ini hisoblang.

Yechish. NaOH konsentratsiyasini mol/l da hisoblaymiz:

$$C_{NaOH} = \frac{10 \cdot \omega \cdot \rho}{M} = \frac{10 \cdot 0{,}4 \cdot 1}{40} = 0{,}1 \text{ mol/l},$$

bunda ρ – NaOH eritmasining zichligi, g/sm^3; ω – eritma konsentratsiyasi, %; *M* – NaOH ning molyar massasi, g.

NaOH kuchli asos bo‘lgani uchun, $[OH^-] = C_{NaOH} = 0{,}1$ mol/l ga teng bo‘ladi.

Unda, $pOH = -\lg 0{,}1 = 1{,}0$; $pH = 14 - pOH = 14 - 1 = 13$.

3-masala. pH 10,80 ga teng bo‘lgan eritmada gidroksid-ionlarning konsentratsiyasi qanday bo‘ladi?

Yechish. pOH ni hisoblaymiz: $pOH = 14 - pH = 14 - 10{,}80 = 3{,}20$.

Bundan, $-\lg[OH^-] = 3{,}20$ yoki $\lg[OH^-] = -3{,}20$; $[OH^-] = 10^{-3,2}$,
Bundan, $[OH^-] = 6{,}31 \cdot 10^{-4}$ mol/l.

Mustaqil yechish uchun masalalar

4-masala. 0,2M chumoli kislotasining ionlanish darajasi 3% ga teng. Kislotaning ionlanish konstantasi va pH qiymatini hisoblang.

5-masala. Sirka kislotaning ionlanish darajasini ikki marta oshirish uchun, uning 600 ml 0,2M eritmasiga qancha suv qo‘shish kerak?

6-masala. Sirka kislota konsentratsiyasi 0,01M va ionlanish darajasi 4,2% bo‘l-gan eritmaning pH ini hisoblang.

7-masala. pH = 7,36 bo‘lgan eritmaning vodorod ionlari konsentartsiyasi pH = = 7,53 bo‘lgan eritmaning vodorod ionlari konsentartsiyasidan necha marta ortiq?

8-masala. pH = 4,8 bo‘lgan sirka kislota eritmasining konsentratsiyasini hisoblang.

Geterogen sistemalarda muvozanat

Qiyin eruvchan elektrolitlarning suvli eritmalarida qattiq faza va eritma orasida muvozanat yuzaga keladi:

$$\downarrow A_aB_b \leftrightarrow aA^{b+} + bB^{a-}.$$

Bu muvozanat eruvchanlik ko‘paytmasi (*EK*) deb nomlanuvchi konstanta bilan tavsiflanadi:

$$EK = [A^{b+}]^a \cdot [B^{a-}]^b.$$

Ushbu tenglama *EK* qiymati bo‘yicha elektrolitning eruvchanligini (*S*, mol/l):

$$S = \sqrt[a+b]{\frac{EK}{a^a \cdot b^b}},$$

hamda elektrolitning eruvchanligi bo‘yicha uning eruvchanlik ko‘paytmasini (*EK*) hisoblashga imkon beradi. Bundan tashqari *EK* qiymatiga qarab cho‘kmaning hosil bo‘lishi yoki uning erib ketishi haqida xulosa chiqarish mumkin.

Cho‘kmaning hosil bo‘lish sharti: ionlar konsentratsiyasining ko‘paytmasi eruvchanlik ko‘paytmasidan yuqori bo‘lishi kerak:

$$C^a_{A^{b+}} \cdot C^b_{B^{a-}} > EK.$$

Cho‘kmaning erish sharti: ionlar konsentratsiyasining ko‘paytmasi eruvchanlik ko‘paytmasidan kam bo‘lishi kerak:

$$C^a_{A^{b+}} \cdot C^b_{B^{a-}} < EK.$$

Ko‘pchilik kam eruvchan elektrolitlarning *EK* qiymatlari ushbu qo‘llanmaning ilovasida keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan formulalarga muvofiq masalalarni yechishda kam eruvchan elektrolitlar va ionlar konsentartsiyasini mol/l da ifodalashni unutmaslik kerak.

1-masala. Qo‘rg‘oshin yodidning eruvchanlik ko‘paytmasi 20 °C da $8{,}0 \cdot 10^{-9}$ ga teng. Tuzning eruvchanligini mol/l va g/l da hisoblang.

Yechish. Qo‘rg‘oshin yodidning to‘yingan eritmasida cho‘kma va ionlar orasida quyidagi muvozanat yuzaga keladi:

$$\downarrow PbI_2 \leftrightarrow Pb^{2+} + 2I^-.$$

Eruvchanlikni *S* mol/l bilan belgilaymiz. Tenglamaga muvofiq qo‘rg‘oshin yodidning to‘yingan eritmasi *S* mol/l qo‘rg‘oshin ionlari va 2*S* mol/l yodid-ionlarni saqlaydi.

Unda, $EK_{PbI_2} = [Pb^{2+}] \cdot [I^-]^2 = S \cdot (2S^2) = 4S^3.$

Bundan, $S = \sqrt[3]{\frac{EK_{PbI_2}}{4}} = \sqrt[3]{8 \cdot 10^{-9} / 4} = 1{,}3 \cdot 10^{-3}$ mol/l.

Qo‘rg‘oshin yodidning molyar massasi 461 g/mol ga teng. Unda cho‘kmaning g/l da ifodalangan eruvchanligi $461 \cdot 1,3 \cdot 10^{-3} = 0,6$ ga teng bo‘ladi.

2-masala. 250 ml to‘yingan eritma $2,80 \cdot 10^{-5}$ g stronsiy fosfat saqlaydi. Tuzning eruvchanlik ko‘paytmasini hisoblang.

Yechish. Stronsiy fosfatning to‘yingan eritmasida qattiq faza va uning ionlan-gan qismi orasida muvozanat qaror topadi:

$$\downarrow Sr_3(PO_4)_2 \leftrightarrow 3Sr^{2+} + 2PO_4^{3-}.$$

Unda ushbu tuz uchun eruvchanlik ko‘paytmasining ifodasi quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$EK_{Sr_3(PO_4)_2} = [Sr^{2+}]^3 \cdot [PO_4^{3-}]^2.$$

Quyidagi proporsiyadan stronsiy fosfatning eruvchanligini g/l da hisoblaymiz:

0,25 litr eritma $2,80 \cdot 10^{-5}$ g stronsiy fosfat saqlaydi
1 litr eritma x g stronsiy fosfat saqlaydi

$$x = \frac{2,80 \cdot 10^{-5} \cdot 1}{0,25} = 1,12 \cdot 10^{-4} \text{ g/l}.$$

Hosil bo‘lgan konsentratsiyani mol/l da ifodalaymiz:

$$S_x = \frac{x}{M_{Sr_3(PO_4)_2}} = \frac{1,12 \cdot 10^{-4}}{452,803} = 2,5 \cdot 10^{-7} \text{ mol/l},$$

bunda $M_{Sr_3(PO_4)_2}$ – stronsiy fosfatning molyar massasi.

Stronsiy fosfatning muvozanat tenglamasidan ko‘rinib turibdiki, S mol/l stronsiy fosfatdan $3S$ mol/l stronsiy ionlari va $2S$ mol/l fosfat-ionlar hosil bo‘ladi. Unda $EK_{Sr_3(PO_4)_2} = (3S)^3(2S)^2 = 108S^5$.

S ning qiymatini EK tenglamasiga qo‘yamiz:

$$EK = 108 \cdot (2,5 \cdot 10^{-7})^5 = 0,7 \cdot 10^{-31}.$$

3-masala. Qo‘rg‘oshin yodidning 0,1M KI eritmasidagi eruvchanligi suvdagi eruvchanligiga nisbatan necha marta kam bo‘ladi?

Yechish. Qo‘rg‘oshin yodidning suvdagi eruvchanligi 1-masalada hisoblangan. Shu tuzning 0,1M kaliy yodid eritmasidagi eruvchanligini x bilan belgilab, uni hisoblaymiz. Unda tenglamaga muvofiq (1-masalaga qarang) qo‘rg‘oshin ionlarining konsentratsiyasi ham x ga teng bo‘ladi, yodid-ionlarning konsentratsiyasi esa $2x + 0,1$

ni tashkil etadi. Faraz qilaylik, $2x << 0,1$, unda $2x$ kattalikni 0,1 ga nisbatan inobatga olmasak ham bo'ladi va $[I^-] = 0,1$ mol/l.

Qo'rg'oshin ionlari va yodid-ionlarning olingan konsentratsiya qiymatlarini *EK* ni topish tenglamasiga qo'yamiz:

$$EK_{PbI_2} = x\cdot(0,1)^2.$$

Bundan, $x = \frac{EK_{PbI_2}}{(0,1)^2} = \frac{8\cdot10^{-9}}{0,01} = 8\cdot10^{-7}$ mol/l.

Binobarin, kaliy yodid ishtirokida qo'rg'oshin yodidning eruvchanligi $1,3\cdot10^{-3}/8\cdot10^{-7} = = 1,6\cdot10^3$ marta kamayadi.

4-masala. $5\cdot10^{-3}$M kalsiy xlorid va natriy sulfat eritmalarining teng hajmlari qo'shildi. Kalsiy sulfat cho'kmasi hosil bo'ladimi ($EK_{CaSO_4} = 2,5\cdot10^{-5}$)?

Yechish. Bu savolga javob berish uchun $C_{Ca^{2+}}$ va $C_{SO_4^{2-}}$ ionlar konsentratsiyalarining ko'paytmasini kalsiy sulfatning eruvchanlik ko'paytmasi bilan taqqoslash kerak, ya'ni $C_{Ca^{2+}}\cdot C_{SO_4^{2-}} > EK_{CaSO_4}$ shartning bajarilishini tekshirish kerak.

Kalsiy xlorid va natriy sulfat eritmalarining teng hajmlari qo'shilganda Ca^{2+} va SO_4^{2-} ionlarining konsentratsiyalari boshlang'ich qiymatlariga nisbatan ikki marta kamayadi va $2,5\cdot10^{-3}$ mol/l ga teng bo'ladi. Unda $C_{Ca^{2+}}\cdot C_{SO_4^{2-}} = 2,5\cdot10^{-3}\cdot2,5\cdot10^{-3} = = 6,25\cdot10^{-6}$, ya'ni hosil bo'lgan qiymat EK_{CaSO_4}dan kichik, demak cho'kma hosil bo'lmaydi.

Mustaqil yechish uchun masalalar

5-masala. 1,16 g PbI_2 ni eritish uchun 2 litr suv talab etildi. Tuzning eruvchanlik ko'paytmasini hisoblang.

6-masala. 2 g bariy sulfatni 25 °C da eritish uchun zarur bo'ladigan suvning hajmini hisoblang.

7-masala. Agar 0,1M qo'rg'oshin nitrat eritmasiga teng hajmda 0,3M natriy xlorid eritmasi qo'shilsa, qo'rg'oshin xlorid cho'kmasi hosil bo'ladimi?

8-masala. Kalsiy ftoridning 0,05M kalsiy xlorid eritmasidagi eruvchanligi suvdagi eruvchanligiga nisbatan qanday o'zgaradi ($EK_{CaF_2} = 4\cdot10^{-11}$)?

9-masala. Magniy gidroksidning eruvchanlik ko'paytmasi $6 \cdot 10^{-10}$ ga teng. $1{,}6 \cdot 10^{-4}$M magniy xlorid eritmasidan pH ning qanday qiymatida magniy gidroksid cho'kishni boshlaydi?

Gidrolizlanadigan tuzlar eritmalarida muvozanat

Ko'pchilik tuzlar suvda eriganda gidrolizga uchraydi, natijada eritmaning muhitini kislotali yoki ishqoriy bo'lishiga olib keladi.

Agar gidrolizga kuchsiz asos va kuchli kislotadan tarkib topgan tuz (masalan, NH_4Cl) uchrasa, muhit kislotali bo'ladi. Kuchsiz kislota va kuchli asosdan tarkib topgan tuz (masalan, CH_3COOK) gidrolizga uchrasa, eritma muhiti ishqoriy bo'ladi. Kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan tarkib topgan tuz gidrolizga uchraganda esa, muhit neytral (masalan, CH_3COONH_4 gidrolizlanganda), kuchsiz ishqoriy (NH_4CN) yoki kuchsiz kislotali (NH_4F) bo'ladi.

Masalalarni yechishda gidrolizlanadigan tuz qaysi turga mansub ekanligini aniqlab olish zarur hamda ionlar va tuzlar konsentratsiyalarini mol/lda ifodalashni unutmaslik kerak (jadvalga qarang).

GIDROLIZ PARAMETRLARINI HISOBLASH JADVALI

Tuz	Gidroliz konstantasi, K_g	Gidroliz darajasi, h	$[H^+]$	$[OH^-]$
Kuchli kislota va kuchsiz asosdan ho-sil bo'lgan tuz	$\frac{K_w}{K_b}$	$\sqrt{\frac{K_w}{K_b \cdot C_{BA}}}$	$\sqrt{\frac{K_w \cdot C_{BA}}{K_b}}$	$\sqrt{\frac{K_w \cdot K_b}{C_{BA}}}$
Kuchsiz kislota va kuchli asosdan hosil bo'lgan tuz	$\frac{K_w}{K_a}$	$\sqrt{\frac{K_w}{K_a \cdot C_{BA}}}$	$\sqrt{\frac{K_w \cdot K_a}{C_{BA}}}$	$\sqrt{\frac{K_w \cdot C_{BA}}{K_a}}$
Kuchsiz kislota va kuchsiz asosdan ho-sil bo'lgan tuz	$\frac{K_w}{K_a \cdot K_b}$	$\frac{\sqrt{\frac{K_w}{K_a \cdot K_b}}}{1+\sqrt{\frac{K_w}{K_a \cdot K_b}}}$	$\sqrt{\frac{K_w \cdot K_a}{K_b}}$	$\sqrt{\frac{K_w \cdot K_b}{K_a}}$

Izoh: K_w – suvning ion ko'paytmasi,
C_{BA} – tuzning konsentratsiyasi, mol/l.

1-masala. 100 ml da 0,9814 g tuz saqlagan kaliy atsetat eritmasining gidroliz darajasini va pH qiymatini hisoblang.

Yechish. Kaliy atsetat quyidagi tenglama bo'yicha dissotsialanadi:

$$CH_3COOK \leftrightarrow CH_3COO^- + K^+.$$

Kaliy atsetat kuchsiz kislota va kuchli asosdan tarkib topgan tuz bo'lgani sababli, gidroliz anion bo'yicha boradi:

$$CH_3COO^- + H_2O \leftrightarrow CH_3COOH + OH^-.$$

Gidroliz darajasi $h = \sqrt{\dfrac{K_w}{K_a \cdot C_{BA}}}$ formula asosida aniqlanadi.

Tuzning konsentartsiyasini mol/l da hisoblaymiz:

$$C_{tuz} = \frac{m}{M \cdot V} = \frac{0,9814}{98,143 \cdot 0,1} = 0,1 \text{ mol/l},$$

bunda m – tuz massasi, g; V – eritma hajmi, ml; M – tuzning molyar massasi, g/mol.

Kislotaning ionlanish konstantasini jadvaldan topamiz: $K_{CH_3COOH} = 1,74 \cdot 10^{-5}$. Olingan qiymatlarni gidroliz darajasini topish formulasiga qo'yamiz:

$$h = \sqrt{\frac{1 \cdot 10^{-14}}{1,74 \cdot 10^{-5} \cdot 0,1}} = 7,58 \cdot 10^{-5} \approx 7,6 \cdot 10^{-5}.$$

Atsetat-ionlarning gidrolizlanish tenglamasidan ko'rinadiki, hosil bo'ladigan gidroksid-ionlarning konsentratsiyasi atsetat-ionlarning konsentratsiyasiga teng. De-mak, $[OH^-] = [CH_3COO^-] = h \cdot C_{tuz} = 7,6 \cdot 10^{-5} \cdot 0,1 = 7,6 \cdot 10^{-6}$ mol/l.

Bundan, $pOH = -\lg 7,6 \cdot 10^{-6} = 5,12$ va $pH = 14 - 5,12 = 8,88$.

2-masala. Ammoniy xloridning gidroliz konstantasini va uning 0,1 mol/l eritmasining pH ini hisoblang.

Yechish. Ammoniy xlorid quyidagi tenglama bo'yicha dissotsialanadi:

$$NH_4Cl \rightarrow NH_4^+ + Cl^-.$$

Ushbu tuz kuchsiz asos va kuchli kislotadan tarkib topganligi uchun, gidroliz kation bo'yicha boradi:

$$NH_4^+ + H_2O \leftrightarrow NH_3 \cdot H_2O + H^+.$$

Bunday turdagi tuzlarning gidroliz konstantasini hisoblashda quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_g = \frac{K_w}{K_{NH_3 \cdot H_2O}} = \frac{10^{-14}}{1{,}76 \cdot 10^{-5}} = 5{,}68 \cdot 10^{-10}.$$

Ammoniy xlorid eritmasidagi $[H^+]$ ning konsentatsiyasini $[H^+] = \sqrt{K_g \cdot C_{tuz}}$ formula bo'yicha topamiz:

$$[H^+] = \sqrt{5{,}68 \cdot 10^{-10} \cdot 0{,}1} = 7{,}63 \cdot 10^{-6} \text{ mol/l}.$$

$$pH = -\lg 7{,}63 \cdot 10^{-6} = 5{,}12.$$

3-masala. Ammoniy atsetat eritmasi 25°C dan 60°C gacha qizdirilganda, uning gidroliz darajasi necha marta ortadi? (60°C da $K_w = 10^{-13}$. Sirka kislota va ammoniy gidroksidlarning ionlanish konstantalari harorat ko'tarilishi bilan o'zgarmaydi deb qabul qilinadi.)

Yechish. Ammoniy atsetat quyidagicha ionlanadi:

$$CH_3COONH_4 \rightarrow CH_3COO^- + NH_4^+.$$

Bu tuz kuchsiz asos va kuchsiz kislotadan hosil bo'lgani uchun, gidroliz kation va anion bo'yicha boradi:

$$CH_3COO^- + NH_4^+ + H_2O \leftrightarrow CH_3COOH + NH_3 \cdot H_2O.$$

Bunday tuzlarning gidroliz darajasini topish uchun yuqoridagi jadvalda berilgan formuladan foydalanish kerak:

$$h = \frac{\sqrt{\dfrac{K_w}{K_a \cdot K_b}}}{1 + \sqrt{\dfrac{K_w}{K_a \cdot K_b}}}.$$

Gidroliz darajalarni masala shartida berilgan haroratlarda hisoblaymiz:

25°C
$$h_{25°C} = \frac{\sqrt{\dfrac{10^{-14}}{1{,}74 \cdot 10^{-5} \cdot 1{,}76 \cdot 10^{-5}}}}{1 + \sqrt{\dfrac{10^{-14}}{1{,}74 \cdot 10^{-5} \cdot 1{,}76 \cdot 10^{-5}}}} = 5{,}74 \cdot 10^{-3};$$

$$60°C \qquad h_{60°C} = \frac{\sqrt{\dfrac{10^{-13}}{1{,}74\cdot10^{-5}\cdot1{,}76\cdot10^{-5}}}}{1+\sqrt{\dfrac{10^{-13}}{1{,}74\cdot10^{-5}\cdot1{,}76\cdot10^{-5}}}} = 1{,}82\cdot10^{-2}.$$

Binobarin, gidroliz darajasi $\frac{h_{60°C}}{h_{25°C}} = \frac{1{,}82\cdot10^{-2}}{5{,}74\cdot10^{-3}} = 3{,}17$ marta ortgan.

Mustaqil yechish uchun masalalar

4-masala. 0,01M ammoniy xlorid eritmasining gidroliz konstantasini va pH ini hisoblang.

5-masala. 0,001M KOCl eritmasining 25°C va 60°C da pH ini va gidroliz darajasi necha marta ortishini hisoblang. (Suvning ion ko'paytmasi 60°C da 10^{-13} ga teng, gipoxlorit kislotaning ionlanish konstantasi harorat ko'tarilganda o'zgarmaydi deb qabul qilinsin.)

6-masala. pH = 5,12 bo'lgan 100 ml eritma bo'lishi uchun necha gramm ammoniy xlorid tuzidan olich kerak?

Bufer eritmalarda muvozanat

Keng ma'noda bufer sistemalarga quyidagicha ta'rif berish mumkin: tarkib o'zgarganda qandaydir parametrlarni muayyan qiymatlarda saqlab turuvchi sistemalar. Bufer eritmalar kislota-asosli (eritmaga kislota yoki asos kiritilganda pH ning qiymatini doimiy saqlab turuvchi); oksidlanish-qaytarishli (oksidlovchi yoki qaytaruvchi kiritilganda sistemaning potensialini doimiy saqlab turuvchi); metallobuferlar (pMe qiymatini doimiy saqlab turuvchi) kabi turlarga bo'linadi. Bufer eritmalar tutash juftlardan, xususan, kislota-asosli buferlar kislota-asos juftidan tarkib topgan sistemalar hisoblanadi. Masalan, atsetatli bifer eritma CH_3COOH va CH_3COONa; ammoniyli bufer eritma $NH_3 \cdot H_2O$ va NH_4Cl; fosfatli bufer eritma NaH_2PO_4 va Na_2HPO_4 dan iborat aralashmalardir.

Kuchsiz kislota va uning tuzidan iborat bufer eritmalarning pH qiymati quyi-dagi tenglama bo'yicha hisoblanadi:

$$pH = pK_a - \lg\frac{C_{kislota}}{C_{tuz}}.$$

Kuchsiz asos va uning tuzidan iborat bufer eritmalarning pH qiymati quyidagi tenglama bo'yicha aniqlanadi:

$$pOH = pK_b + \lg \frac{C_{asos}}{C_{tuz}};$$

$$pH = 14 - pK_b + \lg \frac{C_{asos}}{C_{tuz}}.$$

Agar bufer aralashma ikki asosli kislotaning o‘rta tuzi (B_2A) va nordon tuzidan (BHA) tarkib topgan bo‘lsa, unda

$$pH = pK_{a_2} + \lg \frac{C_{A^{2-}}}{C_{HA^-}},$$

bunda $\tilde{N}_{\grave{A}^{2-}}$ va $\tilde{N}_{\grave{I}\grave{A}^-}$ – B_2A va BHA tuzlarning konsentratsiyasi; pK_{a_2} – kislotaning ikkinchi bosqich bo‘yicha dissotsilanish konstantasi.

Agar bufer aralashma uch asosli kislotaning nordon tuzlaridan (B_2HA, BH_2A) iborat bo‘lsa, unda pH ni hisoblash uchun quyidagi tenglamadan foydalanish kerak:

$$pH = pK_a + \lg \frac{C_{HA^{2-}}}{C_{H_2A^-}}.$$

1-masala. 1 litr eritmada har bir komponentdan 0,2 mol saqlagan atsetatli bufer aralashmaning pH ini hisoblang. Aralashmaga: a) 0,01 mol HCl; b) 0,01 mol NaOH qo‘shilganda pH qanday o‘zgaradi?

Yechish. Atsetatli bufer aralashma tarkibiga CH_3COOH va CH_3COONa kiradi:

CH_3COOH F $CH_3COO^- + H^+$ (kuchsiz elektrolit; ionlanishi qaytar);

$CH_3COONa \rightarrow CH_3COO^- + Na^+$ (kuchli elektrolit; to‘liq dissotsilanadi).

CH_3COO^- ionlari ishtirokida sirka kislotaning ionlanishi yanada kamayib ketadi. Shuning uchun kislotaning ionlanmagan qismi konsentratsiyasini uning boshlang‘ich konsentratsiyasiga teng deb olish mumkin, ya’ni $[CH_3COOH] = C_{kislota}$.

Eritmadagi atsetat-ionlarning deyarli barchasi tuzning dissotsilanishi natijasida hosil bo‘ladi, ya’ni $[CH_3COO^-] = C_{tuz}$.

$$\eth\acute{I} = \eth K_{\grave{a}} - \lg \frac{C_{kislota}}{C_{tuz}}; \quad pH = 4{,}76 - \lg \frac{0{,}2}{0{,}2} = 4{,}76.$$

a) agar 0,01 mol HCl qo‘shilsa, HCl va CH_3COONa orasida reaksiya boradi:

$$CH_3COO^- + H^+ \leftrightarrow CH_3COOH,$$

natijada sirka kislotaning konsentratsiyasi ortadi va 0,2 + 0,01 = 0,21 mol/l ga teng bo'ladi, tuzning konsentartsiyasi esa, aksincha, kamayadi: 0,2 – 0,01 = 0,19 mol/l

$$pH = 4,76 - \lg\frac{0,21}{0,19} = 4,72.$$

b) agar eritmaga 0,01 mol NaOH qo'shilsa, unda NaOH va CH_3COOH orasida reaksiya boradi:

$$CH_3COOH + OH^- \leftrightarrow CH_3COO^- + H_2O,$$

natijada sirka kislotaning konsentratsiyasi 0,2 – 0,01 = 0,19 mol/l ga, tuzning konsentratsiyasi esa 0,2 + 0,01 = 0,21 mol/l ga teng bo'ladi

$$pH = 4.76 - \lg\frac{0,19}{0,21} = 4.80.$$

2-masala. Ammiak va ammoniy xloridning 0,1M eritmalaridan 1:9 nisbatda tayyorlangan bufer aralashmaning pH ini aniqlang.($K_{NH_3\cdot H_2O}$= $1,8\cdot10^{-5}$; tuz to'liq dissotsilangan deb hisoblansin.)

Yechish. Ammiak va ammoniy xloridning 0,1M eritmalaridan 1:9 nisbatda (1 + 9 = 10 qism) aralashtirilganligini e'tiborga olib, ular eritmalarining konsentra-tsiyasini aniqlaymiz:

$$x = \frac{0,1\cdot 1}{10} = 0,01M\ NaOH;$$

$$x = \frac{0,1\cdot 9}{10} = 0.09M\ NH_4Cl.$$

Quyidagi tenglama bo'yicha bufer aralashmaning pH ini aniqlaymiz:

$$pH = 14 - pK_{NH_3\cdot H_2O} + \lg\frac{C_{NH_3\cdot H_2O}}{C_{NH_4Cl}};$$

$$pH = 14 - (5 + 0,2553) + \lg\frac{0,01}{0,09} = 14 - 4,7447 - 0,9547 = 8,3006 \approx 8,30.$$

3-masala. 30 ml 0,1M Na_2CO_3 va 15 ml 0,1M $NaHCO_3$ eritmalari aralashtirilganda hosil bo'lgan eritmaning pH ini aniqlang. $K_{2(H_2CO_3)} = 4,69\cdot10^{-11}$

Yechish. Tuzlar eritmalari aralashtirilishidan hosil bo'lgan eritmada quyidagi muvozanat o'rnatiladi:

$$HCO_3^- + H_2O \leftrightarrow CO_3^{2-} + H_3O^+.$$

Eritmadagi H_3O^+ ionlarini H^+ ioni bilan ifodalaymiz. Hosil bo'lgan eritmadagi CO_3^{2} va HCO_3^- ionlari konsentratsiyasini topamiz:

$$C_2(Na_2CO_3)=\frac{C_1(Na_2CO_3)\cdot V_1(Na_2CO_3)}{V_1(Na_2CO_3)+V_1(NaHCO_3)}=\frac{0{,}1\cdot 30}{30+15}=0{,}0667\approx 6{,}67\cdot 10^{-2}\ \text{M};$$

$$C_2(NaHCO_3)=\frac{C_1(NaHCO_3)\cdot V_1(NaHCO_3)}{V_1(Na_2CO_3)+V_1(NaHCO_3)}=\frac{0{,}1\cdot 15}{30+15}=0{,}0333\approx 3{,}33\cdot 10^{-2}\text{M};$$

$$\mathrm{p}K_2=-\lg K_{2(H_2CO_3)}=-\lg 4{,}69\cdot 10^{-11}=10{,}33.$$

Bufer eritmaning pH qiymatini topsak:

$$\mathrm{pH}=\mathrm{p}K_{2(H_2CO_3)}+\lg\frac{C_{CO_3^{2-}}}{C_{HCO_3^-}}=10{,}33+\lg\frac{6{,}67\cdot 10^{-2}}{3{,}33\cdot 10^{-2}}=10{,}33+0{,}3=10{,}63.$$

Bufer ta'siri bufer sig'imi (π) bilan xarakterlanadi. Bufer sig'imi eritma pH ini bir birlikka o'zgartirish uchun unga qo'shish zarur bo'lgan kuchli asos (b) yoki kuchli kislota (a) miqdori bilan o'lchanadi.

$$\pi=\frac{\Delta C_b}{\Delta \mathrm{pH}};$$

$$\pi=-\frac{\Delta C_a}{\Delta \mathrm{pH}}.$$

bunda ΔC_b, ΔC_a – bufer sistemaga qo'shilgan tegishli asos yoki kislotaning konsentratsiyasi.

Kuchsiz kislota (HA) va uning tuzi (BA) ni saqlagan eritmaning eng yuqori bufer ta'siri sohasida bufer sig'imi quyidagi tenglama bilan ifodalanadi:

$$\pi=\frac{2{,}3\cdot C\cdot K_a\cdot[H^+]}{(K_a+[H^+])^2},\ \text{yoki}$$

$$\pi=2.3\frac{C_{HA}C_{A^-}}{C}=2.3\frac{C_{HA}C_{A^-}}{C_{HA}+C_{A^-}};$$

bunda C_{HA} va C_{A^-} – kislota-asosli juft komponentlarining konsentartsiyasi; C – eritmaning umumiy konsentratsiyasi (C = [HA] + [A^-]).

Kuchsiz asos va uning tuzidan iborat eritmaning bufer sig'imi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\pi = \frac{2{,}3 \cdot C \cdot K_b \cdot [H^+]}{(K_b + [H^+])^2}.$$

4-masala. pH = 4 bo'lgan va 1,140M CH_3COOH hamda 0,205M CH_3COONa dan tarkib topgan eritmaning bufer sig'imini hisoblang. $K_{CH_3COOH} = 1{,}74 \cdot 10^{-5}$.

Yechish. Komponentlarning umumiy konsentratsiyasini topamiz:

$$C = 1{,}140 + 0{,}205 = 1{,}345 \text{ mol/l}.$$

Qiymatlarni quyidagi formulaga qo'yib, eritmaning bufer sig'imini aniqlaymiz:

$$\pi = \frac{2{,}3 \cdot C \cdot K_a \cdot [H^+]}{(K_a + [H^+])^2} = \frac{2{,}3 \cdot 1{,}345 \cdot 1{,}74 \cdot 10^{-5} \cdot 1 \cdot 10^{-4}}{(1{,}74 \cdot 10^{-5} + 1 \cdot 10^{-4})^2} = 0{,}39.$$

5-masala. Ammoniy xlorid va ammiak eritmalaridan tayyorlangan bufer eritmaning pH = 10 ga teng. Agar eritmaning umumiy konsentratsiyasi C = 0,337 mol/l bo'lsa, uning bufer sig'imini hisoblang. $K_{NH_3} = 1{,}76 \cdot 10^{-5}$.

Yechish. Ammiak eritmasi suvda quyidagicha dissotsialanadi:

$$NH_3 + H_2O \leftrightarrow NH_4^+ + OH^-.$$

Ammoniy ionining dissotsilanish konstantasi:

$$K_{NH_4^+} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{K_{NH_3}} = \frac{1 \cdot 10^{-14}}{1{,}76 \cdot 10^{-5}} = 5{,}68 \cdot 10^{-10} \text{ ga teng.}$$

$$\pi = \frac{2{,}3 \cdot 0{,}337 \cdot 5{,}68 \cdot 10^{-10} 1 \cdot 10^{-10}}{(1 \cdot 10^{-10} + 5{,}68 \cdot 10^{-10})^2} = 0{,}1.$$

Mustaqil yechish uchun masalalar

6-masala. 1 litrda 0,2M CH_3COONa va 0,2M CH_3COOH saqlagan bufer eritma-ning pH ini hisoblang. Bu eritmaga 0,01M HCl qo'shilganda pH qanday o'zgaradi?

7-masala. 1 litr benzoatli bufer aralashma 0,35 mol C_6H_5COOH va 0,35 mol C_6H_5COONa saqlaydi. Bufer aralashmaning pH ini hisoblang.

8-masala. 25 ml 0,1M CH_3COOH eritmasiga 25 ml 0,1M CH_3COONa eritmasi qo'shildi. Hosil bo'lgan eritmaning pH ini hisoblang. Eritmaga 0,01M NaOH qo'shilganda pH qanday o'zgaradi?

9-masala. 1 litrda 0,5 mol $NH_3 \cdot H_2O$ va 0,5 mol NH_4Cl saqlagan ammoniyli bufer eritmaning pH ini hisoblang. 0,2M NaOH qo'shilganda pH qanday o'zgaradi?

10-masala. 0,4M CH_3COOH va 0,15M CH_3COONa saqlagan bufer eritmada pH = 4,35. Bu eritmaning bufer sig'imini hisoblang.

11-masala. π = 0,3 va pH = 5,0 bo'lgan bufer eritma tayyorlash uchun 2M NaOH va 2M CH_3COOH eritmalaridan necha ml dan olish kerak?

Kompleks birikmalarning eritmalarida muvozanat

Komplekslar – bu markaziy atom (kompleks hosil qiluvchi) va ligandlar deb nomlanuvchi ionlardan (yoki neytral molekulalardan) tarkib topgan kimyoviy birikmalardir.

Kompleks hosil bo'lish reaksiyalarining muvozanatini tavsiflashda eritmadagi ionlar doim solvatlangan holda bo'lishini e'tiborga olish kerak. Shuning uchun komplekslarning hosil bo'lishini erituvchi molekulalarining (S) ligand ionlari yoki neytral molekulalarga (L) bosqichma-bosqich almashinadi deb qarash mumkin:

$$MS_n + L = MS_{n-1}L + S$$
$$\underline{MS_{n-1}L + L = MS_{n-2}L_2 + S}$$
$$MSL_{n-1} + L = ML_n + S$$

Suyiltirilgan eritmalarda erituvchining aktivligi amalda doimiy va ionlarni solvatlovchi erituvchi molekulalarining soni doim ma'lum bo'lgani uchun kompleks eritmalardagi muvozanatni odatda quyidagi ko'rinishlarda ifodalash mumkin:

Bosqichli	**Umumiy**
$M + L = ML$	$M + L = ML$
$\underline{ML + L = ML_2}$	$\underline{M + 2L = ML_2}$
$ML_{n-1} + L = ML_n$	$M + nL = ML_n$

Massalar ta'siri qonuniga binoan komplekslarning bosqichli hosil bo'lishi tegishli termodinamik bosqichli barqarorlik konstantalari bilan ifodalanadi:

$$K_1^0 = \frac{a_{ML}}{a_M \cdot a_L};$$

$$K_2^0 = \frac{a_{ML_2}}{a_{ML} \cdot a_L};$$

$$K_n^0 = \frac{a_{ML_n}}{a_{M_{n-1}} \cdot a_L}.$$

Umumiy muvozanatning tegishli konstantalari umumiy barqarorlik konstantalari deb nomlanadi va β simvoli bilan belgilanadi:

$$\beta_1^0 = K_1^0 = \frac{a_{ML}}{a_M \cdot a_L};$$

$$\beta_2^0 = K_1^0 K_2^0 = \frac{a_{ML_2}}{a_{ML} \cdot a_L^2};$$

$$\beta_n^0 = K_1^0 K_2^0 ... K_n^0 = \frac{a_{ML_n}}{a_M \cdot a_L^n}.$$

Barqarorlik konstantaga teskari miqdor kompleksning beqarorlik konstantasi yoki kompleksning ionlarga parchalanish konstantasi deyiladi. Bu konstantaning qiymati qancha katta bo'lsa, berilgan kompleks shunchalik kuchli dissotsilanadi va shunchalik beqaror bo'ladi.

$$K_{\text{beqar.}} = \frac{[M][L]^n}{[ML_n]}$$

Barqarorlik va beqarorlik konstantalari orasida quyidagi nisbat mavjud:

$$K_{\text{beqar.}} = \frac{1}{K_{\text{barqar.}}} = \frac{1}{\beta}$$

1-masala. 0,05M $[Ag(NH_3)_2]Cl$ eritmasida kumush ionlari va ammiak molekulalarining muvozanat konsentratsiyalarini hisoblang.

Yechish. Tuzning dissotsilanishini quyidagi tenglamalar bilan ifodalash mumkin:

$$[Ag(NH_3)_2]Cl \rightarrow [Ag(NH_3)_2]^+ + Cl^-$$

(1)

$$[Ag(NH_3)_2]^+ \leftrightarrow Ag^+ + 2NH_3$$

(2)

Ikkinchi qaytar jarayon uchun beqarorlik konstantasining ifodasini yozamiz:

$$K_{beqar.} = \frac{[Ag^+][NH_3]^2}{[[Ag(NH_3)_2]^+]}.$$

Jadvaldan komplek ionning barqarorlik konstantasini topamiz: $\lg\beta = 7{,}23$; bi-nobarin, $\beta = 10^{7{,}23} = 1{,}7\cdot10^7$,

$$K_{beqar.} = \frac{1}{\beta} = 5{,}9\cdot10^{-8}.$$

$[Ag^+]$ ni x mol/l bilan belgilaymiz, unda (2) tenglamaga muvofiq $[NH_3] = 2x$ mol/l, $[Ag(NH_3)_2]^+$ esa $C - x$ mol/l ga teng bo'ladi. Bu qiymatlarni kompleksning beqarorlik konstantasi ifodasiga qo'yamiz:

$$K_{beqar.} = \frac{x\cdot(2x)^2}{C-x} = \frac{4x^3}{C-x}.$$

Kompleks ionning kam dissotsilanishini inobatga olsak, uning konsentratsiyasini doimiy deb qabul qilishimiz mumkin:

$$K_{beqar.} = \frac{4x^3}{C}.$$

Bundan, $x = \sqrt[3]{\frac{K_{beqar.}\cdot C}{4}} = \sqrt[3]{\frac{5{,}9\cdot10^{-8}\cdot0{,}05}{4}} = 0{,}9\cdot10^{-3}$;

$$[Ag^+] = x = 0{,}9\cdot10^{-3}\ \text{mol/l};$$

$$[NH_3] = 2x = 2\cdot0{,}9\cdot10^{-3} = 1{,}8\cdot10^{-3}\ \text{mol/l}.$$

2-masala. 0,5M KI saqlagan 0,01M K_2HgI_4 eritmasidagi simob (II) ionlarining muvozanat konsentratsiyasini hisoblang.

Yechish. Kompleks ionning dissotsilanishi quyidagi tenglama asosida boradi:

$$HgI_4^{2-} \rightleftharpoons Hg^{2+} + 4I^-$$

Jadvaldan HgI_4^{2-} kompleksi uchun $\lg\beta_4 = 30{,}18$; $\beta_4 = 1{,}51\cdot10^{30}$ ekanligini aniqlaymiz. Bundan:

$$\beta_4 = \frac{[HgI_4^{2-}]}{[Hg^{2+}][I^-]^4} = 1{,}51\cdot10^{30}.$$

Bu kompleks barqaror bo'lganligi uchun uning dissotsilanishini hisobga olmasa ham bo'ladi, HgI_4^{2-} ning konsentratsiyasini esa K_2HgI_4 tuzining umumiy konsen-tratsiyasiga (0,01M) teng deb olish mumkin. I^- ning muvozanat konsentratsiyasini ortiqcha miqdorda olingan KI ning umumiy konsentratsiyasiga teng deb hisoblasak, unda:

$$[Hg^{2+}] = \frac{[HgI_4^{2-}]}{\beta_4[I^-]^4} = \frac{10^{-2}}{1{,}51 \cdot 10^{30} \cdot (0{,}5)^4} = 1{,}06 \cdot 10^{-31}M.$$

Mustaqil yechish uchun masalalar

3-masala. 0,1M $[Cu(NH_3)_4]SO_4$ eritmasida $[Cu^{2+}]$ va $[NH_3]$ ni hisoblang.

4-masala. 0,05M $K_3[Fe(CN)_6]$ eritmasida $[Fe^{3+}]$, $[CN^-]$ va $[K^+]$ ni hisoblang.

5-masala. 10 ml 0,25M kumush nitrat eritmasiga 40 ml 0,5M kaliy sianid eritmasi qo'shildi. Aralashmadagi $[Ag^+]$ ning muvozanat konsentratsiyasini hisoblang.

6-masala. 0,1M $K_2[Cd(CN)_4]$ va 0,1M $[Cd(NH_3)_4]SO_4$ eritmalarning qaysi birida $[Cd^{2+}]$ ionlarining konsentratsiyasi yuqori bo'ladi?

Oksidlanish-qaytarilish jarayonlari

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalari – elektronlar ishtirokida boradigan va reaksiyaga kirishuvchi elementlarning oksidlanish darajalari o'zgarishi bilan boradigan reaksiyalardir:

$$Ox_1 + ne \rightarrow Red_1$$
$$Red_2 - ne \rightarrow Ox_2$$
$$Ox_1 + Red_2 = Red_1 + Ox_2$$

Elektronlarni berish va qabul qilish qobiliyati turli moddalarda turlichadir. Bu qobiliyatni baholash uchun reaksiyaning muvozanat konstantasi xizmat qiladi:

$$K = \frac{[Ox_2][Red_1]}{[Ox_1][Red_2]}.$$

Moddalarning oksidlanish-qaytarilish xossalarini ifodalashda boshqa kattalik – potensialdan ko'proq foydalaniladi. Elektronlarning ko'chishida elektr toki hosil bo'ladi, binobarin, kimyoviy reaksiya energiyasini elektr energiyaga o'zgartirish mumkin. Bunday jarayonlar galvanik elementlarda sodir bo'ladi. Shuning uchun oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini muvozanat konstantasi bilan emas, balki galvanik elementning elektr yurituvchi kuchi – potensiali bilan tavsiflash mumkin.

Oksidlanish-qaytarilish potensialining konsentratsiya va haroratga bog'liqligi Nernst tenglamasi bilan hisoblanadi:

$$E = E^\circ + \frac{RT}{nF}\ln\frac{[Ox]^n}{[Red]^m},$$

bunda E – sistemaning redoks potensiali, V; $E°$ - sistemaning standart redoks potensiali*, V; T – harorat, K; n – oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida ishtirok etuvchi elek-tronlar; R – universal gaz doimiysi, 8,312 J/(mol·K); F – Faradey doimiysi, 96500 Kl; $[Ox]^n$, $[Red]^m$ – stexiometrik koeffitsiyentlarda olingan oksidlovchi va qaytaruvchining konsentartsiyasi.

Tenglamaga doimiyliklarning son qiymatlarini qo‘yib, natural logarifmni o‘nli logarifm bilan almashtirsak, tenglama quyidagi ko‘rinishni oladi:

$$E = E^{\circ} + \frac{0{,}059}{n} \lg \frac{[Ox]^n}{[Red]^m}.$$

Agar oksidlanish-qaytarilish reaksiyasi vodorod protonlari ishtirokida borsa, unda massalar ta’siri qonuniga binoan vodorod ionlarining konsentratsiyasi ko‘payishi bilan reaksiyaning tezligi ortadi.

Bunday holda sistemaning redoks potensiali ham ortadi. Masalan, quyidagi yarim reaksiyalarda bu yaqqol namoyon bo‘ladi:

$$+3e + MnO_4^- + 4H^+ \rightarrow MnO_2\downarrow + 2H_2O \quad (1)$$

$$E = E^{\circ} + \frac{0{,}059}{3} \lg[MnO_4^-] \cdot [H^+]^4 \quad (25°C \text{ da})$$

$$+5e + MnO_4^- + 8H^+ \rightarrow Mn^{2+} + 4H_2O \quad (2)$$

$$E = E^{\circ} + \frac{0{,}059}{3} \lg \frac{[MnO_4^-] \cdot [H^+]^8}{[Mn^{2+}]} \quad (25°C \text{ da})$$

$E°$ kattaligi ko‘p jihatdan kislota konsentratsiyasiga bog‘liq bo‘ladi va konsentrlangan H_2SO_4 ishtirokida uning qiymati +1,51 V dan +1,9 V gacha ortib ketadi (2-reaksiya).

H^+ yoki OH^- ionlar konsentratsiyasining o‘zgarishi nafaqat redoks-potensialning o‘zgarishiga, balki reaksiya yo‘nalishiga ham ta’sir etadi. Masalan, arsenitionlarning yod bilan reaksiyasi faqat natriy gidrokarbonat muhitida (pH = 9) borishi mumkin:

$$-2e + AsO_2^- + 4OH^- \rightarrow AsO_4^{3-} + 2H_2O \quad 1 \quad E° = -0{,}71 \text{ V}$$

* Sistemaning standart redoks potensiali – bu yarim reaksiya ishtirokchilarining barchasi standart holatda (ya’ni aktivliklar 1 ga teng bo’lgan holatda), eritilgan moddalar esa standart eritmada bo’l-gan sistemaning potensiali.

$+2e + [I_3]^- \rightarrow 3I^-$ 1 E°

$= 0{,}545$ V

$AsO_2^- + [I_3]^- + 4OH^- \rightarrow AsO_4^{3-} + 3I^- + 2H_2O$

Kislotali muhitda esa bunday reaksiya bormaydi, chunki $E^\circ_{H_3AsO_4/HAsO_2} = 0{,}56$ V qiymat $E^\circ_{[I_3]^-/3I^-} = 0{,}545$ V dan katta va shuning uchun reaksiya yo'nalishi o'zgaradi:

$+2e + H_3AsO_4 + 2H^+ \rightarrow HAsO_2 + 2H_2O$ 1 E°

$= 0{,}56$ V

$-2e + 3I^- \rightarrow [I_3]^-$ 1 E°

$= 0{,}545$ V

$AsO_2^- + [I_3]^- + 4OH^- \rightarrow AsO_4^{3-} + 3I^- + 2H_2O$

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining tezligiga reagentlar konsentratsiyasi, eritma muhiti va haroratdan tashqari kattalizatorlar ham jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Katalizator sifatida begona modda yoki reaksiya mahsulotlaridan biri xizmat qilishi mumkin. Masalan, permanganat-ionlarning oksalat kislota bilan Mn^{2+} gacha qaytarilish reaksiyasining katalizatori marganes (II) kationlari, ya'ni reaksiya mahsuloti hisoblanadi.

Oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarining to'liq borishi quyidagi faktrolarga bog'liq bo'ladi:

• reaksiyaning elektr yurituvchi kuchi (E.Yu.K) – o'zaro ta'sir etuvchi sistema potensiallarining farqi; odatda, E.Yu.K. 0,4 V dan katta bo'lgan reaksiyalar boradi.

• quyidagi tenglamalar bilan hisoblanadigan redoks reaksiyaning muvozanat konstantasi:

$$K = 10^a, \text{ bu yerda } a = \frac{n(E_1^\circ - E_2^\circ)}{0{,}059} \text{ (25°C da)}$$

yoki

$$\lg K = \frac{n(E_1^\circ - E_2^\circ)}{0{,}059},$$

bunda, n – jarayonda ishtirok etuvchi elektronlar soni; E_1°, E_2° – tegishlicha oksidlovchi va qaytaruvchining standart redoks-potensiallari.

MIQDORIY ANALIZ

1-sxema

MIQDORIY ANALIZ USULLARINING KLASSIFIKATSIYASI



3-sxema

TITRLASH USULI BO'YICHA TITRIMETRIK ANALIZ METODLARINING KLASSIFIKATSIYASI

To'g'ri titrlash	Teskari titrlash	Bilvosita titrlash
Aniqlanuvchi modda eritmasiga bevosita titrant eritmasi qo'shiladi.	Aniqlanuvchi modda eritmasiga aniq konsentratsiyali titrant eritmasidan mo'l miqdor qo'shiladi, uning ortiqcha miqdori ikkinchi titrant bilan titrlanadi.	Aniqlanuvchi modda eritmasiga yordamchi reagent qo'shiladi, natijada ekvivalent miqdorda yangi modda hosil bo'ladi. Uni asosiy titrant bilan titrlab, aniqlovchi moddaning konsentratsiyasi aniqlanadi.
Misol: $H_2C_2O_4 + 2NaOH \rightleftarrows$ $\rightleftarrows Na_2C_2O_4 + 2H_2O$	Misol: $CH_3COOH + NaOH(\text{mo'l}) \rightleftarrows$ $\rightleftarrows CH_3COONa + H_2O$ $NaOH(\text{qoldiq}) + HCl \rightleftarrows NaCl + H_2O$	Misol: $+6e + Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ \rightleftarrows 2Cr^{3+} + 7H_2O$ | 1 $-2e + 3I^- \rightleftarrows [I_3]^-$ | 3 $C_2O_7^{2-} + 14H^+ + 9I^- \rightarrow 2Cr^{3+} + 7H_2O + 3[I_3]^-$ $-2e + [I_3]^- \rightleftarrows 3I^-$ $-2e + 2S_2O_3^{2-} \rightleftarrows S_4O_6^{2-}$ $[I_3]^- + 2S_2O_3^{2-} \rightarrow 3I^- + S_4O_6^{2-}$

4-sxema

EKVIVALENT NUQTANI QAYD ETISH USULI BO'YICHA TITRIMETRIK ANALIZ METODLARINING KLASSIFIKATSIYASI

- Indikatorsiz analiz metodlari
  - Cho'ktirishga asoslangan titrlash, argentometriya
  - Oksidlanish-qaytarilishli titrlash, permanganometriya, dixromatometriya, yodxlorimetriya , serimetriya, yodometriya
  - Kompleksimetrik titrlash: merkurimetriya: I^- ionlarini aniqlash
- Indikatorli analiz metodlari
  - Spetsifik bo'lmagan indikatorlarning qo'llanilishi
    - Oksidlanish-qaytarilishli titrlash, bromatometriya: metiloranj va boshq.
    - Yodometriya: kraxmal
  - Spetsifik indikatorlarning qo'llanilishi
    - Oksidlanish-qaytarilishli titrlash: redoks indikatorlar
    - Kompleksonometrik titrlash: metalloxrom indikatorlar
    - Cho'ktirishga asoslangan titrlash: Mor metodi – K_2CrO_4, Folgard metodi – $(NH_4)_2Fe(SO_4)_2$, Fayans metodi – adsorbsion indikatorlar, merkurometriya metodi – difenilkarbazon, $[Fe(NCS)_3]$
    - Kislota-asosli titrlash – pH-indikatorlar

1-jadval

GRAVIMETRIK ANALIZ METODI

<table>
<tr><td colspan="3">Gravimetrik analiz metodi moddaning erkin yoki muayyan tarkibli birikma ko'rinishida ajratib olingan tarkibiy qismlari massasining aniq o'lchanishiga asoslangan</td></tr>
<tr><td rowspan="3">Cho'ktirish metodlari</td><td colspan="2">Haydash metodlari</td></tr>
<tr><td colspan="2">Haydash metodlarida aniqlanuvchi komponent uchuvchan birikma ko'rinishida miqdoriy haydaladi</td></tr>
<tr><td>Bevosita haydash metodlari</td><td>Bilvosita haydash metodlari</td></tr>
<tr><td>Cho'ktirish metodlarida aniqlanuvchi komponent muayyan tarkibli qiyin eruvchan kimyoviy birikma ko'rinishida miqdoriy cho'ktiriladi.
Masalan,
– SO_4^{2-} ni aniqlashda ular Ba^{2+} ionlari bilan cho'ktiriladi:
$Ba^{2+} + SO_4^{2-} \rightarrow \underset{\text{cho'ktirilgan shakl}}{BaSO_4\downarrow}$
– qizdirilgandan keyin:
$BaSO_4\downarrow \xrightarrow{\Delta} \underset{\text{gravimetrik shakl}}{BaSO_4}$
Bu holda cho'ktirilgan va gravimetrik shakllar mos tushadi.</td><td>Agar haydalgan mahsulot massasi bevosita o'lchansa, bunday usul bevosita haydash deb aytiladi.
Masalan, kalsiy karbonat tortimining parchalanishidan hosil bo'lgan CO_2 ni aniqlash:
$CaCO_3\downarrow + 2H^+ \xrightarrow{\Delta} CO_2\uparrow + Ca^{2+} + H_2O$
$CO_2 + 2NaOH \rightarrow Na_2CO_3 + H_2O$
CO_2 ning miqdori natron ohaki (NaOH + CaO) bilan to'ldirilgan yutivchi nay massasining ortishiga qarab hisoblanadi</td><td>Agar haydalgan mahsulot massasi haydashgacha va haydashdan keyingi namuna massasining farqiga qarab aniqlansa, bunday usul bilvosita haydash deb aytiladi.
Masalan, moddalarning namligini, kristallogidratlardagi kristallizatsion suvni aniqlash:
$BaCl_2 \cdot 2H_2O \xrightarrow{\Delta} BaCl_2 + H_2O\uparrow$</td></tr>
</table>

1-jadvalning davomi

– Ca^{2+} ionlarini aniqlashda ular ammoniy oksalat bilan cho'ktiriladi: $Ca^{2+} + C_2O_4^{2-} \rightarrow \underset{\text{cho'ktirilgan shakl}}{CaC_2O_4\downarrow}$ – qizdirilganda keyin: $CaC_2O_4\downarrow \xrightarrow{\Delta} CO_2\uparrow + CO\uparrow + \underset{\text{gravimetrik shakl}}{CaO}$ Cho'ktirish metodi bo'yicha natijalarni hisoblash: $\omega,\% = \dfrac{m_{gr.shakl}\cdot F\cdot 100}{m_t}$, bunda: ω – aniqlanuvchi moddaning miqdori, %; $m_{gr.shakl}$ – garvimetrik shaklning massasi, g; F – gravimetrik faktor; m_t – analiz uchun olingan modda tortimining massasi, g.	Bevosita haydash metodi bo'yicha analiz natijalarini hisoblash: $\omega,\% = \dfrac{m_{gr.shakl}\cdot 100}{m_t}$, bunda: ω – aniqlanuvchi moddaning miqdori, %; m_t – analiz uchun olingan modda tortimining massasi, g; $m_{gr.shakl}$ –yutuvchi nay massasining ortishi bo'yicha aniqlanadigan garvimetrik shaklning massasi, g;	Bilvosita haydash metodi bo'yicha analiz natijalarini hisoblash: $\omega,\% = \dfrac{(m_t \cdot m_{gr.shakl})\cdot 100}{m_t}$, bunda: ω – aniqlanuvchi moddaning miqdori, %; m_t – analiz uchun olingan modda tortimining massasi, g; $m_{gr.shakl}$ – analiz uchun olingan moddaning quritilgandan yoki qizdirilgandan keyingi massasi, g;

2-jadval

KISLOTA-ASOSLI TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
0,1M - 0,001M HCl, H_2SO_4 va bosh. kislotalarning eritmalari (atsidimetriya)	Kislota - asosli indikatorlar (masalan, metiloranj, fenolftalein)	Standart moddalar ($Na_2B_4O_7 \cdot 10H_2O$, Na_2CO_3, K_2CO_3). Standart eritmalar (NaOH, KOH, $Ba(OH)_2$)	Bu metod bilan quyidagilar aniqlanadi • kuchli kislota va asoslar; • kuchsiz kislota va asoslar, $K_1 \geq 5 \cdot 10^{-7}$; • kuchli kislota va kuchsiz asosdan ($K_b \leq 5 \cdot 10^{-7}$) yoki kuchli asos va kuchsiz kislotadan ($K_a \leq 5 \cdot 10^{-7}$) tarkib topgan tuzlar.	1. Reaksiya mahsulotlari yoki titrlash egri chiziqlari bo'yicha indikatorni to'g'ri tanlash. 2. Ekvivalent nuqtaga yaqinlashganda titrlashni sekin o'tkazish. 3. $t = 20 - 25°C$	$H^+ + OH^- \rightleftarrows HOH$ Masalan, to'g'ri titrlash: $Na_2CO_3 + HCl \rightarrow$ $\xrightarrow{f.f.} NaHCO_3 +$ $+ NaCl$ $Na_2CO_3 + 2HCl \rightarrow$ $\xrightarrow{m.o.} NaCl +$ $+ CO_2\uparrow + H_2O$ teskari titlash: $CH_3COOH +$ $NaOH_{(mo'l)} \rightleftarrows$ $CH_3COONa + H_2O$ $NaOH_{(qoldiq)} + HCl$ $\rightleftarrows NaCl + H_2O$
0,1M - 0,001M KOH, NaOH va bosh. ishqorlarning eritmalari (alkalimetriya)		Standart moddalar ($H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$, $H_2C_2H_4O_6$). Standart eritmalar (HCl, H_2SO_4)			

3-jadval

CHO'KTIRISHGA ASOSLANGAN TITRLASH

Metodning nomi	Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
Mor metodi bo'yicha argentometrik titrlash	0,1M yoki 0,05M $AgNO_3$ eritmasi	5%-li K_2CrO_4	NaCl yoki KCl standart moddalar va ularning standart eritmalari	Cl^- va Br^- aniqlanadi	1. pH 6,3 – 10,5; 2. Ba^{2+}, CO_3^{2-}, Pb^{2+}, Hg_2^{2+}, PO_4^{3-} bo'lmasligi kerak (titrant yoki indikator bilan cho'kma hosil qiladi)	$Ag^+ + Cl^- \rightarrow AgCl\downarrow$ $2Ag^+ + CrO_4^{2-} \rightarrow$ $\rightarrow Ag_2CrO_4\downarrow$
Folgard metodi bo'yicha argentometrik titrlash (rodanometriya)	To'g'ri titrlash: 0,05M yoki 0,1M NH_4NCS, KNCS yoki $AgNO_3$ eritmalari Teskari tirlash: yuqorida ko'rsatilgan titrantlar	$(NH_4)_2[Fe(SO_4)_2]$ ning to'yingan eritmasi	$AgNO_3$, KCl va NaCl, KNCS larning standart eritmalari	To'g'ri titrlashda: Ag^+, Hg^{2+} hamda KNCS titrant eritmasi bilan Br^-, I^- aniqlanadi; Teskari titrlashda: Cl^-, Br^-, I^-, S^{2-}, AsO_4^{3-}, CO_3^{2-} $C_2O_4^{2-}$, NCS^-, CN^-, PO_4^{3-}, CrO_4^{2-} aniqlanadi	1. Titrlash kislotali muhitda o'tkaziladi; 2. Hg(I) tuzlari va F^- ionlari bo'lmasligi kerak; 3. I^- ionini aniqlashda indikatorni titrlashni oxirida qo'shish kerak; 4. Cl^- ionlarini aniqlashda CCl_4, $CHCl_3$ qo'shiladi yoki $AgNO_3$ filtrlab olinadi	To'g'ri titrlash: $Ag^+ + NCS^- \rightarrow$ $\rightarrow AgNCS\downarrow$ $3NCS^- + Fe^{3+} \rightarrow$ $\rightarrow [Fe(NCS)_3]\downarrow$ Teskari titrlash: $Ag^+ + Cl^- \rightarrow AgCl\downarrow$ $Ag^+ + NCS^- \rightarrow$ $\rightarrow AgNCS\downarrow$ $3NCS^- + Fe^{3+} \rightarrow$ $\rightarrow [Fe(NCS)_3]\downarrow$

3-jadvalning davomi

Fayans-Xodakov metodi bo'yicha argentometrik titrlash	0,1M yoki 0,05M $AgNO_3$ eritmasi	Adsorbsion indikatorlar: eozin, fluoressein va boshqalar	NaCl yoki KCl standart moddalar va ularning standart eritmalari	Cl^-, Br^-, I^-, NCS^- aniqlanadi	Qo'llaniladigan indikatorga qarab titrlash pH ning muayyan qiymatlarida o'tkaziladi	$Ag^+ + I^- \rightarrow AgI\downarrow$
Merkurometrik metod	0,1M $Hg_2(NO_3)_2$ eritmasi	Temir (III)-rodanit $[Fe(NCS)_3]$, difenilkarbazon $NH - NH - C_6H_5$ | $C = O$ | $N = N - C_6H_5$	NaCl yoki KCl standart moddalar va ularning standart eritmalari	Cl^-, Br^-, I^- aniqlanadi	Titrlash kislotali muhitda o'tkaziladi	$Hg_2^{2+} + 2Cl^- \rightarrow$ $\rightarrow Hg_2Cl_2\downarrow$

4-jadval

MERKURIMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
HNO_3 dagi 0,1M $Hg(NO_3)_2$ eritmasi	Natriy nitroprusid $Na_2[Fe(CN)_5NO]$, difenilkarbazid yoki difenilkarbazon eritmalari, I^- ni aniqlashda indikator qo'llanilmaydi	NaCl yoki KCl standart moddalar va ularning standart eritmalari	Cl^-, Br^-, I^-, NCS^-, CN^- aniqlanadi	Titrlash kislotali (HNO_3) muhitda o'tkaziladi	$Hg^{2+} + 2Cl^- \rightarrow [HgCl_2]$ $Hg^{2+} + 2Br^- \rightarrow [HgBr_2]$ $Hg^{2+} + 2NCS^- \rightarrow [HgNCS_2]$ $Hg^{2+} + [Fe(CN)_5NO]^{2-} \rightarrow Hg[Fe(CN)_5NO]\downarrow$ yoki Hg^{2+} ning difenilkarbazid yoki difenilkarbazon bilan rangli komplekslari $Hg^{2+} + 4I^- \rightarrow [HgI_2]^{2-}$ $[HgI_2]^{2-} + Hg^{2+} \rightarrow 2HgI_2\downarrow$

5-jadval

KOMPLEKSONOMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
To'g'ri titrlash: 0,05M-0,1M trilon B (Na_2H_2L) eritmasi	Metalloxrom indikatorlar: erioxrom qora T, mureksid va boshqalar	Standart moddalar: Zn, ZnO, $CaCO_3$. Standart eritmalar: $ZnSO_4$, $MgSO_4$	Cu^{2+}, Co^{2+}, Pb^{2+}, Ni^{2-}, Sr^{2+}, Fe^{3+}, Al^{3+}, Ba^{2+}, Zn^{2+}, Ca^{2+}, Mg^{2+} va bosh. aniqlanadi	Titrlash pH ning muayyan qiymatlarida o'tkaziladi	$H_2L^{2-} + Me^{2+} \rightarrow [MeL]^{2-} + 2H^+$ Me^{2+} kationlarini saqlagan eritmaga ammiakli bufer eritma, indikator qo'shiladi va trilon B ning standart eritmasi bilan rang o'zgarguncha titrlanadi.
Teskari tirlash: 1. 0,05M-0,1M trilon B eritmasi 2. 0,05M-0,1M $MgSO_4$ yoki $ZnSO_4$ eritmalari			1. Maxsus indikatorlar mavjud emas. 2. Kationlar cho'kmasi bufer eritmada hosil bo'ladi. 3. Kompleks hosil bo'lishi sekin boradi. 4. Suvda erimaydigan cho'kmalar (CaC_2O_4, $MgNH_4PO_4$) dagi kationlar aniqlanadi	Titrlash pH ning muayyan qiymatlarida o'tkaziladi	$H_2L^{2-}{}_{(mo'l)} + Me^{2+} \rightarrow [MeL]^{2-} + H^+$ $H_2L^{2-}{}_{(qoldiq)} + Mg^{2+} \rightarrow [MgL]^{2-} + H^+$ Metall kationlarini saqlagan eritmaga mo'l miqdorda trilon B eritmasi qo'shiladi va uning ortiqchasi metalloxrom indikatori ishtirokida magniy tuzlari eritmasi bilan titrlanadi

5-jadvalning davomi

Bilvosita titrlash: 0,05M-0,1M trilon B eritmasi			Metallar aniqlanadi	–//–	$Me^{2+} + [MgL]^{2-} \rightarrow Mg^{2+} + [MeL]^{2-}$ $H_2L^{2-} + Mg^{2+} \rightarrow [MgL]^{2-} + H^+$ Eritmaga trilon B ning rux yoki magniy bilan kompleksidan mo'l miqdorda kiritiladi. Aniqlanuvchi kation mustahkamroq kompleks hosil qilib, ekvivalent miqdorda Zn^{2+} yoki Mg^{2+} ni ajratadi va ular trilon B eritmasi bilan yana titrlanadi
Kislota-asosli titrlash 1. 0,05M trilon B eritmasi; 2. 0,1M KOH (NaOH) eritmasi	Kislota-asosli indikatorlar		Metallar aniqlanadi		$H_2L^{2-} + Me^{2+} \rightarrow [MeL]^{2-} + 2H^+$ $2H^+ + 2OH^- \rightarrow 2H_2O$

5-sxema

OKSIDLANISH-QAYTARISHLI TITRLASH USULLARI

Oksidlanish-qaytarishli titrlash usullari

Oksidimetriya

Bu usul oksidlovchilarning standart eritmalari bilan titrlab qaytaruvchilarni aniqlashga asoslangan:

permanganatometriya

(titrant – $KMnO_4$),

bromatometriya

(titrant – $KBrO_3$),

dixromatometriya

(titrant – $K_2Cr_2O_7$),

yodometriya

(titrant – KI dagi I_2),

yodxlorimetriya

(titrant – ICl),

nitritometriya

(titrnat – $NaNO_2$),

serimetriya

(titrant – Ce^{4+} tuzlarining eritmalari)

va boshqalar

Reduktometriya

Bu usul qaytaruvchilarning standart eritmalari bilan titrlab oksidlovchilarni aniqlashga asoslangan:

yodometriya

(titrant – $Na_2S_2O_3$),

nitritometriya

(titrant – $NaNO_2$),

gidrazinometriya

(titrant – $N_2H_4 \cdot H_2SO_4$),

askorbinometriya

(titrant – $C_6H_8O_6$),

ferrometriya

(titrant – $FeSO_4$) va boshqalar

6-jadval

PERMANGANATOMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart erit-malar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
0,1M-0,05M $KMnO_4$ eritmasi	1. Indikatorsiz: – bir tomchi tit-rantning qo'shili-shidan 30 sekund davomida yo'qol-maydigan pushti rangning paydo bo'lishi; 2. Indikatorli: – redoksindikator-lar, masalan ferro-in	$H_2C_2O_4 \cdot 2H_2O$, $Na_2C_2O_4$, As_2O_3, Fe (met.), $(NH_4)_2Fe(SO_4)_2 \times$ $\times 6H_2O$. Standart eritmalar $H_2C_2O_4$ va $NaAsO_2$	Quyidagilar aniqla-nadi: 1) qaytaruvchilar: to'g'ri titrlash bilan $C_2O_4^{2-}$, Fe^{2+}, H_2O_2, NO_2^-; teskari yoki bilvosita titrlash bi-lan – Ca^{2+}. 2) oksidlovchilar: teskari titrlash bi-lan – MnO_2, PbO_2, $K_2Cr_2O_7$, $S_2O_8^{2-}$ (2-standart eritma – $H_2C_2O_4$, $NaAsO_2$); bilvosita titrlash bi-lan Ca^{2+}, Sr^{2+}, Ba^{2+}, Pb^{2+}.	Titrlash a) kuchli kislotali muhitda (H_2SO_4); b) qizdirilganda (t = 60-70°C) yoki xona haroratida o'tkazi-ladi. Titrlash sekin o't-kaziladi, har bir ke-yingi tomchi oldin-gisi rangsizlangan-dan keyin qo'shila-di.	$+5e + MnO_4^- + 8H^+ = Mn^+ + 4H_2O$ $E^\circ = 1{,}51$ V. Teskari tirlash metodi bilan Ca^{2+} ni aniqlash 1. $Ca^{2+} + C_2O_4^{2-}{}_{(mo'l)} \rightarrow CaC_2O_4\downarrow + C_2O_4^{2-}{}_{(qoldiq)}$ 2. $-2e + C_2O_4^{2-} \rightarrow 2CO_2\uparrow$ | 5 $+5e + MnO_4^- + 8H^+ \rightarrow Mn^{2+} + 4H_2O$ | 2 $2MnO_4^- + C_2O_4^{2-}{}_{(qoldiq)} + 16H^+ \rightarrow 2Mn^{2+} + 8H_2O + 10CO_2\uparrow$ Bilvosita titrlash metodi bi-lan Ca^{2+} ni aniqlash 1. $Ca^{2+} + C_2O_4^{2-} \rightarrow CaC_2O_4\downarrow$ 2. $CaC_2O_4\downarrow + 2H^+ \rightarrow H_2C_2O_4 + Ca^{2+}$ 3. $-2e + H_2C_2O_4 \rightarrow 2CO_2\uparrow + 2H^+$ | 5 $+5e + MnO_4^- + 8H^+ \rightarrow Mn^{2+} + 4H_2O$ | 2 $2MnO_4^- + 5H_2C_2O_4 + 16H^+ \rightarrow 2Mn^{2+} + 8H_2O + 10CO_2\uparrow$

7-jadval

YODOMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
1. 0,1M-0,05M I_2 ning KI dagi eritmasi 2. $Na_2S_2O_3$ eritmasi	1. Indikatorsiz: titrantning (I_2) ortiqcha tomchisi eritma rangini och-sariqqa kiritadi.	As_2O_3, $N_2H_4 \cdot H_2SO_4$, BaS_2O_3. Standart eritmalar: $Na_2S_2O_3$, I_2 ning KI dagi eritmasi	Quyidagilar aniqlandi: 1) $N_2S_2O_3$ eritmasi yordamida to'g'ri titrlash bilan – oksidlovchilar (I_2); 2) I_2 ning KI dagi eritmasi yordamida to'g'ri titrlash bilan – qaytaruvchilar ($Na_2S_2O_3$, As_2O_3); 3) bilvosita titrlash bilan – kuchli oksidlovchilar Cl_2 $KBrO_3$, H_2O_2;	1. Titrlash sovuqda o'tkaziladi, chunki I_2 uchuvchan va indikator – kraxmalning sezgirligi pasayadi. 2. Titrlash neytral, kuchsiz kislotali yoki kuchsiz ishqoriy muhitda o'tkaziladi. a) kuchli ishqoriy muhitda yod disproporsiyalanadi $I_2 + 2OH^- \rightarrow IO^- + I^- + H_2O$; b) kuchli kislotali muhitda qo'shimcha reaksiyalar boradi $4I^- + O_2 + 4H^+ \xrightarrow{h\nu} 2I_2 + 2H_2O$ $S_2O_3^{2-} + 2H^+ \rightarrow SO_2\uparrow + S\downarrow + H_2O$	1) $+2e + [I_3]^- \rightarrow 3I^-$ | 1 $-2e + 2S_2O_3^{2-} \rightarrow S_4O_6^{2-}$ | 1 $[I_3]^- + 2S_2O_3^{2-} \rightarrow S_4O_6^{2-} + 3I^-$ 2) $-2e + AsO_3^{3-} + 2OH^- \rightarrow AsO_4^{3-} + H_2O$ | 1 $+2e + [I_3]^- \rightarrow 3I^-$ | 1 $AsO_3^{3-} + [I_3]^- + 2OH^- \rightarrow AsO_4^{3-} + 3I^- + H_2O$ 3) $+6e + Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ \rightarrow 2Cr^{3+} + 7H_2O$ | 1 $-2e + 3I^- \rightarrow [I_3]^-$ | 3 $Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ + 9I^- \rightarrow 2Cr^{3+} + 7H_2O + 3[I_3]^-$

7-jadvalning davomi

1. 0,1M-0,05M $Na_2S_2O_3$ eritmasi	2. Indikatorli: 0,5%-li kraxmal eritmasi	$K_2Cr_2O_7$, $KBrO_3$, KIO_3, $K_3[Fe(CN)_6]$ va I_2 ning KI dagi, $KMnO_4$ standart eritmalar	4) to'g'ri titrlash bilan – kuchli kislotalar, teskari titrlash bilan – kuchsiz kislotalar; 5) aromatik va geterotsiklik birikmalar (fenol, difenol va aromatik aminlar;) 6) to'yinmagan uglevodorodlar	3. Bilvosita titrlash metodi bilan kuchli oksidlovchilarni aniqlashda ajralib chiqayotgan yodni eritish uchun KI eritmasidan qo'shib turish kerak: $I_2 + I^- \rightarrow [I_3]^-$; KI ni qo'shgandan keyin reaksion aralashma 10-15 min qorong'i joyda saqlanadi	4) $+10e + 2IO_3^- + 12H^+ \rightarrow I_2 + 6H_2O$ | 1 $-2e + 2I^- \rightarrow I_2$ | 5 $IO_3^- + 6H^+ + 5I^- \rightarrow 3I_2 + 3H_2O$ $3I_2 + 3I^- \rightarrow 3[I_3]^-$ $IO_3^- + 6H^+ + 8I^- \rightarrow 3[I_3]^- + 3H_2O$

8-*jadval*

YODXLORIMETRIK TITRLASH

Titrant	**Indikatorlar**	**Standart moddalar va standart eritmalar**	**Metodning imkoniyatlari**	**Titrlash shartlari**	**Reaksiya tenglamalari**
0,1M ICl eritmasi	1. Kraxmal eritmasi 2. Indikatorsiz: ajralib chiqadigan yod eritmani och-sariq rangga bo'yaydi	As_2O_3, $N_2H_4 \cdot H_2SO_4$, $K_4[Fe(CN)_6]$ va KI, $Na_2S_2O_3$ standart eritmalari	Quyidagilar aniqlanadi: 1) to'g'ri titrlash bilan – Sn^{2+}, NCS^- SO_3^{2-}, antipirin, askorbin kislota; 2) teskari titrlash bilan – Hg^{2+}, Fe^{2+}; 3) bilvosita titrlash bilan – KI	Titrlash kislotali (HCl) muhitda o'tkaziladi	Titrantni tayyorlash $-2e + I^- + Cl^- \rightarrow ICl$ | 2 $+4e + IO_3^- + 6H^+ + Cl^- \rightarrow ICl + 3H_2O$ | 1 $2I^- + IO_3^- + 6H^+ + 3Cl^- \rightarrow 3ICl + 3H_2O$ $+2e + ICl \rightarrow I^- + Cl^-$ $E^\circ = +0{,}795$ V ($E \leq 0{,}4$ V da) $+2e + 2ICl \rightarrow I_2 + 2Cl^-$ $E^\circ = +1{,}06$ V ($E \leq 0{,}6$ V da) $-2e + SO_3^{2-} + H_2O \rightarrow SO_4^{2-} + 2H^+$ | 1 $+2e + ICl \rightarrow I^- + Cl^-$ | 1 $SO_3^{2-} + H_2O + ICl \rightarrow SO_4^{2-} + 2H^+ + Cl^- + I^-$ $ICl + 2I^- \rightarrow [I_3]^- + Cl^-$

9-jadval

BROMATOMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart erit-malar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
0,1M $KBrO_3$ eritmasi	Kislota-asosli in-dikatorlar (metil qizil, metiloranj).	Standart modda As_2O_3. Standart eritma $Na_2S_2O_3$	Quyidagilar aniq-lanadi: a) bevosita oksid-lash yo'li bilan $N_2H_4 \cdot H_2SO_4$, Sb^{III}, Sn^{2+}, As^{III}, As_2O_3 kabi qaytaruvchi-lar; b) bromlash yo'li bilan fenol, rezor-sin (teskari titr-lash), salitsil kis-lota; c) aromatik amin-lar, masalan strep-totsid	Kislotali muhit	a) $+6e + BrO_3^- + H^+ \rightarrow Br^- + 3H_2O$ 2 $E^\circ = 1,45$ V $-4e + AsO_3^- + H_2O \rightarrow AsO_4^{3-} + 2H^+$ 1 $E^\circ = 0,56$ V $BrO_3^- + 3AsO_3^{3-} \rightarrow Br^- + 3AsO_4^{2-}$ b) $-2e + 2Br^- \rightarrow Br_2$ 5 $E^\circ = 1,087$ V $+10e + 2BrO_3^- + 12H^+ \rightarrow Br_2 + 3H_2O$ 1 $E^\circ = 1,52$ V $BrO_3^- + 5Br^- + 6H^+ \rightarrow 3Br_2 + 3H_2O$  bunda R = –OH; –NH_2

10-jadval

NITRITOMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
0,1M; 0,05M $NaNO_2$ eritmasi	1. Tashqi: yodkraxmalli qog'oz 2. Ichki: difenilamin, tropeolin-00, neytral qizil va uning metilen ko'k bilan aralashmasi	*p*-Aminobenzoy kislota, sulfanil kislota, gidrazin sulfat. Standart eritmalar: $KMnO_4$ (teskari titrlash), gidrazin sulfat	Quyidagilar aniqlanadi: a) oksidlovchilar: $KMnO_4$, Ce^{IV}, Cl_2, H_2O_2; b) qaytaruvchilar: sulfanil kislota, gidrazin sulfat, Sn^{2+}, Fe^{2+}, As_2O_3; c) birlamchi va ikkilamchi aminlar (streptotsid, norsulfazol, sulfatsil va boshqalar)	1. Kislotali muhit (HCl ning mo'l miqdori). 2. "Sovuqda" yoki $t = 20$-$25°C$ da. 3. Sekin titrlanadi, ayniqsa titrlash oxirida. 4. Katalizator sifatida KBr qo'shiladi.	a) Oksidlanish: $-2e + HNO_2 + H_2O \rightarrow NO_3^- + 3H^+$ $E° = 0{,}94$ V. b) Qaytarilish: $+6e + 2HNO_2 + 6H^+ \rightleftarrows N_2\uparrow + 4H_2O$ $E° = 1{,}44$ V. c) Diazotirlash: $R{-}NH_2 + NaNO_2 + 2HCl \rightleftarrows$ $\rightleftarrows [R{-}N^+{\equiv}N]Cl^- + NaCl + 2H_2O$ d) Nitrozirlash: $R{-}NH{-}R' + NaNO_2 + HCl \rightarrow$ $\rightarrow R{-}N(NO)R' + NaCl + H_2O$

11-jadval

XROMATOMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
0,1M, 0,05M K_2CrO_4 eritmasi	1. Redoks indikatorlar: difenilamin, *o*-sulfokislota, difenilantranil kislota. 2. Indikatorsiz (Cr^{3+} – yashil rang; $Cr_2O_7^{2-}$ – sariq). 3. Tashqi indikator – yodkraxmal qog'oz	Standart modda: $(NH_4)_2Fe(SO_4)_2 \times$ $\times 6H_2O$. Standart eritma: $Na_2S_2O_3$ (yodometrik metod bilan standartlashtiriladi)	Quyidagilar aniqlanadi: 1) teskari titrlash bilan – SO_3^{2-}, I^-, Fe^{2+}, Sn^{2+}, AsO_3^{3-}, $[Fe(CN)_6]^{4-}$, metanol, askorbin kislota; 2) kam eruvchan xromatlar (Ba^{2+}, Pb^{2+}, Ag^+); 3) Fe^{2+} tuzlari ta'sirida qaytarilgan oksidlovchilar	Titrlash kislotali muhitda o'tkaziladi (HCl, H_2SO_4, H_3PO_4)	$E^0(Cr_2O_7^{2-}/Cr^{3+}) = +1{,}33$ V 1) $-e + Fe^{2+} \rightarrow Fe^{3+}$ | 6 $+6e + Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ \rightarrow 2Cr^{3+} + 7H_2O$ | 1 $6Fe^{2+} + Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ \rightarrow 6Fe^{3+} + 2Cr^{3+} + 7H_2O$ 2) $Ba^{2+} + CrO_4^{2-} \rightarrow BaCrO_4\downarrow$ $2BaCrO_4\downarrow + 4H^+ \rightarrow 2Ba^{2+} + Cr_2O_7^{2-} + 2H_2O$ $Cr_2O_7^{2-}$ ionlari Fe^{2+} bilan titrlanadi 3) $3Fe^{2+} + NO_3^- + 4H^+ \rightarrow 3Fe^{3+} + NO\uparrow + 2H_2O$ $6Fe^{2+} + Cr_2O_7^{2-} + 14H^+ \rightarrow 6Fe^{3+} + 2Cr^{3+} + 7H_2O$

12-*jadval*

SERIMETRIK TITRLASH

Titrant	Indikatorlar	Standart moddalar va standart eritmalar	Metodning imkoniyatlari	Titrlash shartlari	Reaksiya tenglamalari
0,1M, 0,01M $Ce(SO_4)_2 \times$ $\times 4H_2O$, eritmasi	1. Redoks indikatorlar: ferroin, *o*-fenantrolin, difenilamin. 2. Indikatorsiz – Ce^{4+} eritmalari sariq rangga ega. 3. pH-indikatorlar (metiloranj, metil qizil) – qaytmas oksidlanish	$Na_2C_2O_4$, $(NH_4)_2C_2O_4$. Titrant yodometrik metod bilan standartlashtiriladi	As^{III}, Fe^{2+}, Sb^{III}, Sn^{2+}, $[Fe(CN)_6]^{4-}$, H_2O_2, $C_2O_4^{2-}$, NO_2^-, organik birikmalar: fenollar, aminlar, aminokislotalar, organik kislotalar, uglevodlar aniqlanadi	Titrlash kislotali muhitda o'tkaziladi ($HClO_4$)	$Ce^{4+} + e \rightleftharpoons Ce^{3+}$ $HClO_4$ muhitida $E° = +1{,}70$ V. Seriy kompleks tuzlari redoks juftlarining oksidlanish-qaytarilish potensiallari anionlar tabiatiga bog'liq: $E°[Ce(SO_4)_3]^{2-}/Ce^{3+} = 1{,}44$ V, $E°[Ce(SO_4)_6]^{2-}/Ce^{3+} = 1{,}61$ V, $E°[CeCl_6]^{2-}/Ce^{3+} = 1{,}28$ V. Masalan: $-2e + H_2C_2O_4 \rightarrow 2CO_2\uparrow + 2H^+ \quad \vert 1$ $+e + Ce^{4+} \rightarrow Ce^{3+} \quad \vert 2$ $H_2C_2O_4 + 2Ce^{4+} \rightarrow 2CO_2\uparrow + 2Ce^{3+} + 2H^+$

TITRIMETRIK ANALIZDA HISOBLASH FORMULALARI

Ayrim tortimlar usuli

1. Ekvivalent molyar massa bo'yicha:

- titrantlarni standartlash uchun qo'llaniladigan kimyoviy toza moddalar tortimining massasi quyidagi formula boyicha hisoblanadi:

$$m = \frac{C_M \cdot V \cdot E_M}{1000},$$

bunda, V – titrlangan eritma hajmi, taxminan 20 sm^3.

- tekshiriladigan modda tortimining massasi (m_t) quyidagi formula bo'yicha hisob-lanadi:

$$m_t = \frac{C_M \cdot V \cdot E_M \cdot 100}{1000 \cdot \omega},$$

bunda, V – titrlangan eritma hajmi, taxminan 20 sm^3; ω – namunadagi aniqlanuvchi moddaning massa ulushi.

- titrantning molyar konsentratsiyasi (C_M) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$C_M = \frac{m \cdot 1000}{E_M \cdot V},$$

bunda, V – tortimni titrlashga sarf bo'lgan titrlangan eritmaning hajmi, sm^3.

- namunadagi aniqlanuvchi moddaning massa ulushi (ω) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\omega,\% = \frac{C_M \cdot V_1 \cdot E_M \cdot 100}{1000 \cdot m_t} \text{ (to'g'ri va bilvosita titrlash),}$$

$$\omega,\% = \frac{(C_{M_1} \cdot V_1 - C_{M_2} \cdot V_2) \cdot E_M \cdot 100}{1000 \cdot m_t} \text{ (teskari titrlash),}$$

bunda, C_{M_1} va C_{M_2} – tegishlicha 1- va 2-titrantning molyar konsentratsiyalari mol/dm^3; V_1 va V_2 – tegishlicha 1 va 2-titrant eritmalarning hajmlari, sm^3.

2. Titrantning aniqlanuvchi modda titri bo'yicha:

- tekshiriladigan eritmadagi aniqlanuvchi moddaning massa ulushi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\omega,\% = \frac{T_{(T/a)} \cdot K \cdot V \cdot 100}{m_t}$$ (to‘g‘ri va bilvosita titrlash),

$$\omega,\% = \frac{T_{1(T/a)} \cdot (K_1 \cdot V_1 - K_2 \cdot V_2) \cdot 100}{m_t}$$ (teskari titrlash),

bunda, $T_{(T/a)}$ – titrantning aniqlanuvchi modda bo‘yicha titri, g/sm^3; $T_{1(T/a)}$ – aniqlanadigan modda bilan bevosita ta’sir etadigan titrantning aniqlanuvchi modda bo‘yicha titri, g/sm^3; K, K_1, K_2 – tuzatish koeffitsiyentlari:

$$K = \frac{C_{M(\text{amal.})}}{C_{M(\text{nazar.})}} = \frac{V_{(\text{amal.})}}{V_{(\text{nazar.})}}.$$

Pipetkalash usuli

1. Ekvivalent molyar massa boyicha:

- titrantlarni standartlash uchun qo‘llaniladigan kimyoviy modda tortimining massasi quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$m = \frac{C_M \cdot V \cdot E_M \cdot V_{(k)}}{1000 \cdot V_p},$$

bunda, V – titrlangan eritma hajmi, taxminan 20 sm^3; V_k – modda tortimi eritilgan kolba hajmi, sm^3; V_p – eritmaning alikvot qismini o‘lchab olishga qo‘llaniladigan pipetka hajmi, sm^3.

- aniqlanadigan modda tortimining massasi (m_t) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$m_t = \frac{C_M \cdot V \cdot E_M \cdot V_k \cdot 100}{1000 \cdot V_p \cdot \omega},$$

bunda, V – titrlangan eritma hajmi, taxminan 20 sm^3; V_k – modda tortimi eritilgan kolbaning hajmi, sm^3; V_p – eritmaning alikvot qismini o‘lchab olishga qo‘llaniladigan pipetka hajmi, sm^3.

- titrantning molyar konsentartsiyasi (C_M) quyidagi formula bo‘yicha aniqlanadi:

$$C_M = \frac{m_t \cdot V_p \cdot 1000}{E_M \cdot V_k \cdot V},$$

bunda, V – standart moddaning alikvot qismiga sarflanadigan titrlangan eritmaning hajmi, sm^3; V_k – modda tortimi eritilgan kolbaning hajmi, sm^3; V_p – eritmaning alikvot qismini o'lchab olishga qo'llaniladigan pipetka hajmi, sm^3.

- tekshiriladigan namunadagi aniqlanuvchi moddaning massa ulushi (ω) quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\omega,\% = \frac{C_M \cdot V \cdot E_M \cdot V_k \cdot 100}{1000 \cdot m_t \cdot V_t} \text{ (to'g'ri va bilvosita titrlash),}$$

bunda, V – titrlashga sarflangan titrlangan eritmaning hajmi, sm^3.

$$\omega,\% = \frac{(C_{M_1} \cdot V_1 - C_{M_2} \cdot V_2) \cdot E_M \cdot V_k \cdot 100}{1000 \cdot m_t \cdot V_t} \text{ (teskari titrlash),}$$

bunda, V_1 – ortiqcha qo'shilgan titrlangan 1-eritmaning hajmi, sm^3; V_2 – titrlashga sarflangan titrlangan 2-eritmaning hajmi, sm^3.

2. Titrantning aniqlanuvchi modda titri bo'yicha:

$$\omega,\% = \frac{T_{(T/a)} \cdot K \cdot V \cdot V_k \cdot 100}{m_t \cdot V_p} \text{ (to'g'ri va bilvosita titrlash),}$$

$$\omega,\% = \frac{T_{(T/a)} \cdot (K_1 \cdot V_1 - K_2 \cdot V_2) \cdot V_k \cdot 100}{m_t \cdot V_p} \text{ (teskari titrlash).}$$

Konsentratsiyasi aniq bo'lgan titrlangan eritma bo'yicha titrantning molyarligi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$C_M = \frac{C_{M_0} \cdot V_0}{V},$$

bunda, C_{M_0} – konsentratsiyasi aniq bo'lgan eritma konsentartsiyasi, mol/dm^3; V_0 – konsentratsiyasi aniq bo'lgan eritma hajmi, sm^3; V – konsentratsiyasi aniqlanadigan eritma hajmi, sm^3

"NATIJALARNI STATISTIK QAYTA ISHLASH" MAVZUSI BO'YICHA MASALALAR YECHISH NAMUNALARI

Asosiy statistik xarakteristikalar

Har qanday analiz qanchalik e'tibor bilan bajarilmasin,. olingan natija, odatda, aniqlanayotgan moddaning haqiqiy miqdoridan bir oz farq qiladi, ya'ni ba'zi xatoliklarga ega bo'ladi. Analiz xatolari o'z tabiatiga ko'ra, sistematik, tasodifiy va qo'pol xatolarga bo'linadi.

Sistematik xato deb, kattaligi doimiy bo'lgan yoki aniq qonun bo'yicha o'zgaradigan xatolarga aytiladi. Sistematik xatoni, odatda, oldindan nazarda tutish yoki tegishli tuzatishlar kiritish bilan ularni yo'qotish mumkin. Sistematik xatolar o'z navbatida usulik, operativ, instrumental va individual xatolarga bo'linadi.

Aniq bir qonuniyatga asoslanmaydigan, kattaligi va ishorasi no'malum bo'lgan xatolar *tasodifiy xato* deb ataladi. Bu xatolarni minimal qiymatga keltirish uchun ularni matematik statistika usuli yordamida ishlab chiqish kerak.

Qo'pol xatolar jumlasiga, masalan: tarozi bilan ishlashda tarozi toshlarini va tarozi shkalasining ko'rsatishini noto'g'ri hisoblash, titrlash vaqtida byuretka shkalasi bo'yicha noto'g'ri hisoblash, analiz vaqtida eritma yoki cho'kmaning bir qismini to'kib yuborish va shunga o'xshashlar kiradi.

Analiz paytida qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yilishi analiz natijalarini noto'g'ri bo'lib chiqishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bir necha parallel analizlar olib borilib ularning o'rtachasi olinadi.

Analiz natijalarining to'g'riligi va aniqligini baholashda sistematik va tasodifiy xatolarni hisobga olish katta ahamiyatga ega. Sistematik xatolar analiz natijasining to'g'ri ekanligini ko'rsatadi. Sistematik xatolarning qiymati qancha kichik bo'lsa, natija shuncha to'g'ri bo'ladi. Analiz vaqtida yo'l qo'yilgan tasodifiy xatolar miqdori analiz natijalarining aniqligini ifodalaydi.

Analizda yo'l qo'yiladigan sistematik xatolarni turlicha ifodalash mimkin. Ifodalash usuliga qarab ular ikkiga, ya'ni absolyut va nisbiy xatolarga bo'linadi.

Aniqlanayotgan kattalikning haqiqiy (yoki eng ishonchli) miqdori bilan olingan natija o'rtasidagi farqqa *absolyut xato* deyiladi. Agar aniqlanadigan kattalikning qiymati noma'lum bo'lsa, u holda absolyut xato, nisbatan ishonchli kattalik bo'lgan bir necha aniqlashlar o'rtacha arifmetik qiymatidan olinadi.

O'lchashning *nisbiy xatosi* absolyut xatoning aniqlanadigan kattalikning haqiqiy qiymatiga yoki bir necha o'lchashlar o'rtacha arifmetik qiymatiga nisbati orqali aniqlanadi.

Tasodifiy kattaliklarning o'rtacha qiymati – bir xil aniqlikda o'tkazilgan o'lchash natijalaridan olingan ortacha arifmetik qiymat. Agar x_1, x_2, ..., x_n lar a kattalikni n marta o'lchash natijalari bo'lsa, unda

$$\bar{x} = \frac{x_1 + x_2 + ... + x_n}{n} = \frac{1}{n}\sum_{i=1}^{n} xi$$

Normal taqsimlanish qonuniga asoslanib, o'rtacha arifmetik qiymat aniqlanadigan kattalikning qiymatiga juda yaqin ekanligini ko'rsatish mumkin, ya'ni $\bar{x} \cong a$.

Dispersiya tasodifiy kattaliklarning o'rtacha qiymatiga nisbatan tarqalishidir. n marta aniqlangan x_1, x_2, ..., x_n tasodifiy qiymatlar uchun tanlangan dispersiya quyidagiga teng bo'ladi:

$$S^2 = \frac{\sum_{i=1}^{n}(x_i - \bar{x})^2}{n-1}$$

O'lchash aniqligi qancha kichik bo'lsa, dispersiya shuncha katta bo'ladi. Dispersiyadan olingan kvadrat ildizning musbat qiymatiga aniqlashning *o'rtacha kvadratik xatosi* deyiladi va u tajriba natijalariga asoslanib hisoblanadi:

$$S = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^{n}(xi - \bar{x})^2}{n-1}}$$

Agar o'rtacha kvadratik xato alohida o'lchash uchun emas, balki alohida o'lchashning o'rtacha kvadratik xatosidan $\sqrt{n}$ marta kichik bo'lgan n marta o'lchash uchun hisobga olinsa, yanada aniqroq natijalar olish mumkin, ya'ni:

$$S_{\bar{x}} = \frac{S}{\sqrt{n}} = \sqrt{\frac{\sum_{i=1}^{n}(xi - \bar{x})^2}{n(n-1)}}$$

Yuqorida yozilgan tenglamalardagi $n-1$ kattalik *erkinlik darajasi* (f) deb ataladi.

Analizning ishonchlilik chegarasini hisoblash

Analiz natijalari o'rtacha qiymat $\bar{x}$ ning ishonchlilik chegarasi bilan xarakterlanadi va quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\Delta\bar{x} = t(P, f) \cdot S\bar{x},$$

bunda, $t(P, f)$ – Styudent koeffitsiyenti (1-*jadval*).

Ishonchlilik chegarasi sistematik xatolar mavjud bo'lmaganda analizning haqiqiy qiymatini saqlagan sohani cheklaydi:

$$(\bar{x} - \Delta\bar{x}) \leq a \leq (\bar{x} + \Delta\bar{x}).$$

O'rtacha natijaning nisbiy xatosi A(%) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$A = \frac{\Delta\bar{x}}{x} \cdot 100\%.$$

Aniqlashlar ko'p marta qayta takrorlansa, uning natijasi asossiz u yoki bu tomonga chetlashadi. Bunda qo'pol xato yuzaga keladimi degan savol tug'iladi. Ko'p sonli aniqlashlardagi qo'pol xatoni ikki chetki qiymatlar orasidagi farqdan topish mumkin (x_i, $x_{max} - x_{min}$). Buning uchun quyidagi bog'liqlik tuziladi:

$$Q = \frac{x_1 - x_2}{R}$$

bunda x_1 – shubhali ko'ringan qiymat, $x_2 - x_1$ bilan qo'shni qiymat, R – birinchi va oxirgi natijalar farqi.

Hisoblab topilgan Q kattalik uning jadval qiymatlari Q (p, n) bilan taqqoslanadi. Agar $Q > Q$ (p, n) bo'lsa, unda qo'pol xato mavjudligi isbotlanadi (2–jadval).

1-jadval

STYUDENT KRITERIYSINING SON QIYMATLARI, $t(P, f)$

O'lchovlar soni	Erkinlik darajasi ($f = n - 1$)	P(%)		
		0,10(90)	0,05(95)	0,01(99)
1	1	6,314	12,706	63,657
2	2	2,920	4,303	9,925
3	3	2,353	3,182	5,841
4	4	2,132	2,776	4,604
5	5	2,015	2,571	4,032
6	6	1,943	2,447	3,707
7	7	1,895	2,365	3,499
8	8	1,860	2,306	3,355
9	9	1,833	2,262	3,250
10	10	1,812	2,228	3,169

2-*jadval*

NAZORAT KRITERIYSINING SON QIYMATLARI, $Q(P, n)$

n	Q		
	$P = 0{,}90$	$P = 0{,}95$	$P = 0{,}99$
3	0,89	0,94	0,99
4	0,68	0,77	0,83
5	0,56	0,64	0,76
6	0,48	0,55	0,70
7	0,43	0,51	0,64
8	0,40	0,48	0,58

Analizning ikki usulini dispersiyalar (S_1^2 va S_2^2) bilan taqqoslash uchun Fisher (F) kriteriysi hisoblanadi, u S_1^2 va S_2^2 farqlarining haqiqiyligini xarakterlaydi:

$$F = \frac{S_1^1}{S_2^2}.$$

Hisoblab topilgan F ning qiymati jadval qiymatlari $F(P, f_1, f_2)$ bilan $P = 99\%$ da taqqoslanadi. Agar $F > F_{jadval}$ bo'lsa, S_1^2 va S_2^2 dispersiyalarning farqi 99% ehtimoliga yaqin, agar $S_1^2 < S_2^2$ bo'lsa, unda ikkinchi usul yuqoriroq aniqlikka ega.

3-jadval

FISHER KRITERIYSINING SON QIYMATLARI $F(P, f_1, f_2)$ ($P = 99\%$ da)

f_2	f_1										
	1	**2**	**3**	**4**	**5**	**6**	**8**	**10**	**12**	**16**	**20**
1	4052	4999	5403	5625	5764	5859	5981	6056	6106	6169	6208
2	98,49	99,00	99,17	99,25	99,30	99,33	99,36	99,40	99,42	99,44	99,45
3	34,12	30,81	29,46	28,71	28,24	27,91	27,49	27,23	27,05	26,83	26,65
4	21,20	18,00	16,69	15,98	15,52	15,21	14,80	14,54	14,37	14,15	14,02
5	16,26	13,27	12,06	11,39	10,97	10,77	10,27	10,05	9,89	9,68	9,55
6	13,74	10,92	9,78	9,15	8,75	8,47	8,10	7,87	7,72	7,52	7,39
7	12,25	9,55	8,45	7,85	7,46	7,19	6,84	6,62	6,47	6,27	6,15
8	11,26	8,65	7,59	7,01	6,63	6,37	6,03	5,82	5,67	5,48	5,36

9	10,56	8,02	6,99	6,42	6,06	5,80	5,47	5,26	5,11	4,92	4,80
10	10,04	7,56	6,55	5,99	5,64	5,39	5,06	4,85	4,71	4,52	4,41
11	9,65	7,20	6,22	5,67	5,32	5,07	4,74	4,54	4,40	4,21	4,10
12	9,33	6,93	5,95	5,41	5,06	4,82	4,50	4,30	4,16	3,98	3,86
13	9,07	7,70	5,74	5,20	4,86	4,62	4,30	4,10	3,96	3,78	3,67
14	8,86	6,51	5,56	5,03	4,60	4,46	4,14	3,94	3,80	3,62	3,51
15	8,68	6,36	5,42	4,89	4,56	4,32	4,00	3,80	3,67	3,48	3,36
16	8,53	6,23	5,29	4,77	4,44	4,20	3,89	3,69	3,55	3,37	3,25
17	8,40	6,11	5,18	4,67	4,34	4,10	3,79	3,59	3,45	3,27	3,16
18	8,28	6,01	5,09	4,58	4,25	4,01	3,71	3,51	3,37	3,19	3,07
19	8,18	5,93	5,01	4,50	4,17	3,94	3,63	3,43	3,30	3,12	3,00
20	8,10	5,85	4,94	4,43	4,10	3,87	3,56	3,37	3,23	3,05	2,94
25	7,77	5,57	4,48	4,18	3,86	3,63	3,32	3,13	2,99	2,81	2,70
30	7,56	5,39	4,51	4,02	3,70	3,47	3,17	2,93	2,84	2,66	2,55
40	7,31	5,18	4,31	3,83	3,51	3,29	2,99	2,80	2,66	2,49	2,37
60	7,08	4,98	4,13	3,65	3,34	3,12	2,82	2,63	2,50	2,32	2,20

1-masala. Beshta po'lat namunalaridagi turli xil tarkibli marganesning o'rtacha aniqlik xatosini hisoblang. Analizning natijasi, %Mn

1. 0,31; 0,30; 0,29; 0,32;
2. 0,52; 0,57; 0,58; 0,57;
3. 0,71; 0,69; 0,71; 0,71;
4. 0,92; 0,92; 0,95; 0,95;
5. 1,18;1,17; 1;21; 1,19.

Yechish. Quyidagi formula asosida namunadagi o'rtacha qiymatni aniqlaymiz:

$$\bar{x} = \frac{\bar{o}_1 + \bar{o}_2 + \bar{o}_3 + \ldots + \bar{o}_n}{n} = \frac{\sum x_i}{n},$$

1. $\bar{x} = \dfrac{0,31 + 0,30 + 0,29 + 0,32}{4} = 0,305.$

2. $\bar{x} = \dfrac{0,51 + 0,57 + 0,58 + 0,57}{4} = 0,578.$

3. $\bar{x} = \dfrac{0,71 + 0,69 + 0,71 + 0,71}{4} = 0,705.$

4. $\bar{x} = \dfrac{0,92 + 0,92 + 0,95 + 0,95}{4} = 0,935.$

5. $\bar{x} = \frac{1,18 + 1,17 + 1,21 + 1,19}{4} = 1,19.$

Har bir namuna uchun kvadratlar farqini, so'ng esa

$$S = \sqrt{\frac{\sum_{1}^{m}\sum_{1}^{n}(x_{ji} - x_j)^2}{n - m}}$$

formuladan xatolikni hisoblaymiz.

Kvadratlar farqining qiymatlari:

1) $0,005^2 + 0,005^2 + 0,015^2 + 0,015^2 = 0,500 \cdot 10^{-3}$.
2) $0,012^2 + 0,008^2 + 0,002^2 + 0,008^2 = 0,276 \cdot 10^{-3}$.
3) $0,005^2 + 0,015^2 + 0,005^2 + 0,005^2 = 0,300 \cdot 10^{-3}$.
4) $0,015^2 + 0,015^2 + 0,015^2 + 0,015^2 = 0,900 \cdot 10^{-3}$.
5) $0,01^2 + 0,02^2 + 0,02^2 + 0,0^2 = 0,90 \cdot 10^{-3}$.

$f = 4 \cdot 5 - 5 = 15$ uchun o'rtacha xatolikni hisoblaymiz:

$$S = \sqrt{\frac{10^{-3}(0,500 + 0,276 + 0,300 + 0,900 + 0,900)}{15}};$$

$$S = 0,014\%.$$

2-masala. Kulrang cho'yandagi grafit aniqlanganida quyidagi tartibda bo'lgan kattaliklar qiymatlari olindi (% grafit): 2,86; 2,89; 2,90; 2,91; 2,99. Oxirgi natijani qo'pol xato deb hisoblash mumkinmi?

Yechish. $Q = \frac{x_1 - x_2}{R}$ formuladan quyidagi munosabat tuziladi:

$$Q = \frac{2,99 - 2,91}{2,99 - 2,86} = 0,62.$$

Jadvaldan $Q\,(P = 0,95;\ n = 5) = 0,64$ ekanligini topamiz. $Q < Q\,(P;\ n)$ ni hisobga olsak, oxirgi qiymat 2,99 qo'pol xato emasligini ko'ramiz, hamda uni boshqa natija qiymatlari bilan birgalikda hisobga olish kerak.

ANALIZNING OPTIK USULLARI

1-sxema

OPTIK ANALIZ USULLARINING KLASSIFIKATSIYASI

Absorbsion usullar
Modda tomonidan yorug'lik nurining yutilishini o'lchashga asoslangan
- Kolorimetriya
- Fotokolorimetriya
- Spektrofotometriya

Emmision usullar
Modda tomonidan tarqatilgan nurning intensivligini o'lchashga asoslangan
- Emmision spektral analiz
- Alanga fotometriyasi

Nurning eritma (suspenziya, emulsiya)dagi muallaq zarrachalar bilan ta'siridan keyin uning intensivligini o'lchashga asoslangan usullar
- Fluorimetriya
- Turbidimetriya
- Nefelometriya

Yorug'lik nuri ta'siri ostida molekulalarning qutblanishiga asoslangan usullar
- Refraktometriya
- Polyarimetriya

2-sxema

MOLEKULYAR-ABSORBSION ANALIZ USULLARI

Analiz spektrning ko'rinish, UB-, IQ-sohasida molekula yoki ionlar tomonidan elektromagnit nurlarning yutilishini o'lchashga asoslangan

Kolorimetriya	Fotoelektrokolorimetriya	Spektrning ko'rinish, UB- va IQ-sohalaridagi spektroskopiya
Bu metod turli konsentratsiyali eritmalar rangining intensivligini taqqoslashga asoslangan. Yorug'lik monoxromatik emas. Yorug'likning yutilish qonuniga bo'ysinmaydi. Spektr sohasi: 400-700 nm. O'lchash aniqligi ±5-10%. Analiz uchun kolorimetrik probirkalar ishlatiladi.	Bu metod spektrning ko'rinish sohasida aniqlanuvchi moddaning monoxromatik bo'lmagan yoki qisman monoxromatik nurlarni yutish darajasini o'lchashga asoslangan. Yorug'likning yutilish qonuniga bo'ysinadi. Spektr sohasi: 300-700 nm. Asbob – fotoelektrokolorimetr. O'lchash aniqligi ±3%.	Bu metodlar modda tomonidan spektrning ko'rinish (360-760 nm), UB- (180-360 nm) va IQ- (760-1100 nm) sohalarida monoxromatik nurlarning yutilishini o'lchashga asoslangan.

Spektr sohasi – 180-760 nm. Asbob – UB-spektrofotometr O'lchash aniqligi ±2%.	Spektr sohasi – 760-1100 nm. Asbob – IQ-spektrofotometr O'lchash aniqligi ±2%.

1-jadval

IQ- VA UB-SPEKTROSKOPIYANING ANALIZDA QO'LLANILISHI

IQ-spektroskopiya	UB-spektroskopiya
Sifat analizi	
Bu metod yordamida: – tegishli xarakteristik chastotalardagi (600-1500 sm^{-1}) o'ziga xos maksimumlar bo'yicha; – aniqlanuvchi modda spektri bilan standart-modda spektrining taqqoslanishi bo'yicha moddalar identifikatsiyalanadi. Har bir atomlar guruhi uchun xarakterli bo'lgan (3-jadval) yutilish (spektrdagi maksimum) bo'yicha organik va anorganik birikmalarning strukturasi aniqlanadi.	Bu metod yordamida: – organik birikmalarning srukturasi aniqlanadi (ayrim kimyoviy bog'lar uchun xarakterli bo'lgan yutilish maksimumlari yoki minimumlarining to'lqin uzunliklari bo'yicha hamda yutilish intensivligi bo'yicha); – molekulalararo ta'sir, zaryad ko'chishi bilan komplekslar (π-komplekslar) hosil bo'lish mexanizmlari o'rganiladi; – ma'lum konsentratsiyali eritmalarning maksimum nuqtasidagi ε kattalik va yutilish chiziqlarining to'lqin kattaliklari bo'yicha moddalar identifikatsiyalanadi; – organik birikmalardagi elektronlarning energetik pog'onalari tavsiflanadi
Miqdoriy analiz	
Analiz asosida Buger-Lambert-Ber qonuni yotadi, biroq bu qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki l kattalik juda kichik (o'lchashlar tor kyuvetada o'tkaziladi). 1) darajalangan grafik usuli; 2) qo'shish usuli.	Analiz asosida Buger-Lambert-Ber qonuni yotadi. Moddalar konsentratsiyasi 2-jadvalda keltirilgan metodlarning biri bilan aniqlanadi. Analizni yutuvchi moddalar aralashmasi uchun ham o'tkazish mumkin.

2-jadval

KOLORIMETRIYA VA FOTOKOLORIMETRIYA METODLARINING TAVSIFLARI

Kolorimetriya	Fotokolorimetriya
Bu metod rangli eritmalarning konsentratsiyalarini taxminiy baholashda qo'llaniladi. Agar eritma rangsiz bo'lsa, rangli birikma hosil bo'lishi bilan boradigan fotometrik reaksiya o'tkaziladi. Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi talab etilmaydi. Miqdoriy aniqlashlar quyidagi metodlar bilan o'tkaziladi: **1. Taqqoslash metodi:** tekshiriladigan va standart eritmalar qatlamining qalinligini o'zgartirib, ularning rang intensivligi tenglashtiriladi. Tekshiriladigan eritmaning konsentratsiyasi (C_x) quyidagi formula bo'yicha topiladi: $C_x = \frac{C_{st} \cdot l_{st}}{l_x}$ bunda C_{st} – standart eritma konsentratsiyasi; l_{st}, l_x – tegishlicha standart va tekshiriladigan eritmalar qatlamining qalinligi. **2. Standart seriyalar metodi:** aniqlanadigan moddani saqlagan ma'lum konsentratsiyali standart eritmalar seriyasi tayyorlanadi va ranglar intensivligi analiz qilinadigan eritmaning rang intensivligi bilan taqqoslanadi. Analiz qilinadigan eritmaning konsentratsiyasi rang intensivligi bilan bir xil bo'lgan standart eritmaning konsentratsiyasiga teng bo'ladi. **3. Kolorimetrik titrlash:** fotometrik reagent tekshiriladigan eritmaga va suvga teng sharoitlarda qo'shiladi. So'ng byuretkadan suvga aniqlanayotgan moddaning standart eritmasi qo'shiladi. Bir vaqtning o'zida suyuqliklar hajmlarini tenglashtirish uchun aniqlanayotgan eritmaga suv qo'shiladi va ikki eritmaning ranglari tenglashtiriladi.	Bu metod eritmalarning optik zichligi (A) yoki o'tkazishini (T) o'lchash yoli bilan rangli eritmalarning konsentratsiyasini aniqlashda qo'llaniladi. Buger-Lambert-Ber qonuniga bo'ysinishi shart. $A = \lg\frac{I_0}{I}; \quad I = I_0 \cdot 10^{-\varepsilon C l}; \quad A = \varepsilon \cdot C \cdot l;$ $T = \frac{I}{I_0}; \quad A = \lg\frac{1}{T}; \quad \varepsilon^{\lambda} = \frac{A^{\lambda}}{C \cdot l}; \quad E^{1\%}_{1sm} = \frac{A^{\lambda}}{C \cdot l}.$ bunda ε – yorug'lik yutilishining molyar koeffitsiyenti, qatlam qalinligi $l = 1$ sm va konsentratsiyasi $C = 1$ mol/l bo'lgan eritmaning optik zichligiga (A) teng; $E^{1\%}_{1sm}$ – yorug'lik yutilishining solishtirma koeffitsiyenti, qatlam qalinligi 1 sm va konsentratsiyasi $C = 1\%$ bo'lgan eritmaning optik zichligiga (A) teng. $\varepsilon = E^{1\%}_{1sm} \cdot \frac{M}{10}$, bunda M – moddaning molekulyar massasi. Konsentratsiya quyidagi metodlar bilan aniqlanadi: 1. Darajalangan grafik metodi. 2. ε koeffitsiyentlarning o'rtacha qiymatlari bo'yicha. 3. Qo'shimchalar metodi. 4. Differensial fotometriya metodi. 5. Ekstraksion-fotometrik metod.

3-sxema

TEBRANMA IQ-SPEKTRLARNING KLASSIFIKATSIYASI

Normal tebranishlar
(faqat elektron dipol momentlari o'zgaradigan molekulalarda kuzatiladi, barcha atomlarning yadrolari bir xil chastota va faza bilan tebranadi)

Valent tebranishlar ν
(molekula qo'zg'alganda bog'lar orasidagi burchak o'zgarmaydi, lekin bog' uzunligi o'zgaradi)

Deformatsion tebranishlar σ
(molekula qo'zg'alganda bog'lar orasidagi burchak o'zgaradi)

Simmetrik $\nu_{(S)}$



$\nu^S H_2O$

Assimetrik $\nu_{(aS)}$



$\nu^{aS} H_2O$



σH_2O

SPEKTROSKOPIYA USULLARIDAGI ASOSIY TERMIN VA TUSHUNCHALAR

Yutilish spektri – yutilish (*A* yoki ε) yoki o'tkazish (*T*) intensivligining to'lqin uzunligi (λ) yoki to'lqin soni (ν) ga bog'liqlik egri chizig'i.

Spektr xarakteristikasi – maksimumlar (yutilish chiziqlari) soni; ularning to'lqin uzunligi (yoki chastotalar) shkalasidagi o'rni; maksimumlar (intensivlik) balandligi, yutilish chiziqlarining shakli.

Tebranma spektr (IQ-spektroskopiya) – 4000-400 sm^{-1} sohasidagi xarakterli maksimumlar (kimyoviy bog'lardagi atomli tebranishlar keltirib chiqaradi); energiyaning yutilishiga bog'liq.

Xarakteristik chastotalar – muayyan bog'lar va atom guruhlariga mos keladigan to'lqin uzunliklari hamda molekula strukturasi o'zgarganda ular kam o'zgaradi. (2000-4000 sm^{-1} oraliq C – H; O – H; N – H bog'larning valent tebranishlariga mos keladi; 1500-1950 sm^{-1} oraliq C = O; C = C; C = N; N = N bog'larning valent tebranishlariga mos keladi). Moddaning sifat tarkibi va molekula strukturasi haqida ma'lumot beradi.

"Barmoq izlari" sohasi (IQ-spektroskopiya) – (600-1500 sm^{-1}) oraliqda yutilish spektrlaridagi chiziqlar to'plami. Berilgan modda uchun xarakterli maksimumlarni saqlaydi (identifikatsiyalash uchun qo'llaniladi).

Elektron spektr (UB-spektroskopiya) – modda elektron sistemasining qo'zg'alishiga bog'liq. Yorug'lik kvanti (muayyan energiyali nurlar) yutilganda bir energetik holatdan ikkinchisiga o'tishi natijasida elektron qo'zg'algan holatga o'tadi.



O'tish	Birikma
σ → σ*	metan, etan, to'yinmagan uglevo-dorodlar
n → σ*	spirtlar, efirlar, xlororganik birikmalar
π → π*	aromatik birikmalar
n → π*	

Elektron pog'onalarning sxemasi va elektron o'tishlarning energiyasi

Batoxrom siljish – yutilish chizig'ining uzunroq to'lqin sohasiga siljishi.

Gipsoxrom siljish – yutilish chizig'ining qisqaroq to'lqin sohasiga siljishi.

3-jadval

BA'ZI STRUKTUR ELEMENTLAR VA UGLEROD-UGLEROD BOG'LARNING IQ-SOHASIDAGI XARAKTERISTIK TEBRANISH CHASTOTALARI

To'lqin soni, sm^{-1}	Tebranishlar turi va tegishli struktur element	Modda
3700...3600 (tor chiziq) 3500...3300 (keng chiziq)	Valent tebranish, – O – H (erkin, assitsilanmagan guruh) Valent tebranish, – O – H (bog'langan guruh)	Spirtlar, fenollar, kislotalar, oksiketonlar, oksikislota efirlari
3550...3350	Valent, – N – H (assitsilanmagan guruh)	Birlamchi va ikkilamchi aminlar va amidlar
3500...3100	Valent, – N – H (assitsilangan guruh)	
3300...3270	Valent, ≡ C – H	Atsetilenning mono-almashingan hosilalari
3350...3150 (keng chiziq)	Valent, – NH_3	Aminlar va aminokislotalar gidroxloridlari
3300...2500 (juda keng chiziq)	Valent, – O – H (assitsilangan guruh)	Karbon kislotalar, xelatlar
3100...3000	Valent, = C – H	Aromatik uglevodorodlar, olefinlar
3000...2800	Valent, – C – H	Parafinlar, sikloparafinlar
2962, 2872	Valent, – CH_3	Parafinlar
2962, 2853	Valent, – CH_2 –	Parafinlar
2900...2400	Valent, – O – D, – N – D	Spirtlar, aminlar
2820	Valent, – O – CH_3	Oddiy metil efirlar
2820...2730	Valent, N – CH_3	N-metilamin
2820...2720	Valent, OC – H	Aldegidlar

2600...2550	Valent, – S – H	Merkaptanlar, tiofenollar
2300...2100	Valent, – C ≡ X (X = C, N, O)	Atsetilen, nitrillar, uglerod oksidlari
2270...2000	Valent, – Y = C = X (Y = N, C; X = O, S)	Izotsianat va ketonlar
2260...2190	Valent, – C ≡ C –	Atsetilenning 1,2-di-almashingan hosilalari
2260	Valent, – N^{+} ≡ N	Diazoniy tuzlarining hosilalari
2245...2220	Valent, – C ≡ N	Nitrillar
2185...2120	Valent, – N = C –	Izonitrillar
2140...2100	Valent, – C ≡ C –	Monoalmashingan atsetilenlar
1900...1600	Valent, – C = O	Karbonil birikmalar
1850...1740	Valent, – C – O	Karbon kislotalarning galogenangidridlari
1840...1780 1780...1720	Valent, – C = O	Karbon kislotalarning angidridlari (2 ta chiziq)
1780...1750 1760...1700	Valent, – C = O Valent, – C = O	Fenilkarbon kislotalar, karbon kislotalarning vinil efirlari
1750...1730	Valent, – C – O	To'yinmagan karbon kislotalarning alkil efirlari
1730...1710	Valent, – C = O	To'yinmagan aldegidlar va ketonlar, α, β-aromatik karbon kislotalarning efirlari
1745	Valent, – C = O	Siklopentanon
1715	Valent, – C – O	Siklogeksanon
1705	Valent, – C – O	Siklogeptanon
1715...1680	Valent, – C – O	α, β-to'yinmagan va aromatik aldegidlar

1690...1630	Valent, $-C=N$	Azometinlar, oksiranlar
1690...1660	Valent, $-C=O$	α, β-to'yinmagan va aromatik ketonlar
1680...1630	Valent, $-C=O$	Karbon kislotalar birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi amidlari
1660...1600	Valent, $-C=C-$	Aromatik birikmalar, olefinlar
1650...1620	Deformatsion, $-NH_2$	Karbon kislotalarning birlamchi amidlari
1650...1580	Deformatsion, $-N-H$	Birlamchi va ikkilamchi aminlar
1630...1615	Deformatsion, $H-O-H$	Gidratlardagi kristallizatsion suv
1610...1590	Aromatik xalqadagi uglerod-uglerod bog'lar	Aromatik birikmalar
1570...1510	Deformatsion, $-N-H$	Karbon kislotalarning amidlari
1560	Valent, $-NO_2$	Alifatik nitrobirikmalar
1518	Valent, $-NO_2$	Aromatik nitrobirikmalar
1500...1480	Aromatik xalqadagi uglerod-uglerod bog'lar	Aromatik birikmalar
1480...1430	Deformatsion, $-CH_3$, $-CH_2-$	Uglevodorodlar, murakkab efirlar
1420...1340	Deformatsion, $-OH$	Spirtlar, fenollar, kar-bon kislotalar
1390...1370	Deformatsion, $-CH_3$	Uglevodorodlar
1360...1030	Valent, $-C-N<$	Amidlar, aminlar
1350...1240	Valent, $-NO_2$	Alifatik va aromatik nitrobirikmalar
1335...1310 1200...1130	Valent, $-SO_2$	Organik sulfonlar

1290…1050	Valent, – C – O	Oddiy efirlar, spirtlar, laktonlar. ketallar va atsetallar
1250…1200	Valent, – C – O –	Fenollar
1250…1180	Valent, – C – O –	To'yingan karbon kislotalarning efirlari
1200…1150	Valent, – C – O –	Uchlamchi spirtlar
1150…1080	Valent, – C – O –	Ikkilamchi spirtlar
1050…1010	Valent, – C – O –	Birlamchi spirtlar
1070…1030	Valent, – S = O	Sulfoksidlar
970…960	Deformatsion, = C – H	Etilenning 1,2-dialmashingan hosilalar (*trans*-izomerlar)
995…985 915…905	Deformatsion, = C – H	Etilenning monoalmashingan hosilalari
900…860 810…750	Deformatsion, – C – H	Benzolning 1,3-dialmashingan hosilalari
725…680 885…855	Deformatsion, = C – H	Etilenning 1,1-dialmashingan hosilalari
860…800	Deformatsion, – C – H	Benzolning 1,4-dialmashingan hosilalari
780…500	Valent, – C – Hal	Aromatik va alifatik galogen hosilalar
770…735	Deformatsion, = C – H	Benzolning 1,2-dialmashingan hosilalari
770…730	Deformatsion, = C – H	Benzolning monoalmashingan hosilalari
710…690 780…720	Deformatsion, – C – H	To'rttadan ko'proq $-CH_2-$ guruhini saqlagan *n*-parafinlar
705…550	Valent, – C – S	Oltingugurt saqlagan organik birikmalar (merkaptanlar, tio-

		efirlar)
730...680	Deformatsion, – C – H	Etilenning 1,2-dialmashingan hosilalari (*sis*-izomerlar)
670	Deformatsion, – C – H	Benzol

4-jadval

SPEKTRNING TO'LQIN UZUNLIKLARI VA ULARGA TEGISHLI RANGLAR

Yutiladigan yorug'likning to'lqin uzunliklari	Yutiladigan nurning rangi	Qo'shimcha rang (eritmada kuzatiladigan rangi)
400-435	Binafsha	Sarg'ish-yashil
435-480	Ko'k	Sariq
480-490	Yashil-ko'k	Zarg'aldoq
490-500	Ko'kimtir-yashil	Qizil
500-560	Yashil	Qirmizi
560-580	Sarg'ish-yashil	Binafsha
580-595	Sariq	Ko'k
595-605	Zarg'aldoq	Yashil-ko'k
605-730	Qizil	Ko'kimtir-yashil
730-760	Qirmizi	Yashil

5-jadval

To'lqin uzunligi λ			Chastota ν, Ghz	To'lqin soni σ, sm^{-1}
m	mkm	nm		
10^{-7}	0,1	100	$3 \cdot 10^{15}$	10^5
10^{-6}	1	1000	$3 \cdot 10^{14}$	10^4
10^{-5}	10	10000	$3 \cdot 10^{13}$	10^3

5.1-jadval

Bir kattalikdan ikkinchi kattalikka o'tish		
Kattaliklar		Matematik amallar
σ, sm^{-1}	ν, Ghz	σ ni $3\cdot10^{10}$ ga ko'paytirish
λ, mkm	ν, Ghz	$3\cdot10^{14}$ ni λ ga bo'lish
λ, nm	ν, Ghz	$3\cdot10^{17}$ ni λ ga bo'lish
λ, mkm	σ, sm^{-1}	10^{14} ni λ ga bo'lish
ν, Ghz	λ, mkm	$3\cdot10^{14}$ ni ν ga bo'lish
ν, Ghz	σ, sm^{-1}	ν ni $3\cdot10^{10}$ ga bo'lish
σ, sm^{-1}	λ, mkm	10^{4} ni ν ga bo'lish

Izoh: σ – to'lqin soni; ν – tebranish chastotasi; λ – to'lqin uzunligi.

4-sxema

EMISSION ANALIZ METODLARI

Emmision analiz metodlari

Emission spektral analiz

Bu metod yuqori haroratli yorug'lik manbalarida (elektr yoyi, elektr uchqunida) qo'zg'algan atomlar nurlarining to'lqin uzunligi va quvvatini o'lchashga asoslangan.

Alanga fotometriyasi

Metod asosida aniqlanadigan elementlarning gaz alangasida qo'zg'algan atomlarining spektral nurlanishini qo'llash yotadi.

Fluorimetriya

Bu metod analiz qilinadigan moddalarning fluoressensiyalanish intensivligini o'lchashga asoslangan. Ba'zi moddalarga elektromagnit nurlarning ta'siridan vujudga keladigan nurlanish lyuminessensiya (sovuq nurlanish) deb aytiladi. Lyuminessensuya zarrachaning qo'zg'algan holatdan normal holatga qaytishi natijasida vujudga keladi, ya'ni modda molekulasi yutgan energiyani xususiy nurlanishga aylantiradi. Modda zarrachalari quyidagi ta'sirlar ostida qo'zg'algan holatga o'tishlari mumkin:

- yorug'lik – fluoressensiya;
- rentgen nurlari – rentgenolyuminessensiya
- kimyoviy reaksiya – xemilyuminessensiya

6-jadval

EMISSION SPEKTRAL ANALIZ

Sifat analizi	Miqdoriy analiz
Metod asosini analiz qilinadigan elementning qo'zg'algan atomi chiziqli spektr chiqarishi tashkil etadi. Sifat analizining vazifasi – namuna spektrida aniqlanadigan elementga xos chiziqlarni topish. Analitik chiziqning berilgan elementga tegishli ekanligi to'lqin uzunligi va chiziq intensivligi bo'yicha aniqlanadi. Aniqlash chegarasi $10^{-2} - 10^{-5}$%.	Metod asosini spektral chiziq intensivligi va element konsentratsiyasi orasidagi bog'liqlik tashkil etadi. Odatda alohida chiziqning intensivligi emas, balki turli elementlarga tegishli ikki spektral chiziqlarning nisbati qo'llaniladi. Aniqlanadigan komponentning analitik chizig'q intensivligi boshqa komponentning (ichki standartning) analitik chiziq intensivligi bilan bir xil spektrda solishtiriladi va element konsentratsiyasi aniqlanadi. Intensivlikni aniqlash usullariga qarab, miqdoriy emission spektral analizni quyidagi metodlarga bo'lish mumkin: • vizual; • fotografik; • fotoelektrik. Aniqlash chegarasi – 0,1% gacha, $10^{-7} - 10^{-9}$ g gacha.

7-jadval

EMISSION ALANGALI FOTOMETRIYA

Sifat analizi	Miqdoriy analiz
Metod asosini analiz qilinadigan element atomlarining alanga spektrida qo'zg'alihi tashkil etadi. Gaz-yonilg'i va gaz-oksidlovchidan tarkib topgan (masalan: atsetilen+kislorod) gazlar aralashmasining alangasi qo'llaniladi. Aniqlanadigan element atomining nurlanishi yorug'lik filtri yoki monoxromator yordamida ajratiladi. Yorug'lik filtrlarining maksimumlari aniqlanadigan element atomlari spektral chiziqlarining to'lqin uzunliklariga mos tushishi kerak. Analiz atomlarning alangada nurlanadigan spektrlari bo'yicha o'tkaziladi. Asosan ishqoriy va ishqoriy-yer elementlari, taliy aniqlanadi.	Elementning aniqlanishi spektral chiziq intensivligi (I) va elementning eritmadagi konsentratsiyasi (C) orasidagi funksional bog'liqlikka asoslangan. Asosiy tenglama: $\lg I = \lg a + b \cdot \lg C$, bunda: a – proporsionallik koeffitsiyenti (yorug'lik manbaining harioratiga bog'liq); b – qo'zg'almagan atomlarning yorug'lik kvantini yutishini hisobga oluvchi koeffitsiyent. Miqdoriy aniqlash quyidagi metodlar bilan o'tkaziladi: • darajalangan grafik ($\lg I = f(\lg C)$ chziqli bog'liqlik); • qo'shimchalar metodi; Aniqlashning o'rtacha chegarasi – 10^{-3} – 10^{-4} %.

8-jadval

FLUORIMETRIYA

Sifat analizi	Miqdoriy analiz
Bu metod aniqlanadigan moddaning tegishli sharoitlarda lyuminessensiyalanishiga asoslangan. Organik birikmalar fluoressensiyaning xarakteristik spektral chiziqlari yoki fluoressentli nurlanishning rangi bo'yicha identifikatsiyalanadi. Anorganik ionlar uchun lyuminessensuyani keltirib chiqaradigan organik reagentlar bilan kompleks hosil bo'lish reaksiyalari qo'llaniladi. Masalan: natriy-rux-uranilatsetat sarg'ish-yashil rang bilan lyuminessensiyalanadi. Lyuminessensiyalanadigan moddalar aralashmasining analizida muayyan to'lqin uzunlikdagi lyuminessensiyani ajratuvchi yorug'lik filtrlari qo'llaniladi.	Miqdoriy analiz asosini eritma fluoressensiyasi intensivligining fluoressensiyalanadigan moddalar konsentratsiyasiga bo'lgan bog'liqligi tashkil etadi. $10^{-7} - 10^{-4}$ mol/dm^3 konsentratsiyali suyultirilgan eritmalarning fluoressensiya intensivligi quyidagi formula bo'yicha topiladi: $F = I_0 \cdot 2{,}3 \cdot \varepsilon \cdot C \cdot b \cdot \varphi$ bunda: F – fluoressensiya intensivligi, kvant·c^{-1}; I_0 – ta'sir etuvchi nurning intensivligi, kvant·c^{-1}; ε – yutilishning molyar koeffitsiyenti; b – fluoressensiyalanadigan qatlamning qalinligi; φ – fluoressensiya unumi (modda tabiatiga bog'liq). Aniqlash chegarasi 10^{-7} mol/dm^3. Analizga halaqit beruvchi begona qo'shimchalarni saqlagan moddalar analizida ***ekstraksion-lyuminessentli miqdoriy analiz*** qo'llaniladi. Tekshiriladigan modda organik erituvchi bilan ekstraksiyalanadi va yuqorida bayon etilgan usul bilan aniqlanadi.

5-sxema

ERITMADAGI MUALLAQ ZARRACHALAR BILAN TA'SIRLANISHDA YORUG'LIK INTENSIVLIGINI O'LCHASHGA ASOSLANGAN METODLAR

Suspenziyalar bilan ta'sirlanishda yorug'lik intensivligini o'lchashga asoslangan metodlar

Turbidimetriya

Konsentratsiyani aniqlash metodi muallaq zarrachalarni saqlagan muhitdan (suspenziya, emulsiyadan) o'tgan yorug'likning intensivligini o'lchashga asoslangan.

$$S = A = \lg\frac{I_0}{I} = -k \cdot l \cdot C,$$

bunda:

- S – eritmaning loyqalanuvchanligi (optik zichlik (A) ga mos keladi va Buger-Lambert-Ber qonuni bo'yicha aniqlanadi);
- k – eritmaning loyqalanuvchanlik koeffitsiyenti;
- l – qatlam qalinligi;
- C – muallaq zarrachalar konsentratsiyasi.

Bu tenglama faqat juda suyultirilgan eritmalar uchun qo'llaniladi.

Nefelometriya

Konsentratsiyani aniqlash metodi muallaq zarrachalar tomonidan tarqatilgan va ularning konsentratsiyasiga proporsional bo'lgan yorug'lik intensivligini I_t o'lchashga asoslangan.

$$I_t = k \cdot C.$$

Bir xil shakl va o'lchamli zarrachalarni saqlagan ikki loyqa muhitning yorug'lik tarqatish intensivliklari nisbati eritmalar konsentratsiyalarining nisbatiga teng bo'ladi:

$$\frac{I_t^1}{I_t^2} = \frac{C_1}{C_2};\ C_1 = \frac{I_t^1 \cdot C_2}{I_t^2}.$$

9-jadval

TURBIDIMETRIYA VA NEFELOMETRIYA USULLARIDA MIQDORIY ANIQLASH USULLARI

Turbidimetriya	Nefelometriya
1. *Darajalangan grafik usuli* Ma'lum konsentratsiyali standart eritmalarning turbidimetrik analiz natijalariga asosan $A = f(C)$ bog'liqlik grafigi tuziladi (bog'liqlik chiziqli emas).  	1. *Darajalangan grafik usuli* Ma'lum konsentratsiyali standart eritmalarning nefelometrik analiz natijalariga asosan grafiklar tuziladi: a) $\frac{I}{I_0} = f(C)$ bog'liqlik bo'yicha;  Konsentratsiya ortishi bilan tarqalgan yorug'likning intensivligi ham ortadi.
2. *Turbidimetrik titrlash* Bu usul titrantning aniqlanadigan modda bilan qiyin eruvchan birikmalar cho'kmasini hosil qilish reaksiyasiga asoslangan. Ekvivalent nuqtada loyqalanish maksimumga yetadi. Titrantning keyingi qo'shilishi loyqalanish darajasiga ta'sir etmaydi.  Turbidimetrik titrlash egri chizig'i	b) $A_{tuy} = f(\lg C)$ bog'liqlik bo'yicha;  Konsentratsiya ortishi bilan tuyulma optik zichlik (A_{tuy}) kamayib boradi.

6-sxema

YORUG'LIK NURI TA'SIRIDA MOLEKULANING QUTBLANISH HODISASIGA ASOSLANGAN METODLAR

Yorug'lik ta'sirida molekulaning qutblanish hodisasiga asoslangan metodlar

Refraktometriya

Aniqlash metodi tekshiriladigan moddaning nisbiy yorug'lik sindirish ko'rsatkichini o'lchagsha asoslanadi.

$$n = \frac{v_1}{v_2} = \frac{\sin\alpha}{\sin\beta},$$

bunda:

n – havodagi yorug'lik tarqalish tezligining (v_1) tekshiriladigan eritmadagi yorug'lik tezligiga (v_2) yoki nur tushish burchagi sinusining ($\sin\alpha$) sindirish burchagi sinusiga ($\sin\beta$) nisbati;

n ning qiymatlari quyidagi shartlarda hisoblanadi:

$t^o = 20°C$;

$\lambda = 589{,}3$ nm (natriyning sariq chizig'i).

O'lchash uchun asbob – n-refraktometr.

O'lchash aniqligi – $2\cdot10^{-4}$.

Bunda sindirish ko'rsatkichi n_D^{20} bilan ifodalanadi.

Polyarimetriya

Bu metod optik faol muhitdan o'tgan qutblangan yorug'lik nuri qutblanish tekisligining aylanish burchagi (α) ni o'lchashga asoslangan.

$$[\alpha]_D^{20} = \frac{\alpha\cdot100}{l\cdot C},$$

bunda:

$[\alpha]_D^{20}$ – nisbiy aylanish kattaligi (const);

α – graduslarda o'lchangan aylanish burchagi;

l – qatlam qalinligi, dm;

C – eritma konsentratsiyasi, g/100 ml.

α quyidagilarga bog'liq:

- erituvchi tabiati;
- optik faol moddaning konsentratsiyasi (C);
- optik faol modda qatlamining qalinligi (l).

Shartlar: $t^o = 20°C$; $\lambda = 589{,}3$ nm $[\alpha]_D^{20}$

O'lchash uchun asbob – α-polyarimetr.

O'lchash aniqligi $\pm0{,}02°$.

10-jadval

REFRAKTOMETRIYA VA POLYARIMETRIYA USULLARINING IMKONIYATLARI

<table>
<tr><th>Refraktometriya</th><th>Polyarimetriya</th></tr>
<tr><td colspan="2">Sifat analizi</td></tr>
<tr><td>1. n kattaligi bo‘yicha moddalarni identifikatsiyalash.
2. Birikmalarning, shu jumladan, dorivor preparatlarning tozaligini aniqlash.</td><td>1. $[\alpha]_D^{20}$ kattalik bo‘yicha optik faol moddalarni identifikatsiyalash.
α ning qiymati o‘lchanadi, formula bo‘yicha $[\alpha]_D^{20}$ topiladi va ma’lumotnoma qiymatlari bilan solishtiriladi.</td></tr>
<tr><td colspan="2">Miqdoriy analiz</td></tr>
<tr><td>1. Eritmaning sindirish ko‘rsatkichi n additiv kattalik ekanligini hisobga olgan holda, moddalarning konsentratsiyasi (C) quyidagi formulaga muvofiq aniqlanadi:
$$C_x = \frac{n - n_0}{F},$$
bunda:
n – aniqlanadigan moddaning sindirish ko‘rsatkichi;
n_0 – erituvchining sindirish ko‘rsatkichi;
F – muayyan konsentratsiya uchun refraktometrik faktor (const), u konsentratsiya 1% ga ko‘payganda sindirish ko‘rsatkichi necha marta ortishini ko‘rsatadi.
2. Ikki va undan ortiq komponentli aralashmalardagi moddalarning konsentratsiyasi quyidagi formula bo‘yicha hisoblanadi:
$$C_2 = \frac{n - n_0 - F_1 C_1}{F_2},$$
bunda:
C_1 – boshqa usul bilan aniqlangan komponentning konsentratsiyasi;
F_1 – konsentratsiyasi boshqa usul</td><td>1. Optik faol moddalarning konsentratsiyasi quyidagi formulaga muvofiq topiladi:
$$C = \frac{\alpha \cdot 100}{[\alpha]_D^{20} \cdot l}.$$
2. Darajalangan grafik usuli:

</td></tr>
</table>

bilan aniqlangan moddaning refraktometrik faktori; F_2 – tekshiriladigan modda tarkibidagi ikkinchi komponenntning refraktometrik faktori. 3. Darajalangan grafik usuli:  	

FOTOMETRIYADA KONSENTRATSIYANI ANIQLASHNING ASOSIY USULLARI

1. *Darajalangan grafik usuli*
(faqat monoxromatik nurlar uchun qo'llaniladi).



$$A = \varepsilon \cdot l \cdot C$$
$$A = f(C)$$

2. *Molyar yutilish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati bo'yicha aniqlash usuli*
(tekshiriladigan konsentratsiyalar sohasida Buger-Lambert-Ber qonuniga amal qilinishi shart: $A = \varepsilon \cdot l \cdot C$).

$$\varepsilon_{o'rt} = \frac{A_{st}}{l \cdot C_{st}}; \quad C_x = \frac{A_x}{\varepsilon \cdot l},$$

bunda:

A_{st} – standart eritmaning optik zichligi;
C_{st} – standart eritmaning konsentratsiyasi;
$\varepsilon_{o'rt}$ – molyar yutilish koeffitsiyentining o'rtacha qiymati.

Bir nechta standart eritmalarning optik zichligi A_{st} aniqlanadi, ε hisoblanadi va $\varepsilon_{o'rt}$ topiladi, A_x o'lchanadi va C_x formula bo'yicha topiladi.

3. *Qo'shimchalar usuli*
(murakkab tarkibli eritmalar analizida qo'llaniladi).

$$A_x = \varepsilon \cdot l \cdot C_x,$$

bunda:

A_x – aniqlanadigan eritmaning optik zichligi;
C_x – aniqlanadigan eritmaning konsentratsiyasi.

$$A_{x+st} = \varepsilon \cdot l \cdot (C_x + C_{st}),$$

bunda:

A_{x+st} – aniqlanadigan eritmaga qo'shilgan standart eritmaning optik zichligi;
C_{st} – standart eritmaning konsentratsiyasi.

$$\frac{A_x}{A_{x+st}} = \frac{C_x}{C_x + C_{st}} \quad \text{yoki} \quad A_x \cdot (C_x + C_{st}) = A_{x+st} \cdot C_x,$$

$$C_x = C_{st} \cdot \frac{A_x}{A_{x+st} - A_x}.$$

Qo'shimchalar usulida C_x ni, shuningdek $A_x = f\ (C_{st})$ koordinatalaridagi grafik bo'yicha ham topish mumkin.

4. *Differensial fotometriya usuli*
(rangli eritmalar analizida qo'llaniladi).

Hisoblash usullari:

I



$$C_x = C_0 + C_1$$
$$A_x = A_0 + A_1$$

Differensial fotometriyaning
darajalangan grafigi

bunda:

A_1 – yutilishning ko'payishi;
C_1 – konsentratsiyaning ko'payishi;
C_0 – ma'lum konsentratsiyali rangli eritmaning konsentratsiyasi (taqqoslash eritmasi);
A_0 – taqqoslash eritmasining optik zichligi;
C_x – tekshiriladigan eritmaning konsentratsiyasi;
A_x – tekshiriladigan eritmaning optik zichligi.

II

$$F = \frac{(C_x - C_0)}{A_n};\ C_x = C_0 + A_x \cdot F_{taq},$$

bunda:

F – analitik faktor;
C_0 – taqqoslash eritmasidagi modda miqdori;
A_n – ma'lum konsentratsiyali bir qator eritmalarning yutishi;
A_x – tekshiriladigan eritmaning yutishi.

5. *Fotometrik titrlash usuli*
(ekvivalent nuqtani fotometrik aniqlash usuliga asoslangan, namunadagi ko'p sonli moddalar analizida qo'llaniladi).



Tekshiriladigan eritmaning yutish | Titrantning yutish kattaligi bo'yicha | Reaksiya mahsulotining yutish kattaligi bo‘yicha fotometrik titrlash egri chizig‘i

fotometrik titrlash egri chizig‘i

kattaligi bo‘yicha fotometrik titrlash egri chizig‘i

6. *Ko‘p to‘lqinli spektrofotometriya*
(ko‘p komponentli aralashmalar analizida qo‘llaniladi).

$$C_1 = \frac{A^{\lambda_1} \cdot \varepsilon_2^{\lambda_2} - A^{\lambda_2} \cdot \varepsilon_2^{\lambda_1}}{\varepsilon_1^{\lambda_1} \cdot \varepsilon_2^{\lambda_2} - \varepsilon_1^{\lambda_2} \cdot \varepsilon_2^{\lambda_2}};$$

$$C_2 = \frac{A^{\lambda_2} \cdot \varepsilon_1^{\lambda_1} - A^{\lambda_1} \cdot \varepsilon_1^{\lambda_2}}{\varepsilon_1^{\lambda_1} \cdot \varepsilon_2^{\lambda_2} - \varepsilon_1^{\lambda_2} \cdot \varepsilon_2^{\lambda_2}},$$

bunda:

λ_1 – birinchi analitik to‘lqin uzunligi;
λ_2 – ikkinchi analitik to‘lqin uzunligi;
A^{λ_1} – λ_1 to‘lqin uzunlikdagi aralashmaning optik zichligi;
A^{λ_2} – λ_2 to‘lqin uzunlikdagi aralashmaning optik zichligi;
C_1 – 1-komponentning konsentratsiyasi;
C_2 – 2-komponentning konsentratsiyasi;
$\varepsilon_1^{\lambda_1}; \varepsilon_2^{\lambda_2}; \varepsilon_1^{\lambda_2}; \varepsilon_2^{\lambda_1}$ – tegishlicha λ_1 va λ_2 to‘lqin uzunliklaridagi 1- va 2-komponentlarning molyar yutilish koeffitsiyentlari.

11-jadval

KONSENTRATSIYASI %(UM.) DA IFODALANGAN SPIRT-SUVLI ERITMALARNING SINDIRISH KO‘RSATKICHLARI

Spirt konsentratsiyasi	Sindirish ko‘rsatkichi (20°C da)	Har 1% spirt uchun tuzatish koeffitsiyenti	Harorat koeffitsiyenti
0	1,33300		$1{,}0 \cdot 10^{-4}$
1	1,33345	$4{,}5 \cdot 10^{-4}$	$1{,}0 \cdot 10^{-4}$
2	1,33400	$5{,}5 \cdot 10^{-4}$	$1{,}0 \cdot 10^{-4}$
3	1,33444	$4{,}4 \cdot 10^{-4}$	$1{,}1 \cdot 10^{-4}$
4	1,33493	$4{,}9 \cdot 10^{-4}$	$1{,}1 \cdot 10^{-4}$
5	1,33535	$4{,}2 \cdot 10^{-4}$	$1{,}2 \cdot 10^{-4}$
6	1,33587	$5{,}2 \cdot 10^{-4}$	$1{,}2 \cdot 10^{-4}$

7	1,33641	$5{,}4\cdot10^{-4}$	$1{,}3\cdot10^{-4}$
8	1,33700	$5{,}9\cdot10^{-4}$	$1{,}3\cdot10^{-4}$
9	1,33760	$6{,}0\cdot10^{-4}$	$1{,}3\cdot10^{-4}$
10	1,33808	$4{,}8\cdot10^{-4}$	$1{,}4\cdot10^{-4}$
11	1,33870	$6{,}2\cdot10^{-4}$	$1{,}4\cdot10^{-4}$
12	1,33924	$5{,}4\cdot10^{-4}$	$1{,}4\cdot10^{-4}$
13	1,33977	$5{,}3\cdot10^{-4}$	$1{,}4\cdot10^{-4}$
14	1,34043	$6{,}6\cdot10^{-4}$	$1{,}4\cdot10^{-4}$
15	1,34096	$5{,}3\cdot10^{-4}$	$1{,}5\cdot10^{-4}$
16	1,34158	$6{,}2\cdot10^{-4}$	$1{,}5\cdot10^{-4}$
17	1,34209	$5{,}1\cdot10^{-4}$	$1{,}5\cdot10^{-4}$
18	1,34270	$6{,}1\cdot10^{-4}$	$1{,}5\cdot10^{-4}$
19	1,34330	$6{,}0\cdot10^{-4}$	$1{,}5\cdot10^{-4}$
20	1,34390	$6{,}0\cdot10^{-4}$	$1{,}6\cdot10^{-4}$
21	1,34452	$6{,}2\cdot10^{-4}$	$1{,}6\cdot10^{-4}$
22	1,34512	$6{,}0\cdot10^{-4}$	$1{,}7\cdot10^{-4}$
23	1,34573	$6{,}1\cdot10^{-4}$	$1{,}8\cdot10^{-4}$
24	1,34635	$6{,}2\cdot10^{-4}$	$1{,}9\cdot10^{-4}$
25	1,34697	$6{,}2\cdot10^{-4}$	$2{,}0\cdot10^{-4}$
30	1,35000	$6{,}0\cdot10^{-4}$	$2{,}0\cdot10^{-4}$
35	1,35320	$6{,}4\cdot10^{-4}$	$2{,}1\cdot10^{-4}$
40	1,35500	$4{,}0\cdot10^{-4}$	$2{,}4\cdot10^{-4}$
45	1,35700	$4{,}0\cdot10^{-4}$	$2{,}4\cdot10^{-4}$
50	1,35900	$4{,}0\cdot10^{-4}$	$2{,}6\cdot10^{-4}$
55	1,36060	$3{,}2\cdot10^{-4}$	$2{,}6\cdot10^{-4}$
60	1,36180	$2{,}4\cdot10^{-4}$	$3{,}4\cdot10^{-4}$
65	1,36300	$2{,}4\cdot10^{-4}$	$3{,}6\cdot10^{-4}$
70	1,36380	$1{,}6\cdot10^{-4}$	$3{,}8\cdot10^{-4}$
75	1,36450	$1{,}4\cdot10^{-4}$	$4{,}0\cdot10^{-4}$

12-jadval

TURLI KONSENTRATSIYALI DORIVOR MODDALAR SUVLI ERITMALARINING SINDIRISH KO‘RSATKICHI FAKTORLARI (*F*)

Konsentra-tsiya, %	Eritmalarning sindirish ko‘rsatkichlari faktorlari			
	Ammiak eritmasi	Analgin	Antipirin	Barbamil
1	1 – 5%-li konsentra-tsiyalari uchun 0,00050	0,00190	0,00225	0,00181
2		0,00190	0,00225	0,00180
3		0,00180	0,00226	0,00180
4		0,00185	0,00226	0,00180
5		0,00192	0,00226	0,00180
6		0,00188	0,00226	0,00179
7		0,00186	0,00226	0,00179
8		0,00187	0,00227	0,00178
9		0,00187	0,00227	0,00178
10		0,00192	0,00227	0,00178
Konsentra-tsiya, %	**Natriy barbital**	**Geksametilen-tetramin**	**Glyukoza, suvsiz**	**Glyukoza, nam miqdorli 10%**
1	Hamma konsentra-tsiyalar uchun 0,00182	0,00164	Hamma konsentra-tsiyalar uchun 0,00142	Hamma konsentra-tsiyalar uchun 0,00129
2		0,00164		
3		0,00165		
4		0,00165		
5		0,00165		
6		0,00165		
7		0,00165		
8		0,00166		
9		0,00166		
10		0,00166		

Konsentra-tsiya, %	Izoniazid	Kaliy atsetat	Kaliy bromid	Kaliy yodid
1	0,00200	0,00130	0,00121	Hamma konsentra-tsiyalar uchun 0,00130
2	0,00215	0,00125	0,00120	
3	0,00213	0,00123	0,00120	
4	0,00215	0,00120	0,00119	
5	0,00214	0,00116	0,00119	
6	0,00213	0,00113	0,00119	
7	0,00211	0,00110	0,00118	
8	0,00210	0,00111	0,00118	
9	0,00210	0,00110	0,00117	
10	0,00210	0,00110	0,00117	
Konsentra-tsiya, %	**Kaliy xlorid**	**Kalsiy glyukanat**	**Kalsiy xlo-rid·6H_2O**	**Aminokapron kislota**
1	0,00140	0,00164	0,00120	Hamma konsentra-tsiyalar uchun 0,00185
2	0,00135	0,00163	0,00120	
3	0,00133	0,00162	0,00120	
4	0,00132	0,00161	0,00117	
5	0,00132	0,00160	0,00116	
6	0,00131	0,00159	0,00116	
7	0,00131	0,00158	0,00116	
8	0,00130	0,00157	0,00115	
9	0,00130	0,00156	0,00115	
10	0,00130	0,00155	0,00115	

Konsentra-tsiya, %	Askorbin kislota	Borat kislota	Nikotin kislota	Kodein fosfat
1	0,00160	Hamma konsentrat-siyalar uchun 0,00067	Hamma konsentrat-siyalar uchun 0,00210	Hamma konsentrat-siyalar uchun 0,00180
2	0,00160			
3	0,00160			
4	0,00159			
5	0,00159			
6	0,00158			
7	0,00158			
8	0,00158			
9	0,00157			
10	0,00157			
Konsentrat-siya, %	**Natriy kofeinbenzoat**	**Magniy sulfat $\times 7H_2O$**	**Natriy benzoat**	**Natriy bromid**
1	Hamma konsentrat-siyalar uchun 0,00192	Hamma konsentrat-siyalar uchun 0,00090	0,00211	0,00130
2			0,00211	0,00130
3			0,00210	0,00133
4			0,00210	0,00133
5			0,00210	0,00134
6			0,00210	0,00133
7			0,00210	0,00133
8			0,00209	0,00133
9			0,00209	0,00132
10			0,00209	0,00132

Konsentratsiya, %	Natriy gidrokarbonat	Natriy yodid	Natriy salitsilat	Natriy tetraborat
1	Hamma konsentratsiyalar uchun 0,00125	Hamma konsentratsiyalar uchun 0,00143	0,00206	0,00110
2			0,00206	0,00110
3			0,00206	0,00110
4			0,00206	0,00107
5			0,00206	0,00106
6			0,00205	0,00103
7			0,00205	0,00100
8			0,00205	0,00100
9			0,00205	0,00100
10			0,00205	0,00100
Konsentratsiya, %	**Natriy tiosulfat**	**Natriy xlorid**	**Natriy gidrotsitrat**	**Natriy sitrat**
1	0,00120	0,00170	0,00100	0,00120
2	0,00120	0,00170	0,00150	0,00120
3	0,00130	0,00170	0,00140	0,00120
4	0,00127	0,00170	0,00150	0,00120
5	0,00122	0,00170	0,00140	0,00118
6	0,00117	0,00170	0,00136	0,00120
7	0,00123	0,00170	0,00143	0,00120
8	0,00125	0,00165	0,00137	0,00120
9	0,00122	0,00164	0,00144	0,00118
10	0,00121	0,00165	0,00140	0,00118

Konsentratsiya, %	Novokain	Novokainamid	Natriy norsulfazol, suvsiz	Pilokarpin gidroxlorid
1	0,00221	Hamma konsentratsiyalar uchun 0,00230	0,00239	0,00160
2	0,00221		0,00238	0,00165
3	0,00221		0,00238	0,00166
4	0,00221		0,00238	0,00167
5	0,00220		0,00237	0,00166
6	0,00220		0,00237	0,00166
7	0,00220		0,00237	0,00166
8	0,00220		0,00236	0,00166
9	0,00220		0,00236	0,00166
10	0,00220		0,00235	0,00166

Konsentratsiya, %	Rezorsin	Natriy sulfatsilat	Eruvchan streptotsid
1	1 – 5%-li konsentratsiyalar uchun 0,00200	0,00198	0,00190
2		0,00195	0,00190
3		0,00197	0,00190
4		0,00197	0,00190
5		0,00198	0,00188
6		0,00198	0,00188
7		0,00198	0,00188
8		0,00198	0,00188
9		0,00198	0,00188
10		0,00197	0,00188

ILOVALAR

1-jadval

TURLI HARORATLARDA SUVNING ION KO'PAYTMASI K_{H_2O}

t °C	K_{H_2O}	$a_{H^+} = a_{OH^-}$	t °C	K_{H_2O}	$a_{H^+} = a_{OH^-}$
0	$0{,}13 \cdot 10^{-14}$	$0{,}36 \cdot 10^{-7}$	28	$1{,}62 \cdot 10^{-14}$	$1{,}27 \cdot 10^{-7}$
5	$0{,}21 \cdot 10^{-14}$	$0{,}46 \cdot 10^{-7}$	29	$1{,}76 \cdot 10^{-14}$	$1{,}33 \cdot 10^{-7}$
10	$0{,}36 \cdot 10^{-14}$	$0{,}59 \cdot 10^{-7}$	30	$1{,}89 \cdot 10^{-14}$	$1{,}37 \cdot 10^{-7}$
15	$0{,}58 \cdot 10^{-14}$	$0{,}76 \cdot 10^{-7}$	35	$0{,}27 \cdot 10^{-13}$	$1{,}65 \cdot 10^{-7}$
16	$0{,}63 \cdot 10^{-14}$	$0{,}79 \cdot 10^{-7}$	40	$0{,}38 \cdot 10^{-13}$	$1{,}95 \cdot 10^{-7}$
17	$0{,}68 \cdot 10^{-14}$	$0{,}82 \cdot 10^{-7}$	50	$0{,}56 \cdot 10^{-13}$	$2{,}4 \cdot 10^{-7}$
18	$0{,}74 \cdot 10^{-14}$	$0{,}86 \cdot 10^{-7}$	60	$1{,}26 \cdot 10^{-13}$	$3{,}55 \cdot 10^{-7}$
19	$0{,}79 \cdot 10^{-14}$	$0{,}89 \cdot 10^{-7}$	70	$2{,}10 \cdot 10^{-13}$	$0{,}49 \cdot 10^{-6}$
20	$0{,}86 \cdot 10^{-14}$	$0{,}93 \cdot 10^{-7}$	80	$3{,}40 \cdot 10^{-13}$	$0{,}58 \cdot 10^{-6}$
21	$0{,}93 \cdot 10^{-14}$	$0{,}96 \cdot 10^{-7}$	90	$0{,}52 \cdot 10^{-12}$	$0{,}72 \cdot 10^{-6}$
22	$1{,}00 \cdot 10^{-14}$	$1{,}00 \cdot 10^{-7}$	100	$0{,}74 \cdot 10^{-12}$	$0{,}86 \cdot 10^{-6}$
23	$1{,}10 \cdot 10^{-14}$	$1{,}05 \cdot 10^{-7}$	120	$1{,}25 \cdot 10^{-12}$	$1{,}12 \cdot 10^{-6}$
24	$1{,}19 \cdot 10^{-14}$	$1{,}09 \cdot 10^{-7}$	140	$1{,}80 \cdot 10^{-12}$	$1{,}34 \cdot 10^{-6}$
25	$1{,}27 \cdot 10^{-14}$	$1{,}13 \cdot 10^{-7}$	160	$2{,}50 \cdot 10^{-12}$	$1{,}58 \cdot 10^{-6}$
26	$1{,}38 \cdot 10^{-14}$	$1{,}17 \cdot 10^{-7}$	180	$3{,}20 \cdot 10^{-12}$	$1{,}80 \cdot 10^{-6}$
27	$1{,}50 \cdot 10^{-14}$	$1{,}23 \cdot 10^{-7}$	200	$0{,}40 \cdot 10^{-11}$	$2{,}0 \cdot 10^{-6}$

2-jadval

BA'ZI KISLOTA VA ISHQOR ERITMALARINING ZICHLIGI VA KONSENTRATSIYASI

(t = 20 °C)

Zichlik, kg/m^3	Massa ulushi, %	Molyarlik, mol/l	Zichlik, kg/m^3	Massa ulushi, %	Molyarlik, mol/l
Kislotalar:					
n i t r a t					
1,000	0,333	0,052	1,280	45,27	9,195
1,020	3,982	0,645	1,300	48,42	9,990
1,040	7,530	1,243	1,320	51,71	10,83
1,060	10,97	1,845	1,340	55,13	11,72
1,080	14,31	2,453	1,360	58,78	12,68
1,100	17,58	3,068	1,380	62,70	13,73
1,130	22,38	4,012	1,400	66,97	14,88
1,150	25,48	4,649	1,420	71,63	16,14
1,170	28,51	5,293	1,440	76,71	17,53
1,190	31,47	5,943	1,460	82,39	19,09
1,200	32,94	6,273	1,480	89,07	20,92
1,210	34,41	6,607	1,500	96,73	23,02
1,220	35,93	6,956	1,510	99,26	23,79
1,240	39,02	7,679	1,513	100,00	24,01
1,260	42,14	8,426			
s u l f a t					
1,000	0,261	0,027	1,340	44,17	6,035
1,020	3,242	0,337	1,360	46,33	6,424
1,040	6,237	0,661	1,380	48,45	6,817
1,060	9,129	0,987	1,400	50,50	7,208
1,080	11,96	1,317	1,420	52,51	7,603
1,100	14,73	1,652	1,440	54,49	8,000
1,120	17,43	1,990	1,460	56,41	8,397
1,140	20,08	2,334	1,480	58,31	8,799
1,160	22,67	2,681	1,500	60,17	9,202
1,180	25,21	3,033	1,520	62,00	9,608
1,200	27,72	3,391	1,580	67,35	10,85
1,220	30,18	3,754	1,640	72,52	12,13
1,240	32,61	4,123	1,700	77,63	13,46

1,260	35,01	4,498	1,750	82,09	14,65
1,280	37,36	4,876	1,800	87,69	16,09
1,300	39,68	5,259	1,820	91,11	16,91
1,320	41,95	5,646	1,835	95,72	17,91
Zichlik, kg/m³	**Massa ulushi, %**	**Molyarlik, mol/l**	**Zichlik, kg/m³**	**Massa ulushi, %**	**Molyarlik, mol/l**
		o r t o f o s f a t			
1,000	0,296	0,030	1,340	50,66	6,928
1,020	4,000	0,416	1,380	55,28	7,84
1,040	7,643	0,811	1,420	59,74	8,658
1,060	11,19	1,210	1,460	64,03	9,541
1,080	14,60	1,609	1,500	68,10	10,42
1,100	17,87	2,005	1,540	72,00	11,32
1,120	21,03	2,403	1,580	75,76	12,22
1,140	24,07	2,800	1,620	79,40	13,12
1,160	27,05	3,203	1,660	82,96	14,06
1,180	29,94	3,606	1,700	86,38	14,98
1,200	32,75	4,010	1,740	89,72	15,93
1,220	35,50	4,420	1,780	92,97	16,89
1,240	38,17	4,829	1,820	96,15	17,85
1,260	40,79	5,245	1,840	97,71	18,34
1,280	43,37	5,655	1,860	99,24	18,84
1,300	45,88	6,087	1,870	100,00	19,08
		x l o r i d			
1,000	0,360	0,099	1,110	22,33	6,796
1,010	2,364	0,655	1,120	24,25	7,449
1,020	4,388	1,227	1,130	26,20	8,118
1,030	6,433	1,817	1,140	28,18	8,809
1,040	8,490	2,421	1,150	30,14	9,505
1,050	10,52	3,029	1,160	32,14	10,225
1,060	12,51	3,638	1,170	34,18	10,97
1,070	14,50	4,253	1,180	36,23	11,73
1,080	16,47	4,878	1,190	38,32	12,50
1,090	18,43	5,510	1,198	40,00	13,14
1,100	20,39	6,150			
		x l o r a t			
1,005	0,00	0,100	1,300	40,10	5,189
1,020	3,61	0,366	1,350	44,81	6,021
1,060	10,06	1,061	1,400	49,23	6,860

1,100	16,00	1,752	1,450	53,27	7,689
1,140	21,64	2,456	1,500	57,06	8,519
1,180	26,82	3,150	1,550	60,78	9,377
1,220	31,61	3,839	1,600	64,50	10,27
1,260	36,03	4,519	1,675	70,15	11,70
Zichlik, kg/m^3	**Massa ulushi, %**	**Molyarlik, mol/l**	**Zichlik, kg/m^3**	**Massa ulushi, %**	**Molyarlik, mol/l**
Ishqorlar:					
ammiak eritmasi					
0,880	34,35	17,75	0,940	14,88	8,21
0,884	32,84	17,05	0,958	9,87	5,55
0,888	31,37	16,36	0,960	9,34	5,23
0,892	30,00	15,71	0,980	4,27	2,46
0,896	28,67	15,08	0,990	1,89	1,10
0,900	27,33	14,44	0,994	0,98	0,57
0,908	24,68	13,16	0,998	0,05	0,03
0,920	20,88	11,28			
kaliy gidroksid (o'yuvchi kaliy)					
1,000	0,20	0,035	1,330	33,97	8,05
1,005	0,74	0,133	1,400	40,37	10,07
1,050	5,66	1,06	1,450	44,79	11,58
1,080	8,89	1,71	1,500	49,10	13,13
1,095	10,49	2,05	1,510	49,95	13,45
1,110	12,08	2,39	1,520	50,80	13,76
1,200	21,38	4,57	1,530	51,64	14,08
1,290	30,21	6,95	1,535	52,05	14,24
ORGANIK MODDALARNI ANIQLASHDA QO‘LLANILADIGAN MUHIM ORGANIK REAGENTLAR

Reagent	Aniqlanadigan moddalar

1. Akonit angidrid 	Uchlamchi aminlar
2. 4-Aminoantipirin ($K_4[Fe(CN)_6]$ yoki $(NH_4)_2S_2O_8$ bilan birga) 	Fenollar, xlorfenollar, naftollar, aromatik aldegidlar
3. 4-Aminobenzoy kislota (PAB) 	Flavinlar, timol, metiletilketon
4. 4-Aminosalitsil kislota (PASK) 	Aldozalar
5. Antranil kislota 	Aldegidlar, ketonlar, birlamchi spirtlar
6. Antron 	Aldegidlar, uglevodlar
7. Barbiturat kislota 	Nikotin kislota va uning hosilalari, furfurol va pentozalar
8. Benzaldegid 	Atseton, yuqori spirtlar, inden, aminlar

17-jadvalning davomi

9. Benzidin 	Nikotin, aminonitrillar
10. Benzolsulfin kislota 	Xinonlar
11. 1,2-Benzoxinon 	1,2-Diaminlar
12. 1,4-Benzoxinon 	Indol, pirrol va ularning hosilalari, aminlar, sik-lopentadiyen
13. Bindon 	Birlamchi va ikkilamchi aromatik aminlar
14. Bromtimol ko‘ki	To‘rtlamchi aminlar
15. Bromfenol ko‘ki	To‘rtlamchi aminlar
16. *n*-Butilamin $CH_3-(CH_2)_3-NH_3$	Benzoxinon
17. 1,2-Dianizidin 	Fenollar, aldegidlar
18. Dibepin	Birlamchi alkil

	va aralkilaminlar

17-jadvalning davomi

19. Dimedon 	Aldegidlar
20. 4-Dimetilaminobenzaldegid 	Birlamchi aromatik aminlar, sulfanilamidlar, to'yinmagan uglevodorodlar
21. N,N-Dimetilanilin 	1,3-Dinitrozobirikmalar, polinitrobirikmalar, 4-nitrobenzoy kislota efirlari
22. N,N-Dimetil-*p*-fenilendiamin gidroxlorid 	Merkaptanlar, disulfidlar
23. 3,5-Dinitrobenzoilxlorid 	Ikkilamchi aromatik aminlar, gidrazin hosilalari

24. 1,2-Dinitrobenzol 	Fluoren va uning hosilalari
25. 1,3-Dinitrobenzol 	Aldegidlar, ketonlar
26. 1,4-Dinitrobenzol 	Fluoren va uning hosilalari, siklopentadiyen
27. 2,4-Dinitrofenilgidrazin 	Aldegidlar, ketonlar, aldozalar

17-jadvalning davomi

28. 2,4-Dinitroftorbenzol 	Tiollar, birlamchi va ikkilamchi aminlar
29. 2,4-Dinitroxlorbenzol 	Birlamchi alifatik va aromatik aminlar, piridin va uning hosilalari
30. Dipikrilamin (geksanitrodifenilamin)	Siklopentadiyen va hosilalari

	
31. Difenilbenzidin 	Xinonlar, nitrozo birikmalar, organik peroksidlar, xloraminlar
32. Epixlorgidrin 	Piridin va uning hosilalari
33. Etilendiamin $H_2N - CH_2 - CH_2 - NH_2$	Xinonlar va xinon hosil qiluvchi moddalar
34. 2-(4-Fenilazo)-fenilgidrazinsulfokislota 	Atsetaldegid
35. Fenilgidrazin 	Aldegidlar, monozalar
36. 1,4-Fenilendiamin + oksidlovchilar 	Fenollar, birlamchi aromatik aminlar, diolefinlar, izopren, xloropren
37. 1-Fenil-3-metil-pirazolon-5 	Diazobirikmalar

38. Floroglyutsin 	Furfurol, vanilin, 1,4-benzoxinon, gidroxinon
39. Formaldegid (+ H_2SO_4) 	Aromatik uglevodorodlar, indol va hosilalari, polifenillar, xlorbenzol
40. Ftal angidrid 	Alifatik spirtlar
41. Fuksinsulfat kislota (Shiff reaktivi) 	Aldegidlar, alanin, albumin, aminosirka kislota, meteonin
42. Furfurol 	Atseton, izopropanol, borneol, metilketon, terpenlar
43. Gibbs reaktivi (2,6-dibromxinonxlorimin yoki 2,6-dixlorxinonxlor-imin) 	*p*-Holati bo'sh bo'lgan fenollar, xlorlangan fenollar, tiollar, kumarin

44. 4-Geksilrezorsin 	Akrolein
45. Griss reaktivi (sulfanil kislota + 1-naftilamin) 	Nitrat kislota efirlari, nitrozobirikmalar, nitrobirikmalar

17-jadvalning davomi

46. H-kislota (ash-kislota, 1-amino-8-naftol-3,6-disulfokislota) 	Anilin va hosilalari, toluidinlar, ketonlar
47. I-kislota (6-amino-1-naftol-3-sulfokislota) 	Formaldegid, glioksal, piperonal, urotropin
48. Metil binafsha (16-jadvaldan 139 ga qarang)	Aldegidlar, nitrofenollar
49. Morfolin 	Kislota angidridlar, xinonlar
50. 1-Naftol va 2-naftol 	Aromatik aminlar, ularning hosilalari, sulfanilamidlar, aminobenzoy kislota, aminokislotalar

51. 1,2-Naftoxinon-4-sulfokislota (Erlix-Gerter reaktivi) 	Birlamchi va ikkilamchi aminlar, gidrazidlar, sulfanilaminlar, aminokislotalar, rezorsin
52. Ningidrin 	Aminokislotalar, aminofenollar, birlamchi aminlar, kislota gidrazidlari
53. 4-Nitroanilin 	Fenollar, naftollar, aromatik aminlar, diolefinlar, aminofenollar
54. 2-Nitrobenzaldegid 	Ketonlar

17-*jadvalning davomi*

55. Orsin 	Pentozalar, pentozanlar, furfurol
56. Pikrin kislota 	Alifatik aminlar, alkaloidlar
57. Piridin	Dinitroxlorbenzol,

	xlor-benzol, poligalogenidli birikmalar
58. Pirrol 	Aldegidlar .
59. 2,4-Pentadion 	Birlamchi aminlar
60. Rezorsin (+ H_2SO_4) 	Benzaldegid, salitsil aldegid, furfurol, fruktoza
61. Salitsil aldegid 	Birlamchi alifatik aminlar, ketonlar, sulfanil-amidlar, yuqori spirtlar
62. Siklopentadiyen 	Ketonlar
63. Sulfanil kislota 	Aromatik aminlar, fenollar
64. Tetrafenilboratning natriyli tuzi (16-jadvaldan 223 ga qarang)	Ikkilamchi aminlar

17-jadvalning davomi

65. Triptofan (+ oksidlovchilar)	Aldegidlar

	
66. Vanadiy oksixinolyat 	Birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi spirtlar
67. Vanilin 	Ketonlar, pirrol, indol, skatol
68. Xloranil 	Birlamchi aromatik aminlar, aminobenzoy kislotalar, uchlamchi aminlar
69. Xlormaleinangidrid 	Tutash qo'shbog'lar
70. Xromotrop kislota, dinatriyli tuzi (16-jadvaldan 251 ga qarang)	Formaldegid

18-jadval

ORGANIK MODDALARNI ANIQLASHDA QO'LLANILADIGAN BA'ZI NOORGANIK REAGENTLAR

Reagent	Aniqlanadigan moddalar
1. Gidroksilamin gidroxlorid ($FeCl_3$ bilan birga) $NH_2OH \cdot HCl$ (M.m. 69,49)	Xinonlar, angidridlar, kislota amidlari, imidlar,

	murakkab efirlar
2. Denije reaktivi $HgSO_4 \cdot H_2SO_4$	Tiofen
3. Dragendorf reaktivi $KBiI_4$ (M.m. 755,70)	Alkaloidlar, noionogen SFM
4. Ilosvay reaktivi $Cu(NO_3)_2$ (yoki $CuCl_2$) + $NH_2OH \cdot HCl$ + NH_4OH + jelatina	Atsetilen va uning hosilalari
5. Millon reaktivi $Hg_2(NO_3)_2 + Hg(NO_3)_2 + HNO_2$	Fenollar
6. Natriy nitroprussid (Legal reaktivi) $Na_2[Fe(CN)_5NO] \cdot H_2O$ (M.m. 279,95)	Ketonlar, ikkilamchi va alifatik aminlar, aldegidlar, indol va uning gomologlari
7. Natriy pentatsianoferrat (II) [natriy nitroprussid + ammiak] $Na_3[Fe(CN)_5NH_3]$	Nitrozobirikmalar, tiokarbamid, izonikotin kislota, to'yinmagan va aromatik aldegidlar
8. Reyneke tuzi $NH_4[Cr(SCN)_4(NH_3)_2] \cdot 2H_2O$ (M.m. 372,44)	Organik asoslar: atropin, xolin, rezerpin, brutsin, xinin, strixnin
9. Tollens reaktivi $Ag(NH_3)_2OH$	Organik qaytaruvchilar
10. Feling reaktivi $NaKC_4H_4O_6 + CuSO_4 + NaOH$	Qaytaruvchi saxaridlar
11. Folin reaktivi (fosforomolibdat va fosforovolframat kislotalarning aralashmasi)	Organik qaytaruvchilar
12. Fred reaktivi $Na_2MoO_4 + H_2SO_4$	Asos guruhini yonaki zanjirda saqlovchi siklik aminlar

ANALITIK TERMINLARNING QISQA LUG'ATI

Adsorbsiya – qattiq modda yoki suyuqlik yuzasida erigan yoki gazsimon moddalarning yutilishi

Aktivlik – ionlarning effektiv, tajribada aniqlanadigan konsentratsiyasi bo'lib, u umumiy konsentratsiya bilan aktivlik koeffitsiyentining ko'paytmasiga teng

Akseptor – elektronlarni qabul qilib, erkin orbital va donorning juftlashmagan elektronlari hisobiga kimyoviy bog'lanishni hosil qiluvchi atom (ion yoki atomlar guruhi)

Alkalimetriya – titrant sifatida kuchli asoslarning standart eritmalari qo'llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usullari

Amalda topilgan qiymat – haqiqiy qiymatga yaqin bo'lgan aniqlanadigan miqdorning tajribada olingan yoki hisoblab topilgan qiymati.

Analitik guruh – bir yoki bir nechta umumiy kimyoviy xossalarga ega bo'lgan kimyoviy birikmalar majmui

Analitik kimyo – moddaning kimyoviy tarkibini aniqlash usullari haqidagi fan

Analitik reagentlar – kimyoviy analiz uchun mo'ljallangan va tozalik darajasi bo'yicha farq qiladigan kimyoviy preparatlar

Analitik reaksiyalarning sezgirligi – *Topilish minimumi*ga qarang

Analitik signal – aniqlanadigan komponentlar miqdori bilan funksional bog'langan aniqlashlarning o'rtacha (matematik) natijalari. Sifat analizida – kimyoviy reaksiya natijasida moddaning tashqi ko'rinishi yoki agregat holatining o'zgarishi

Analiz aniqligi – barcha (ham sistematik, ham tasodifiy) xatoliklarning nolga yaqinligini ifodalovchi sifat xarakteristikasi

Analiz usuli – modda analizining asosini tashkil etgan prinsiplarning qisqa tavsifi

Analiz usulikasi – analizning aniqligini va to'g'riligini ta'minlaydigan barcha sharoitlar va jarayonlarning batafsil bayonnomasi.

Analiz usulining sezgirlik koeffitsiyenti – darajalangan xarakteristikaning birinchi hosilaviy qiymati

Analiz natijalarining to'g'riligi – sistematik xatoning nolga yaqinligini ifodalovchi analiz sifati

Analiz natijasi – parallel aniqlashlar natijalarining o'rtacha qiymati

Aniqlanadigan modda bo'yicha titr (g/sm^3, g/ml) – 1 sm^3 (1 ml) eritmadagi titrantning massasiga ekvivalent bo'lgan aniqlanadigan modda massasi

Argentometriya – titrant sifatida kumush nitrat eritmasi qo'llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

Atom massa (nisbiy) – modda atom massasining uglerod-12 atom massasi 1/12 qismiga nisbati

Atsidimetriya – titrant sifatida kuchli kislotalarning standart eritmalari qo'llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usullari

Birgalikda cho'ktirish – asosiy moddaning (komponentning) begona moddalar (qo'shimchalar) bilan birga cho'kishi

Bromatometriya – $BrO_3^- + Br^-$ aralashmasi qo'llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

Bufer eritmalar – pH ning muayyan qiymati, oksidlanish-qaytarilish potensiali, metall ionlarining konsentratsiyasi va muhitning boshqa xarakteristikalarini doimiy saqlab turadigan eritmalar. pH-buferlar – kislota-asos jufti HA va A^- yoki MH^+ va M^+ komponentlarini saqlagan aralashma; pM-buferlar – ML va M^{n+} aralashmasi

Bufer sig'imi – eritma pH ini bir birlikka o'zgartirish uchun unga qo'shiladigan kuchli asos yoki kuchli kislota miqdori

Bo'lib-bo'lib cho'ktirish – moddalar aralashmasini ajratish usuli bo'lib, izlanadigan ionlarni spetsifik reaksiyalardan foydalanib tekshirilayotgan eritmaning alohida ulushlaridan bevosita cho'ktirish

Darajalangan xarakteristika – formula, jadval yoki grafik ko'rinishida ifodalangan va tajriba yoki hisoblashlar yo'li bilan aniqlangan komponent miqdorining analitik signalga bog'liqligi

Diapazon – berilgan usulika bo'yicha belgilangan miqdorlar qiymatlarining oraliqlari

Dispersiya – tasodifiy kattaliklarning o'rtacha qiymatiga nisbatan tarqalishi

Donor – o'zining juftlashmagan elektronlari va aktseptorning bo'sh orbitalini to'ldirishi hisobiga kimyoviy bog'lanishni hosil qiluvchi atom yoki atomlar guruhi

Donor - aktseptor (koordinatsion) bog'lanish – bir element atomining (donorning) juftlashmagan elektronlari va boshqa element atomining (aktseptorning) bo'sh orbitali orasida vujudga keladigan kimyoviy bog'lanish

Ekvivalent – kislota-asosli reaksiyada bitta vodorod (gidroksoniy) yoki OH^- ioniga yoki oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida bitta elektronga ekvivalent bo'lgan moddaning real yoki shartli zarrachasi

Ekvivalent molyar massa – moddaning molyar massasi bilan ekvivalentlik faktorining ko'paytmasiga teng bo'lgan 1 mol ekvivalent modda massasi

Ekvivalent nuqta – qo'shilgan titrant miqdorining titrlanadigan modda miqdoriga ekvivalent bo'lgan titrlash egri chizig'idagi nuqta

Ekvivalentlik faktori $f_{ekv}(X)$ – kislota-asosli reaksiyada bitta vodorod (gidroksoniy) yoki OH^- ioniga yoki oksidlanish-qaytarilish reaksiyasida bitta elektronga modda zarrachasining qaysi ulushi ekvivalent bo'lishini ko'rsatuvchi son

Ekstraksiya – tanlab ta'sir etuvchi erituvchilar yordamida suyuq yoki qattiq moddalar aralashmasini ajratish usuli; aralashma komponentlarining erituvchilarda turlicha erishiga asoslangan

Elektrolitik dissotsilanish – erituvchi molekulalari ta'sirida elektrolit molekulalarining ionlarga parchalanishi

Elektrolitlar – molekulalari ionlarga dissotsilanadigan kislota, asos va tuzlar eritmalari hamda eritilgan va suyuqlantirilgan holda elektr tokini o'tkazuvchi moddalar

Elektronga moyillik – elektronning atom, molekula yoki radikalga qo'shilishida ajralib chiqadigan energiya

Element organik analiz – organik birikmalardagi elementlarni miqdoriy aniqlashda qo'llaniladigan analitik usullar majmui

Eritmaning ion kuchi – ionlar zaryadi va konsentratsiyasiga bog'liq bo'lgan eritmadagi shu ionlarning o'zaro ta'sir kuchini ifodalovchi kattalik

Erituvchilar – turli moddalarni eritish xossasiga ega bo'lgan kimyoviy birikmalar yoki aralashmalar

Eruvchanlik – moddaning boshqa moddalar bilan bir jinsli sistemalar – eritmalar hosil qilish xususiyati; erigan modda konsentratsiyasi bilan ifodalanadi

Fiksanal – shisha ampulalarga joylashtirilgan va standart eritmalar tayyorlash uchun xizmat qiladigan moddaning aniq miqdori (odatda 0,1 mol)

Funksional analiz – organik birikmalar va plastmassalardagi reaksion faol guruhlarni (funksional guruhlarni) aniqlashda qo'llaniladigan fizikaviy va kimyoviy analiz usullarining majmui

Gidroliz – erigan modda ionlari bilan suv ionlarining o'zaro ta'siri natijasida eritma muhitining o'zgarishi

Gravimetrik faktor – aniqlanadigan namudagi komponent miqdorini ifodalaydigan koeffitsiyent bo'lib, aniqlanadigan komponent bilan gravimetrik shakl molyar massalarining nisbatini ko'rsatadi

Gravimetriya (tortma analiz) – ma'lum tarkibli birikma sifatida ajratilgan namuna komponentining massasini aniq o'lchashga asoslangan kimyoviy analizning miqdoriy usuli

Guruh reagenti – ko'p sonli noorganik ionlar yoki organik birikmalarning muayyan sinflari bilan xarakterli mahsulotlar (cho'kma, gaz, rangli eritmalar) hosil qiladigan reaktiv

Hajmiy analiz – *Titrimetrik analiz*ga qarang

Identifikatsiya – fizikaviy, fizik-kimyoviy va kimyoviy xossalarni taqqoslab, noma'lum birikmani boshqa ma'lum birikmaga o'xshashligini aniqlash

Indikatorlar – muhit sharoitiga (gidroksoniy, metall ionlarining konsentratsiyasi, moddalarning oksidlangan va qaytarilgan shakllarining nisbati va boshqalarga) bog'liq holda rangini o'zgartiruvchi organik va noorganik moddalar

Ionitlar – o'zining ionlarini eritma ionlariga almashtira oladigan qattiq qiyin eruvchan moddalar

Ionlanish – neytral atomlar yoki molekulalardan ionlarning hosil bo'lishi

Ishonchlilik chegarasi – o'rtacha qiymatni saqlash ehtimolligi mavjud bo'lgan oraliq

Ichki kompleks birikmalar – tuz hosil qiluvchi va kompleks hosil qiluvchi guruhlarni saqlagan organik reagentlarning metall ionlari bilan hosil qilgan siklik kompleks birikmalari bo‘lib, markaziy atom shu sikllarning birida yoki bir nechtasida joylashadi

Kompleksonometriya – metall ionlarining etilendiamintetrasirka kislota bilan kompleks birikmalar hosil qilish reaksiyalariga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

Konsentratsiya – eritmadagi berilgan komponentning nisbiy miqdorini ifodalovchi kattalik; hisoblashlarda, asosan, molyar, normal, foiz va molyal konsentratsiyalar ishlatiladi

Konsentrlash – aniqlanadigan komponent miqdorini (konsentratsiyasini) oshirish usuli

Koordinatsion son – kompleks birikmada markaziy atom bilan bog‘langan neytral molekulalar yoki ionlarning umumiy soni

Ligandlar – kompleks birikmada markaziy atom bilan bog‘langan molekulalar yoki ionlar

Makrokomponentlar – aniqlanadigan komponentda massa ulushi 10 – 100% bo‘lgan moddalar

Massalar ta’siri qonuni – muvozanatda turgan kimyoviy reaksiyalardagi ta’sir etuvchi moddalar orasidagi nisbatlarni o‘rnatuvchi qonun

Merkurimetriya – titrant sifatida simob (II) tuzlarining qo‘llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

Mikrokomponentlar – aniqlanadigan komponentda massa ulushi 10^{-3}% dan kam bo‘lgan moddalar

Mikrokristalloskopiya – analiz qilinadigan eritma tomchisiga reaktivning ta’siridan o‘ziga xos shakldagi kristallarning hosil bo‘lishiga asoslangan sifat analizining usuli

Minimal hajm – aniqlanadigan ionning topilish minimumini saqlagan eritma hajmi

Miqdor – obyektning aniqligi bo‘lib, shu asosida uni bir jinsli tarkibiy qismlarga ajratish mumkin

Miqdoriy analiz – aniqlanadigan namunadagi kimyoviy elementlar (birikmalar) yoki ular shakllarining konsentratsiyasini (miqdorini) eksperimental aniqlash (o‘lchash)

Mol – 0,012 kg uglerod-12 izotopida nechta atom bo‘lsa, shuncha shartli zarrachalarni saqlagan modda miqdorining birligi

Molekulyar massa (nisbiy) – modda molekula massasining uglerod-12 atom massasi 1/12 qismiga nisbati

Molyar konsentratsiya (mol/dm^3, mol/l) – 1 dm^3 (yoki 1 litr) eritmadagi erigan moddaning mol miqdori

Molyar massa – 1 mol moddaning massasi (g/mol)

Molyar ulush – berilgan sistemada komponent miqdorining moddalar umumiy miqdoriga bo'lgan nisbati. Birning ulushlari, foiz, promille (mingdan bir ulush ‰) va million ulushlarda (mln^{-1}) ifodalanadi

Namuna – kimyoviy tarkibni aks ettiruvchi tekshiriladigan materialning bir qismi

Nazorat (xolis) tajriba – o'xshash sharoitda (bir xil reagent, asboblar va boshqalar), lekin aniqlanadigan moddasiz kimyoviy analiz jarayonlarini takrorlash. Analiz natijalarini tuzatish maqsadida bajariladi

Niqoblash – xalaqit beruvchi ionlarni kam dissotsilanuvchi, asosan kompleks birikmalar ko'rinishda bog'lash yoki ularni boshqa shaklga (masalan, oksidlanish darajasini o'zgartirib) o'tkazish

Nisbiy standart chetlanish – standart chetlanishning o'rtacha qiymatga nisbati

Normal konsentratsiya – 1 dm^3 (yoki 1 litr) eritmada eritilgan moddaning g-ekv miqdori

Oksidimetriya – oksidlovchilarning standart eritmalari qo'llaniladigan miqdoriy analizning titrimetrik usullar majmui

Oksidlanish-qaytarilish potensiali – oksidlanish-qaytarilish juftini saqlagan eritmaga inert (platina yoki oltin) elektrod tushirilganda yuzaga keladigan potensial. Nernst tenglamasi bilan ifodalanadi

Oksredmetriya – oksidlanish-qaytarilish reaksiyalariga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usullar majmui

Parallel aniqlashlar – bir xil sharoitda bitta namuna uchun olingan ko'p sonli natijalar

Permanganatometriya – titrant sifatida kaliy permanganat eritmasining qo'llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

Protoliz – kuchsiz elektrolitlar yoki kam eruvchan moddalar hosil bo'lishi bilan boradigan moddalarning suv bilan o'zaro ta'siri

Qo'shimchalar – analiz qilinadigan namunada miqdori 10% dan kam bo'lgan moddalar

Real zarrachalar – kimyoviy reaksiyalarda bevosita ishtirok etuvchi atomlar, ionlar, molekulalar, radikallar, elektronlar va hokazo

Reduktometriya – qaytaruvchilarning standart eritmalari qo'llaniladigan miqdoriy analizning titrimetrik usullar majmui

Selektiv reagentlar – muayyan sharoitlarda faqat kamroq sondagi ionlar bilan o'xshash reaksiyalar beradigan analitik reagentlar

Sentrifugalash – markazdan qochma kuchlar ta'sirida aralashmalarni qattiq va suyuq fazalarga ajratish

Serimetriya – titrant sifatida seriy tuzlarining qo'llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

Sistematik xatolar – aniqlanadigan komponent miqdorining haqiqiy va o'rtacha qiymatlari orasidagi statistik farq

Sifat – moddiy obyektning (predmet, hodisa, jarayonning) muayyan aniqligi bo'lib, shu asosida u berilgan obyekt deb hisoblanadi va boshqa obyektlardan farq qiladi

Sifat analiz – aniqlanadigan namuna komponentlarini topish va identifikatsiyalash

Solvatlanish – erigan modda zarrachalarining erituvchi zarrachalari bilan o'zaro ta'siri natijasida molekulyar agregatlar – solvatlarning hosil bo'lishi

Solvoliz – erigan modda va erituvchi orasida boradigan va muayyan tarkibli yangi kimyoviy birikmalarning hosil bo'lishiga olib keladigan almashinish reaksiyalari

Spetsifik reaksiyalar – muayyan sharoitda faqat bitta moddani (ionni) topishga (aniqlashga) imkon beradigan analitik reaksiyalar

Standart elektrod potensial – 25°C va atmosfera bosimida elektrod potensialni belgilovchi ionlarning aktivligi 1 ga teng bo'lgan eritmadagi elektrodning potensiali

Standart (titrlangan) eritmalar – miqdoriy analizning titrimetrik usullarida qo'llaniladigan aniq konsentratsiyali eritmalar

Standart namunalar – turli kimyoviy analiz usullari uchun qo'llaniladigan aniq kimyoviy tarkibli etalonlar

Standart chetlanish (o'rtacha kvadratik chetlanish) – xatoliklar xarakteristikasi bo'lib, dispersiyadan olingan kvadrat ildizning musbat qiymatini ifodalaydi

Suyultirish chegarasi – 1 g aniqlanadigan ionni saqlagan eritmaning millilitr miqdori

Titr (g/sm^3, g/ml) – 1 sm^3 yoki 1 ml eritmadagi moddaning massasi

Titrimetrik analiz (hajmiy analiz) – aniqlanadigan eritma bilan reaksiyasiga sarflanadigan ma'lum konsentratsiyali reagent eritmasining hajmini o'lchashga asoslangan miqdoriy analiz usullarining majmui

Titrlangan eritmalar – *Standart eritmalar*ga qarang

Titrlash – titrimetrik analizning asosiy usuli bo'lib, unda ma'lum konsentratsiyali reagent eritmasi byuretkadan aniqlanadigan eritmaga ekvivalent nuqtaga yetguncha qo'shiladi

Titrlash egri chiziqlari – titrlash jarayonining grafik ko'rinishi. Egri chiziqlar titrant hajmi (*V*) – ionlar konsentratsiyasi (*C*) koordinatalarida tuziladi

Titrlash sakramasi – titrlash egri chizig'ining keskin o'zgarishi. Titrantning 99,9 – 100,1% oraliqdagi qo'shilishida kuzatiladi

Tomchi analiz – filtr qog'oz, shisha plastinka ustida eritmalarning tomchilari orasida boradigan reaksiyalarga asoslangan sifat yoki yarimsifat analizning usuli

Topilish minimumi – ma'lum sharoitda modda yoki ionning ayni reaksiya yordamida topilishi mumkin bo'lgan eng kam miqdori; analitik reaksiyaning sezgirligini xarakterlaydi

Tortim – analitik aniqlashlarni o'tkazish uchun olingan namunaning muayyan qismi

Tortma analiz – *Gravimetriya*ga qarang

Vodorod ko'rsatkich pH – eritmadagi gidroksoniy ionlarining konsentratsiyasini (aktivligini) xarakterlovchi kattalik bo'lib, u H_3O^+ molyar konsentratsiyasining manfiy logarifmiga teng

Xelatlar – *Ichki kompleks birikmalar*ga qarang

Xossa – obyektning sifat ko'rsatkichi bo'lib, uning boshqa obyekt bilan o'xshashligini yoki farqini ifodalaydi va u bilan ta'sirlashganda namoyon bo'ladi

Xromatografiya – muayyan sorbentda aniqlanadigan aralashma komponentlarining turlicha sorbsiyalanishiga asoslangan aralashmalarni ajratish va analiz qilish usullarining majmui

Xromatometriya – titrant sifatida kaliy dixromat eritmasining qo'llanilishiga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

Xromoforlar – tashqi ta'sirlar ostida moddaning ranglanishini keltirib chiqaradigan atomlar guruhi

Yodometriya – $I_3^-/3I^-$ ($I_2/2I^-$) juftining oksidlanish-qaytarilish xossalariga asoslangan miqdoriy analizning titrimetrik usuli

O'ziga xos reaksiyalar – faqat berilgan modda uchun xos bo'lgan reaksiyalar

Chegara (quyi yoki yuqori) – aniqlanadigan komponentning eng kam yoki eng ko'p miqdori

Cho'ktirish – bir yoki bir nechta ionlar yoki moddalarni kam eruvchan moddalar ko'rinishida ajratish

ANALITIK KIMYONING RIVOJLANISHIGA O‘Z HISSANI QO‘SHGAN OLIMLAR

Abu Rayhon ibn Axmad al-Beruniy – O‘rta Osiyoning buyuk mutafakkiri, ensiklopedist olimi. Moddalarning solishtirma og‘irliklarini katta aniqlik bilan o‘lchadi

Alimarin Ivan Pavlovich (1903 – 1989) – kimyogar-analitik. Asosiy ishlari miqdoriy mikro va ultramikroanalizga bag‘ishlangan. Yarim o‘tkazgichlardagi qo‘shimchalarni aniqlashda neytron-aktivatsion usulni taklif etdi

Alkemade Kornelis (1923 – 1989) – daniyali shifokor. Alanga fotometriyasi usulini ishlab chiqdi

Angstrem Anders Yonas (1814 – 1874) – shved fiziki va astronomi, spectral analizning asoschilaridan biri

Arrenius Svante Avgust (1859 – 1927) – shved fizkimyogari. Elektrolitik dissotsilanish nazariyasining asoschisi. Kimyoviy kinetikaga oid ishlarning muallifi (Arrenius tenglamasi). Nobel mukofoti sovrindori

Afselius Iogan (1753 – 1837) – shved kimyogari, Upsala universitetining kimyo, metallurgiya va farmatsiya professori, Berselius ustozi

Balar Antuan Jerom (1802 – 1876) – fransuz kimyogari. Bromni kashf etdi

Bekman Ernst Otto (1853 – 1923) – nemis kimyogari. Erigan moddaning molekulyar massasini aniqlash usulini ishlab chiqdi, spektral analiz sohasida ishlar olib bordi

Ber Avgust (1825 – 1863) – nemis shifokori. Optikaga oid tadqiqotlar olib bordi, nurning yutilish qonunini kashf etdi

Bergman Torbern Ulaf (1735 – 1784) – shved kimyogari va mineralogi. Analitik kimyoning asoschilaridan biri. Sifat va miqdoriy analiz usullarini ishlab chiqdi

Bertolle Klod Lui (1748 – 1822) – fransuz kimyogari, kimyoviy muvozanat ta'limotining asoschisi. Xlor bilan oqartirish usulini ishlab chiqdi, o‘zining nomi bilan ataladigan tuzni kashf etdi

Berselius Yyons Yakob (1779 – 1848) – shved kimyogari va mineralogi. Seriy, selen va toriyni kashf etdi. Elektokimyoviy dualizm nazariyasini asosladi va uning asosida elementlar, birikmalar va minerallar klassifikatsiyasini yaratdi. Element-larning atom og'irliklari jadvalini tuzdi, zamonaviy kimyoviy belgilarni kiritdi

Byotger Vilgelm (1871 – 1949) – nemis kimyogari. Miqdoriy analiz usullarini ishlab chiqdi

Boyl Robert (1627 – 1691) – ingliz fiziki va kimyogari. Kimyoviy element tushunchasini birinchi marta ilmiy asoslab berdi, eksperimental usullarni kimyoga kiritdi, kimyoviy analizga asos soldi. Gaz qonunlarining birini yaratdi (Boyl-Mariott qonuni)

Brensted Yoxanes Nikolaus (1879 – 1947) – daniyalik kimyogar. Reaksiyalar kinetikasi, eritmalar termodinamikasi bilan shug'ullandi. Kislota va asoslar nazariyasini ishlab chiqdi

Bryuster Deyvid (1781 – 1868) – shotlandiyalik fizik, nurning qutblanishini o'rgandi. Uning nomi bilan ataladigan qonunni kashf etdi, aylanma qutblanishni ochdi

Buger Pyer (1698 – 1758) – fransuz olimi, fotometriyaning asoschilarida biri. Yorug'lik kuchini o'lchash usullarini ishlab chiqdi. Yorug'likning so'nish qonunini yaratdi (Buger-Lambert Ber qonuni)

Bunzen Robert Vilgelm (1811 – 1899) – nemis kimyogari. G. Kirxgof bilan hamkorlikda spektral analizga asos soldi. Seziy, rubidiyni kash etdi

Byerrum Nils (1879 – 1958) – daniyalik kimyogar. Kislota va asos nazariyasining asoschilaridan biri. Vodorod ionlari konsentratsiyasini aniqlash, amfoter elektrolitlar va boshqalarni o'rgandi

Vaage Peter (1833 – 1900) – norvegiyalik matematik. K. Guldberg bilan birgalikda massalar ta'siri qonunini asoslab berdi

Valden Paul (1863 – 1957) – kimyogar, Peterburg FA akademiki. Eritmalar elektrokimyosi, optik izomeriyani o'rgandi

Vant-Goff Yakob Xendrik (1852 – 1911) – gollandiyalik fizkimyogar,. kimyo bo'yicha birinchi Nobel mukofoti sovrindori. Stereokimyo, eritmalar va kimyoviy kinetika ta'limotining asoschilaridan biri. Eritmalardagi osmotik bosim qonunini kashf qildi

Veybel Stig Erik (1898 –) – daniyalik kimyogar. Organik birikmalar analizini ichlab chiqdi

Vensel Karl Fridrix (1740 – 1793) – Freybergdagi metal quyish zavodining boshqaruvchisi. Ekvivalentlar qonunining kashfiyotchisi Rixterdan oldin kislota va asoslar doimiy nisbatlarda birikishini aniqladi

Vollaston Uilyam (1767 – 1828) – ingliz kimyogari va fiziki, fanga birinchi marta ekvivalent tushunchasini kiritdi

Volta Alessandro (1745 – 1827) – italiyalik fizik. Elektr ta'limotining asoschilaridan biri. Birinchi galvanik elementni va birinchi galvanik elementlar batareyasini yaratdi

Galvani Luidji (1737 – 1798) – italiyalik anatom va fiziolog, elektr ta'limoti va eksperimental elektrofiziologiyaning asoschilaridan biri. Metallning elektrolit bilan ta'sirlanishidan potensiallar farqi yuzaga kelishini aniqladi

Ganch Artur Rudolf (1857 – 1935) – organik-kimyogar, organik birikmalarni analiz qilishda birinchi marta fizik-kimyoviy usullarni qo'lladi

Geyger Xans Vilgelm (1882 – 1945) – nemis fiziki. Zaryadlangan zarrachalarni qayd etish asbobini ixtiro qildi

Gey-Lyussak Jozaf Lui (1778 – 1850) – fransuz kimyogari va fiziki. Gaz qonunlarini kashf qildi. Xlor, yod, kaliy va natriy – kimyoviy elementlar ekanligini isbotladi. Eruvchanlik diagrammalarini birinchi bo'lib tuzdi. Hajmiy analiz usullarini mukammallashtirdi

Geyrovskiy Yaroslav (1890 – 1967) – chexiyalik fizkimyogar. Polyarografik analiz usulining asoschilaridan biri

van Gelmont Yan Baptist (1574 – 1644) – gollandiyalik tabiatshunos, yadrokimyoning ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biri. "Gaz" atamasining muallifi

Gibbs Jozayya Uillarda (1839 – 1903) – amerikalik fizik, termodinamika va statistik mexanikaning asoschilaridan biri. Termodinamik qator tenglamalarni chiqardi

Goppelsryoder potensiallar nazariyasini ishlab chiqdi, fazalar qoidasini kashf etdi

Kristof Frederik (1837 – 1919) – shveysariyalik kimyogar. Kapillyar analizga oid ko'p sonli ishlar muallifi

Gofman (Hoffman) Avgust Vilgelm (1818 – 1892) –nemis kimyogari,Yu.Libix shogirdi. Asosan azot va ftor saqlovchi organik birikmalar va alkaloidlar ustida tadqiqotlar olib bordi

Gofman Fridrix (1660 – 1743) – gollandiyalik shifokor. Analitik va farmasevtik kimyo bo'yicha turli tadqiqotlar muallifi. Tabiiy suvlar analizini o'tkazdi

Grotgus Kristian Iogann Ditrix fon (1785 – 1822) – fizik va kimyogar olim. Elektroliz nazariyasini ishlab chiqdi va fotokimyo qonunini kashf qildi (Grotgus-Dreyper qonuni)

Guldberg K. Maksimilian (1836 – 1902) – skandinaviyalik matematik. P. Vaage bilan birgalikda massalar ta'siri qonunini ta'rifladi

Dalton Jon (1766 - 1844) – ingliz kimyogari va fiziki, kimyoviy atomizm ta'limotining asoschisi. Karrali nisbatlar qonunini kashf etdi, "atom og'irligi" tushunchasini fanga kiritdi, bir qator elementlarning atom massalarini aniqladi

Dekruazil Fransua Antuan Anri (1751 – 1825) – fransuz kimyogar-muxandisi. Kislota va ishqorlarning hajmiy analiz usullarini ishlab chiqdi

Devi Gemfri (1778 – 1829) – ingliz kimyogari va fiziki. Elektrokimyoning asoschilaridan biri, elektroliz yordamida bir qator elementlarni ajratib oldi

Dyubosk Jyul (1817 – 1886) – fransuz olimi. Spektroskopni mukammallashtirdi

Dyulong Pyer Lui – fransuz fiziki va kimyogari. A. Pti bilan birgalikda issiqlik sig'imi qonunini kashf etdi, katerometrni ixtiro qildi

Dyuma Jan Batist (1800 – 1884) – fransuz kimyogari, organik kimyo asoschilaridan biri. Azot bug'lari va organik birikmalar zichligini aniqlash usullarini taklif etdi

Jeyms A. – gaz-suyuqlik taqsimlanish xromatografiyasini ichlab chiqdi

Jobir ibn Xayyon (taxminan 721 – 815) – arab alkimyogari. Ko'p sonli kimyoviy jarayonla tavsiflangan alkimyoga oid asarlar muallifi

Joffrua Klod Jozef (1685 – 1752) – fransuz kimyogari. Turli tabiiy birikmalar analizini o'tkazdi, novshdil tarkibini aniqladi

Kavendish Genri (1731 – 1810) – ingliz fiziki va kimyogari. Ko'pgina gazlarning xossalarini o'rgandi, vodorodni kashf etdi, havo tarkibini va suvning kimyoviy tarkibini aniqladi

Kannitssaro Stanislao (1826 – 1910) – italiyalik kimyogar. Atom-molekulyar nazariyaning asoschilaridan biri. "Atom", "ekvivalent" va "molekula" tushunchalarini asoslab berdi

Kekule Fridrix Avgust (1829 – 1896) – nemis kimyogari. Organik birikmalar tuzilishi nazariyasiga oid asarlar muallifi. Organik birikmalarda uglerod to'rt valentli bo'lishini ko'rsatdi va benzolning xalqasimon formulasini taklif qildi

Kirxgof Gustav Robert (1824 – 1887) – nemis kimyogari. R. Bunzen bilan hamkorlikda spektral analiz usuliga asos soldi. Nurlanish qonunini asoslab berdi va absolyut qora jism tushunchasini kiritdi

Klassen Aleksandr (1843 – 1934) – nemis analitik-kimyogari

Koltgof Isaak (1894 –) – amerikalik kimyogar-analitik. Konduktometrik va potensiometrik titrlash, indikatorlar nazariyasi, hajmiy analiz bo'yicha bir qator ishlar muallifi

Kruks Uilyam (1832 – 1919) – ingliz fiziki va kimyogari. Gazlardagi elektr razryadlar va katod nurlarini tadqiq qildi. Sintillyatsiya hodisasini ochdi, spintariskopni yaratdi

Kun Rixard (1900 – 1967) – nemis biokimyogari. O'simlik pigmentlari (karatinoidlar) va vitaminlar kimyosi bo'yicha fundamental tadqiqotlar muallifi. Nobel mukofoti sovrindori

Kyeldal Iogann Gustav (1849 – 1900) – daniyalik kimyogar. Uning nomi bilan ataladigan azotni aniqlash usulini yaratdi

Lavuazye Antuan Loran (1743 – 1794) – fransuz kimyogari, zamonaviy kimyoning asoschilaridan biri. Kimyoviy birikmalarning ratsional nomenklaturasini ishlab chiqdi. Termokimyoga asos soldi

Lambert Iogann Genrix (1728 – 1777) – nemis olimi, fotometriyaning asoschilaridan biri

Levenguk Antoni van (1632 – 1729) – gollandiyalik tabiatshunos, ilmiy mikroskopiyaning asoschilaridan biri, 300 marta kattalashtiruvchi linzalarni yaratdi

Libix Yustus (1803 – 1873) – nemis kimyogari. Bir qator organik birikmalarni sintez qildi, izomeriyani kashf etdi

Lovits Toviy Yegorovich (1757 – 1804) – rus kimyogari. Yog'och ko'mirida erigan moddalarning adsorbilanishini kashf etdi. Spirt va suv aralashmasining solishtirma og'irliklarini aniqladi. O'ta to'yingan eritmalar tushunchasini fanga kiritdi

Lokyer Jozef Norman (1836 – 1920) – ingliz astronomi. Astrospektroskopiyaning asoschilaridan biri. Quyosh spektrlarini o'rganish davrida geliyni kashf qildi

Lomonosov Mixail Vasilyevich (1711 – 1865) – rus olimi. Tabiiy fanlar, tarix, metallurgiya va boshqa sohalarda faoliyat ko'rsatdi. Atom-molekulyar ta'limot asoschisi va massalar saqlanish qonunining kashfiyotchisi

Marggraf Andreas Sigizmund (1709 – 1782) – nemis kimyogari. Mikroskop yordamida tuzlar va minerallar tarkibini tadqiq etdi. Shaker kristallarini olishga erishdi

Martin Archer Jon Porter (1910 –) – ingliz biokimyogari va fizkimyogari. Taqsimlanish xromatografiyasi: qog'ozda (R. Sing bilan hamkorlikda) va gaz-suyuqlik (N. Jeyms bilan hamkorlikda) usullarini ishlab chiqdi. Nobel mukofoti sovrindori

Marsh Jeyms (1794 – 1846) – ingliz kimyogari, mishyakni aniqlash usulini ishlab chiqdi

Mitcherlix Elxard (1794 – 1863) – nemis kimyogari. Izomorfizm va dimorfizm hodisalarini kash etdi

Monye Lyudvig (1879 –) – nemis analitik-kimyogari

Mor Karl Fridrix (1806 – 1879) – nemis kimyogari. Analizning bir qator usullarini ishlab chiqdi; analitik ishlar uchun bir nechta asboblarni yaratdi

Nernst Valter (1864 – 1941) – nemis fizkimyogari, zamonaviy fizik kimyoning asoschilaridan biri. Elektrod potensiallar qiymatini aniqlash tenglamasini yaratdi. Nobel mukofoti sovrindori

Nessler Yulius (1827 – 1905) – nemis kimyogari. Bir nechta analitik usullarni ishlab chiqdi. Uning nomi bilan ataladigan reagentni oldi

Ostvald Vilgelm Fridrix (1853 – 1932) – nemis fizkimyogari va faylasufi. Elektrolitlar nazariyasi, kimyoviy kinetika va katalizga oid fundamental asarlar muallifi. Nobel mukofoti sovrindori

Panet Fridrix Adolf (1887 – 1958) – nemis kimyogari. Meteoritlar tadqiqotchisi, ulardagi geliy miqdorini aniqlash usullarini ishlab chiqdi. Fayans-panet qoidasining mualliflaridan biri

Pregl Frits (1869 – 1930) – avstriyalik kimyogar. Organik birikmalarning miqdoriy mikroanalizi usuliga asos soldi. Nobel mukofoti sovrindori

Pungor (Pungor) erne (1923 –   ) – vengriyalik kimyogar. Analizning instrumental usullari va ion-selektiv membranali elektrodlarga oid bir qator ishlar muallifi; ossillometrik, fotometrik, polyarografik va potensiometrik analizning yangi usullarini ishlab chiqdi

Pfaff (Pfaff) Kristian Genrix (1773 – 1852) – nemis fiziki va kimyogari. Ikki tomli «Analitik kimyo darsligi»ning muallifi

Pfeffer (Pfeffer) Vilgelm (1845 – 1920) – nemis fiziologi. Kosmos hodisalari va ularning o'simliklar fiziologiyasidagi ahamiyatini o'rgandi

Raul (Raoult) Fransua Mari (1830 – 1901) – fransuz fizigi va kimyogari. Eritmalarning fizik-kimyoviy xossalarini tadqiq etdi, uning nomi bilan ataladigan qonunlarni kashf etdi

Rixter (Richter) Ieremiya Veniamin (1762 – 1807) – nemis kimyogari. Ekvivalentlar qonunini kashf etdi, «stexiometriya» tushunchasini kiritdi

Roze (Rose) Genri (1795 – 1864) – nemis kimyogari. Sifat analizining vodorod sulfidli usulini va miqdoriy analizning bir qator usullarini ishlab chiqdi, niobiyni kashf etdi

Roze (Rose) Gustav (1798 – 1873) – nemis mineralogi va kristallografi. Minerallarning kristallokimyoviy klassifikasiyasini taklif etdi

Rosko (Roscoe) Genri enfild (1833 – 1915) – ingliz kimyogari. R. Bunzen bilan birga fotokimyo qonunlaridan birini kashf etdi (Rosko – Bunzen qoununi). Vanadiyni kashf etdi

Runge (Runge) Fridlib Ferdinand (1795 – 1867) – nemis kimyogari. Qog'oz xromatografiyasining asoschisi hisoblanadi

Reley (Rayleigh) (1842 – 1919) – ingliz fizigi, London qirollik jamiyatining a'zosi va uning prezidenti. Nurning molekulyar tarqalish, akustika, tebranish nazariyalarining muallifi. U. Ramzay bilan hamkorlikda argonni kashf etdi. Nobel mukofoti sovrindori

Sabadvari (Szabadvary) Ferenц – vengriyalik kimyo tarixi mutaxassisi

Syorensen (Sørensen) Syoren Peter Lauriц (1868 – 1939) – daniyalik fizkimyogar va biokimyogar. Aminokislotalar sintezining umumiy usuli va aminlardagi azotni miqdoriy aniqlash usulini ishlab chiqdi vodorod ko'rsatkich (rN) tushunchasini kiritdi

Sing (Synge) Richard Lorens Milington (1914 –   ) – ingliz biokimyogari. Taqsimlanish xromatografiyasi usulini ishlab chiqdi

(A. Martin bilan birgalikda). Oqsillar analitik kimyosiga oid asarlar muallifi. Nobel mukofoti sovrindori

Svet Mixail Semyonovich (1872 – 1919) – rus fiziologi va botaniki, xromatografiyaning asoschisi. Yashil barglarning pigmentlariga oid tadqiqot ishlarini o'tkazdi

Seyze (Zeise) Vilyam Xristofer (1789 – 1847) – nemis farmasevti. Organik bisulfidlar olish usullaridan birini ishlab chiqdi, merkaptanlarni kashf etdi

Tenar (Thenard) Lui Jak (1777 – 1887) – fransuz kimyogari. Natriy, kaliy va xlor – elementlar ekanligini isbotladi. Vodorod peroksidni olishga erishdi Gey-Lyussak bilan birga borni kashf etdi

Tennant (Tennant) Smitson (1761 – 1815) – ingliz kimyogari. Osmiy, iridiyni kashf etdi, olmos – bu toza uglerod ekanligini isbotladi, oqartirish usulini ishlab chiqdi

Turneyser (Thurneysser) Leonard (1530 – 1596) – alkimyogar. Achchiqtoshlar va selitra olish usulini o'zgartirdi; oltingugurt, tuzlar, simob, sut shakarini tayyorlash usullarini tavsifladi; suvning taxminiy analizini o'tkazdi

Uillar (Willard) Gobard Gerd (1881 –   ) – amerikalik kimyogar-analitik

Faradey (Faraday) Maykl (1791 – 1867) – ingliz fiziki, elektromagnit maydon ta'limotining asoschisi. elektr tokining kimyoviy ta'sirini tadqiq etdi, elektr va magnetizm, magnetizm va yorug'lik orasidagi bog'liklarni ochdi. Elektromagnit induksiyani kashf etdi. elektroliz qonunlarini o'rnatdi. elektromagnit to'lqinlar mavjudligini oldindan bashorat qildi

Fayans (Fajans) Kazimir – amerikalik fizkimyogar. Radiokimyo, eritmalar nazariyasi, adsorbsiyaga oid asarlar muallifi. Fayans – Panet qoidasini o'rnatdi

Fisher (Fischer) emil German (1881 – 1945) – nemis organik-kimyogari, tabiiy birikmalar kimyosining asoschisi. Purin hosilalarini sintezladi va ularning tuzilishini tadqiq etdi. Nomenklaturani fanga kiritdi, rasional klassifikatsiyani tuzdi va ko'pgina uglevodorodlarni sintezladi. Oqsillar kimyosiga oid fundamental tadqiqotlarni o'tkazdi. Nobel mukofoti sovrindori

Folin (Folin) Otto (1867 – 1934) – amerikalik biokimyogar. Endogen va ekzogen metabolizm nazariyasining muallifi; mochevina va azotni aniqlashning yangi mikro usullarini amaliyotga kiritdi

Fontana (Fontana) Feliche (1720 – 1805) – italiyalik tabiatshunos. Gazlar hajmini o'lchash uchun maxsus apparatlarni qo'lladi; suv gazini kashf etdi

Fraungofer (Fraunhofer) Yozef (1787 – 1826) – nemis fiziki. Linzalar, difraktsion panjaralarni tayyorlash usullarini takomillashtirdi. Uning nomi bilan ataluvchi spektr chiziqlarini kashf etdi

Frezenius (Fresenius) Karl Remigius (1818 – 1897) – nemis kimyogar-analitiki; Visbadendagi analitik laboratoriyani tashkil etdi, bevosita analitik kimyoga bag'ishlangan birinchi ilmiy jurnalga asos soldi. Kationlarni analitik guruhlarga ajratishni amalga oshirdi

Fuks (Fuchs) Iogann (1774 – 1856) – nemis kimyogari va mineralogi. Natriy silikat (eruvchan shisha), fuksitni kashf etdi; sement, seolitlarni tadqiq etdi; «amorf» va «qotuvchi suyuqliklar» tushunchalarini kiritdi

Xassel (Hassel) Odd (1897 – 1981) – norvegiyalik kimyogar, koformatsion analiz asoschilaridan biri. Rentgenografiya va elektronografiya usullari yordamida siklogeksan va uning hosilalari tuzilishini tadqiq etdi. Nobel mukofoti sovrindori

Xeveshi (Hevesy) Derd (Georg) (1885 – 1966) – vengriyalik radiokimyogar. Kimyoviy va biokimyoviy jarayonlarni o'rganishda birinchi marta izotoplarni qo'lladi. Hamkasblari bilan birgalikda gafniyni kashf etdi. Nobel mukofoti sovrindori

Xempel (Hempel) Valter (1851 – 1916) – nemis kimyogar-analitiki

Chugaev Lev Aleksandrovich (1873 – 1922) – rus kimyogari, kompleks birikmalar kimyosi bo'yicha ilmiy maktab asoschisi. Nikelni aniqlash uchun reagentni kashf etdi (CHugaev reaktivi). Uglevodorodlar sintezining usulini ishlab chiqdi (CHugaev reaksiyasi). Terpenlar kimyosiga oid asarlar muallifi

Sheele (Scheele) Karl Vilgelm (1742 – 1786) – shved kimyogari. Ko'pgina anorganik va organik moddalar, jumladan, xlor, kaliy permanganat, glitserin, sianid kislota, bir qator organik kislotalarni olishga erishi. Havoning murakkab tarkibini isbotladi.

Shenbayn (Schönbein) Xristian Fridrix (1799 – 1868) – nemis kimyogari. Ozonni kashf etdi, piroksilinni sintezladi

Shtaudinger (Staudinger) German (1881 – 1965) – nemis kimyogari, yuqori molekulyar birikmalar kimyosining asoschilaridan biri. Polimerlar katta molekulalardan tarkib topishini isbotladi. «Makromolekula» atamasini fanga kiritdi, polimer tuzilishi nazariyasini ishlab chiqdi. Ko'pgina tabiiy va sintetik polimerlarni tadqiq etdi. Nobel mukofoti sovrindori

Yung (Young) Tomas (1773 – 1829) – ingliz olimi. Yorug'likning to'lqin nazariyasini asoslab berdi. Interferensiya prinsipini ifodaladi, gazlarning akkomodatsiyasini tushuntirdi, modulini kiritdi (YUng moduli). Akustika, astronomiyaga oid asarlar muallifi

Yander (Jander) Gerxard (1862 – 1961) – nemis kimyogari. Suvsiz erituvchilar tadqiqotchisi

ADABIYOTLAR

1. Файзуллаев О. Аналитик кимё асослари. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси, 2003.
2. Основы аналитической химии. В 2 кн. Учеб. для вузов / Золотов Ю.А., Дорохова Е.Н., Фадеева В.И. и др. Под ред. Ю.А. Золотова. – М.: Высш. шк., 1999.
3. Васильев В.П. Аналитическая химия. В 2 кн. – М.: Дрофа, 2002.
4. Аналитическая химия. Проблемы и подходы: В 2 т: Пер. с англ./Под ред. Р.Кельнера, Ж.-М. Мерме, М. Отто, Г.М. Видмера. – М.: «Аст», 2004.
5. Мусакин А.П. Таблицы и схемы аналитической химии. – Л.: Химия, 1979.
6. Крешков А.П. Основы аналитической химии. В 3 кн. – М.: Химия, 1977.
7. Алексеев В.Н. Ярим микрометод билан қилинадиган химиявий анализ курси. – Тошкент. Ўқитувчи, 1975.
8. Скуг Д., Уэст Д. Основы аналитической химии/ Пер. с англ. Под ред. Ю.А. Золотова. – М.: Мир, 1979.
9. Бусев А.И., Ефимов И.П. Определения, понятия, термины в химии. – М.: Просвещение, 1981.
10. Лурье Ю.Ю. Справочник по аналитической химии. 6-изд., перераб. и доп. – М.: Химия, 1989.
11. Янсон Э.Ю., Путнинь Я.К. Теоретические основы аналитической химии. – М.: Высшая школа, 1980.
12. Лайтинен Г.А., Харрис В.Е. Химический анализ./Пер. с англ. Под ред. Ю.А. Клячко. – М.: Химия, 1979.
13. Бончев П.Р. Введение в аналитическую химию./Пер. с болг. Под ред. Б.И. Лобова. – М.: Химия, 1978.
14. Фритц Дж. Шенк Г. Количественный анализ./Пер. с англ. Под ред. Ю.А. Золотова. – М.: Мир, 1978.
15. Петерс Д., Хайес Дж., Хифтье Г. Химическое разделение и измерение./Пер. с англ. Под ред. П.К. Агасяна. – М.: Химия, 1978.
16. Пятницкий И.В. Теоретические основы аналитической химии. Киев: Вища школа, 1978.

17. Миркомилова М. Аналитик кимё. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002.
18. Джонсон К. Численные методы в химии. – М.: Мир, 1983.
19. Булатов М.И. Расчеты равновесий в аналитической химии. – Л.: Химия, 1984.
20. Данцер К., Тан Э., Мольх Д. Аналитика. Систематический обзор / Под ред. Ю.А. Клячко. – М.: Химия, 1981.

MUNDARIJA

M. R. Amonov, G‘. Q. Shirinov

ANALITIK KIMYO SXEMA VA JADVALLARDA

O‘QUV QO‘LLANMA

Toshkent - “Innovatsiya-Ziyo” - 2020

Muharrir: F. Xolsaidov
Texnik muharrir: Q.Mamiraliyev

Nashriyot litsenziyasi AI №023, 27.10.2018.
Bosishga 30.11.2020. da ruxsat etildi. Bichimi 60x84.
"Times New Roman" garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 18. Nashr bosma tabog‘i 17,8
Adadi 300 nusxa.

"Innovatsiya-Ziyo" MCHJ matbaa bo‘limida chop etildi.
Manzil: Toshkent shahri, Farhod ko‘chasi, 6-uy.

ISBN 978-9943-7025-6-1
9 789943 702561